

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

O‘ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

«XALQ OG‘ZAKI IJODI» FANIDAN

O‘QUV-USLUBIY MAJMUA

5220100- filologiya (o‘zbek filologiyasi)
bakalavriyat yo‘nalishi uchun (I kurs)

Tuzuvchilar:

f.f.d., prof. S.R. Mirzayeva

ANDIJON 2012

Uqtirish xati

Uslubiy qo'llanmada «Xalq og`zaki ijodi» kursini o'qitish bo'yicha ta'lim texnologiyalari, ularni qo'llash bo'yicha uslubiy tavsiyalar bayon etilgan. Ushbu tavsiyalar didaktik tamoyillar, ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlar texnologiyalarini ishlab chiqish usul va vositalari, ularning muhim belgilaridan iborat ta'limni texnologiyalash qoidalarini hisobga olgan holda loyihalashtirilgan.

Uslubiy qo'llanma oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilari va talabalari, tilni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash jarayonlariga qiziquvchilar uchun muljallangan.

M U N D A R I J A

KIRISH.....	4
I BO”LIM.	5
O`zbekiston davlat standarti. O`zbekiston uzluksiz ta`limi Davlat standartlari tizimi.....	7
“Xalq og`zaki ijodi” fanidan namunaviy dastur.....	30
“Xalq og`zaki ijodi” fanidan ishchi o`quv dasturi.....	37
II BO”LIM...	
«Xalq og`zaki poetik ijodi» o`quv fani bo`yicha ta`lim texnologiyasining konseptual asoslari.....	39
«Xalq og`zaki poetik ijodi» fanidan ma`ruza, amaliy va seminar mashg`ulotlarida o`qitish texnologiyasi.....	53
1- mavzu. Xalk og`zaki poetik ijodi haqida umumiy ma`lumot	56
2- mavzu Xalk og`zaki poetik ijodining o`ziga xos xususiyatlari	61
3- mavzu Qadimgi davr folklori. Xalq afsonalari ----	63
4- mavzu Maqol va matallar -----	66
5- mavzu Topishmoqlar-----	69
6- mavzu Askiya, so`z o`yinlari, latifalar - -----	78
7- mavzu O`zbek xalq qo`shiqlari ----- --	83
8- mavzu O`zbek xalq ertaklari -----	87
9- mavzu O`zbek xalq dostonlari ----- --	93
10- mavzu “Alpomish” dostoni-----	98
11- mavzu «Go`ro`g`li» dostonlar turkumi -----	102
12- mavzu Bolalar folklori ----- --	106
13- mavzu O`zbek marosim folklori ----- -	110
«Xalq og`zaki poetik ijodi» fanidan ma`ruza, amaliy va seminar mashg`ulotlari texnologik xaritasi.....	130
«Xalq og`zaki poetik ijodi» fanidan ma`ruza, amaliy va seminar mashg`ulotlari texnologik modeli.....	165
Amaliy va seminar mashg`ulot ishlanmasi.....	191
Mustaqil ta`lim ishlanmasi,.....	210
III BO`LIM	220
Oraliq nazorat uchun savollar.....	222
Yakuniy nazorat uchun variantlar.....	223
Test savollari.....	224
Vizual materiallar.....	236
Foydalanish uchun adabiyotlar ro`yxati.....	252.

KIRISH

Talabalarga bilim brishda zamonaviy ta'lim texnologiyalarining ahamiyati tugrisida So'z borganda Prezidentimiz I.A.Karimovning «O'quv jarayoniga yangi axbrot va pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish, bolalarimizni komil insonlar etib tarbiyalashda jonbozlik kursatadigan ukituvchi va domlalariga e'tiborimizni yanada oshirish, kiskacha aytganda, ta'lim-tarbiya tizimini sifat jixatidan butunlay Yangi bosqichga kutarish diqqatimiz markazida bulishi darkor»¹ degan So'zlarini ta'kidlash urinlidir. Bu masala «Barkamol avlod yili» Davlat dasturida xam asosiy yunalishlaridan biri sifatida e'tirof etilgan.

Qo'llanmada keltirilgan ta'lim texnologiyalarining xar biri uzida o'quv mashg'ulotini utkazish shart-sharoiti tugrisida axborot materiallarini, pedagogik maqsad, vazifa va kuzlangan natijalarni, o'quv mashg'ulotining rejasi, o'qitishning usul va vositalarini mujassamlashtirgan. Shuningdek, bu o'quv mashg'ulotining texnologik kartasini, ya'ni ukituvchi va o'quvchining mazkur o'quv mashg'ulotida erishadigan maqsadi bo'yicha xamkorlikdagi faoliyatini bosqichma-bosqich ta'riflanishini xam uz ichiga oladi.

Qo'llanma tarkibi kirish, ta'lim texnologiyasining konseptual asoslari, xar bir mavzu bo'yicha ma'ruza xamda amaliy va seminar mashg'ulotlarida o'qitish texnologiyasidan iborat. Ma'lumotlar maksimal darajada umumlashtirilgan va tartibga solingan. Ularni uzlashtirish va yodda saklab kolishni kuchaytirish uchun jadval va chizmalardan foydalanilgan.

Qo'llanmaning konseptual asoslari kismida dastlab «Xalq og'zaki poetik ijodi» fanining dolzarbligi va ahamiyati, mazkur o'quv fanining tarkibiy tuzilishi, o'qitishning usul va vositalarini tanlashda tayanilgan konseptual fikrlar, kommunikatsiyalar, axborotlar berilib, so'ngra loyihalashtirilgan, o'qitish texnologiyalari takdim etilgan.

Tukkiz turdagi ma'ruza mashg'ulotlari: kirish, tematik, muammoli, vizual ma'ruza, binar ma'ruza, ma'ruza-munozara, xamkorlikdagi ma'ruza, avvaldan rejalashtirilgan xatoli ma'ruza, sharxlovchi ma'ruza berilgan.

Muammoli seminar va amaliy mashg'ulotlar, bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirishga yo'naltirilgan seminar, aniq holatlarning yechimi bo'yicha seminar va amaliy mashg'ulotlar utish texnologiyalari mavjud.

Innovatsion va zamonaviy pedagogik goyalarni amalga oshirishda, jahon tajribasidan ko'rinib turibdiki, o'qituvchi bilim olishning yagona manbai bulib kolishi kerak emas, balki talabalar mustaqil ishlash jarayonining menejeri bo'lishi lozim. Ta'lim texnologiyasini ishlab chiqish asosida aynan shu g'oyalar yotadi.

¹ Ўзбекистон Конституцияси – биз учун демократик тараққиёт йўлида ва фуқаролик жамиятини барпо этишда мустақкам пойдевордир. – Президент Ислам Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 17 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси // Халқ сўзи, 2009 йил 6 декабрь.

I BO`LIM

- **O`ZBEKISTON DAVLAT STANDARTI. O`ZBEKISTON UZLUKSIZ TA`LIMI DAVLAT STANDARTLARI TIZIMI**
- **“XALQ OG‘ZAKI IJODI” FANIDAN NAMUNAVIY DASTUR**
- **“XALQ OG‘ZAKI IJODI” FANIDAN ISHCHI O`QUV DASTURI**

Qayd raqami

O‘ZBEKISTON DAVLAT STANDARTI
O‘zbekiston uzluksiz ta’limi Davlat standartlari tizimi

OLIY TA’LIM

**5220100 – *Filologiya (O‘zbek filologiyasi)* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning
tayyorgarlik darajasi va zaruriy
bilimlar mazmuniga qo‘yiladigan**

T A L A B L A R

Rasmiy nashr

Toshkent-2008 y.

1. **Ishlab chiquvchilar:**
 - Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini rivojlantirish markazi;
 - Mirzo ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti.
2. **Respublikaning kadrlar iste'molchi korxona va tashkilotlari, Fanlar Akademiyasining tarmoq institutlari, manfaatdor oliy ta'lim muassasalari bilan kelishilgan.**
3. **O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 200__ yil "___" _____dagi ___-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan va amalga kiritilgan.**
4. **Standartning amal qilish muddati - 5 yilgacha.**

Ushbu standart O'zstandart agentligining ruxsatisiz ko'paytirilishi va tarqatilishi mumkin emas.

1. 5220100 – *Filologiya (O'zbek filologiyasi)* ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi

- 1.1. **Yo'nalish** - O'zbekiston uzluksiz ta'lim Davlat ta'lim standartlari, Oliy ta'limning Davlat ta'lim standarti, Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari Klassifikatoriga kiritilgan.
- 1.2. **Ta'limning** kunduzgi o'qish shaklida **muddati – 4 yil.**
Akademik daraja - **"Bakalavr"**.
- 1.3. **Bakalavr:**
 - kasblar va lavozimlar milliy klassifikatoriga muvofiq oliy ma'lumotli shaxs egallashi lozim bo'lgan lavozimlar bo'yicha mustaqil faoliyat ko'rsatishga;
 - ta'lim yo'nalishi hamda turdosh ta'lim yo'nalishlarining magistratura mutaxassisliklari bo'yicha oliy ta'lim olishni davom ettirishga;
 - kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimida qo'shimcha kasbiy ta'lim olishga **tayyorlangan bo'lishi shart.**

1.4. 5220100 – *Filologiya (O'zbek filologiyasi)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr kasbiy faoliyati sohalari va ob'ektlarining tavsifi

1.4.1. Ta'lim yo'nalishning ilm-fan va xizmatlar sohasidagi o'rni

5220100 - *Filologiya (O'zbek filologiyasi)* –ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasining yo'nalishi bo'lib, o'zbek tilining shakliy-mazmuniy tuzilishi va xususiyatlari hamda o'zbek adabiyoti materiallarini tizimli suratda o'rganish, o'zbek tili boyligi, sintaktik qurilishi imkoniyatlaridan badiiy ijod sohasida foydalanish, badiiy asar yaratish va uni tahlil qilish jarayonini o'z ichiga oladi.

1.4.2. Kasbiy faoliyat ob'ektlari

5220100 – *Filologiya (O'zbek filologiyasi)* yo'nalishi bo'yicha bakalavr kasbiy faoliyatining ob'ektlari - o'zbek tilida yaratilgan badiiy matnlar; fikr ifodalashda potensial ma'no yasovchi materiallar; nutqning yaratilish jarayoni; muloqot birliklari; badiiy-estetik kommunikatsiya; matn talqini, tushunish va idrok etish, ta'lim jarayoni

me'yoriy hujjatlari, pedagogik texnologiyalar, ta'limning texnikaviy vositalarini o'rganish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash.

1.4.3. Kasbiy faoliyat turlari

5220100 – *Filologiya (O'zbek filologiyasi)* yo'nalishi bo'yicha bakalavr o'zining fundamental, umumkasbiy va maxsus tayyorgarligiga muvofiq quyidagi kasbiy faoliyat turlarini bajarishi mumkin:

- **ilmiy-tadqiqot:** o'zbek filologiyasi sohasida ilmiy tekshirish institutlarida ilmiy xodim, tadqiqotchi;
- **pedagogik faoliyat:** umumta'lim maktablarida, o'rta-maxsus va kasb-hunar muassasalarida o'zbek tili va adabiyotidan dars berish va o'quv-metodik ishlarni olib borish;
- **amaliy faoliyat:** ommaviy axborot vositalari, nashriyot va tahrir sohasida muxbir, muharrir, muharrirlik; tarjimon va adabiy xodim; arxiv va muzeylarda ekskursovod, ilmiy xodim; teatrda adabiy emakdosh.
- **adabiy-tanqidiy faoliyat:** munaqqid; taqrizchi;

1.4.4. Turdosh kasblarga moslashish imkoniyatlari

5220100 – *Filologiya (O'zbek filologiyasi)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr quyidagi:

- **ilmiy-o'quv uslubiyot** - ta'lim muassasalarida uslubchi;
- **ma'muriy boshqaruv** – ma'muriy boshqaruv idoralarida, viloyat va tuman hokimliklarida devonxona xodimi;
- **referentlik** – mahkama va vazirliklarda referent;
- **tarjimonlik** – ommaviy axborot vositalari, markazlari va nashriyotlarda tarjimon.

Bakalavr belgilangan tartibda oliy va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarida, shuningdek, malaka oshirish va kadrlarni qayta tayyorlash institutlari va kurslarida ishlashi hamda boshqa kasbiy faoliyat turlariga moslashishi mumkin.

1.5. Ta'lim olishni davom ettirish imkoniyatlari

5220100 – *Filologiya (O'zbek filologiyasi)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr quyidagi:

- 5A220101 – Adabiyotshunoslik (O'zbek adabiyotshunosligi)
- 5A220102 – Lingvistika (O'zbek tilshunosligi)
- 5A220102 – Lingvistika (Turkiy tillar)
- 5A220103 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti
- 5A220104 – Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik
- 5A220105 – Adabiy tanqid
- 5A220106 – Kasb-hunar fanlarini o'qitish metodikasi
- 5A320108 – San'atshunoslik jurnalistikasi
- 5A320106 – Ommaviy axborot vositalarida reklama
- 5A320103 – Televidenie va radioeshittirish
- 5A320104 – Noshirlik ishi va muharrirlik
- 5A320102 – Xalqaro jurnalistika

5A320105 – Jamoatchilik bilan aloqalar mutaxassisliklari hamda ta'limning

vakolatli boshqaruv organ(lar)i tomonidan belgilangan turdosh yo'nalishlari

(mutaxassisliklari) bo'yicha ikki yildan kam bo'lmagan muddatda

magistraturada o'qishni davom ettirishi mumkin.

2. 5220100 – *Filologiya (O'zbek filologiyasi)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar

2.1. Bakalavr tayyorgarligiga qo'yiladigan umumiy malakaviy talablar

Bakalavr:

- dunyoqarash tavsifidagi bilimlar tizimini egallagan bo'lishi; gumanitar va ijtimoiy – iqtisodiy fanlar asosini, davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi; ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- Vatan tarixini bilishi; milliy va umuminsoniy qadriyatlar bo'yicha o'z nuqtai nazarini bayon etishi va ilmiy asoslay olishi, milliy g'oya asosida faol hayotiy o'rinni egallashi;
- tabiat va jamiyatda yuz berayotgan jarayonlar va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lishi, tabiat va jamiyat rivojlanishi haqida bilimlarga ega bo'lishi, ulardan hayotda va kasbiy faoliyatda zamonaviy ilmiy asoslarda foydalana olishi;
- insonlar orasidagi jamiyatga, atrof-muhitga bo'lgan munosabatini tartibga soluvchi huquqiy va ahloqiy me'yorlarni kasbiy faoliyatda hisobga ola bilishi;
- axborotni to'plash, tahlil qilish saqlash, ularga ishlov berish va unumli foydalanish metodlarini egallash, o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil fikrlash va kerakli qarorlar qabul qila olishi;
- bakalavriatning mos yo'nalishi bo'yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi kerak;
- yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtira olishi, o'zini takomillashtirishi va o'z mehnatini ilmiy asosda tashkil qila bilishi;
- sog'lom turmush tarzini shakllantirish, jismonan baquvvat sport bilan shug'ullanib borish zarurati haqida ilmiy tasavvurga va e'tiqodga ega bo'lishi, o'zini jismonan takomillashtirishning malaka va ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

2.2. Kasbiy malakaviy talablar

Bakalavr:

ta'lim sohasida: Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'lim tizimida ona tili va adabiyot, ma'naviyat asoslari fanlaridan o'quv mashg'ulotlari va amaliy mashg'ulotlar olib borishi;

ilmiy sohada: ilmiy-tadqiqot metodikasi asosida ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borishi va ular bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar qila olishi;

ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish sohasida: dialektologik va folklor ekspeditsiyalari bo'yicha boshqaruvni tashkil qilishi va uyushtira bilishi;

iqtisodiy sohada: olib borilgan ilmiy-tadqiqotlarning iqtisodiy samaradorligini belgilay olishi va zarur moliyaviy xulosalarga kelishi;

kasbiy mahorat bo'yicha o'z bilimi va ko'nikmasi bilan egallagan lavozimida mustaqil faoliyat ko'rsatish talablariga va professionalizmga javob berishi kerak.

2.3. Ta'lim dasturlari bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalarga qo'yiladigan talablar

2.3.1. Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar bo'yicha talablar

Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar bloki bo'yicha talablar O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan "Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar" bloki bo'yicha bakalvrlar tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo'yilgan talablar" asosida belgilanadi.

2.3.2. Matematik va tabiiy-ilmiy fanlar bo'yicha talablar

Matematik kommunikativ kurs

Bakalavr:

- matematika dunyoni bilishning o'ziga xos usuli, uning tushunchalari va tasavvurlarining umumiyliigi;
- matematik modellash;
- sonlar va mulohazalar matematikasi asoslari;
- kombinator matematika va graflar nazariyasi asoslari;
- ehtimollar nazariyasi va matematik statistika asoslari;
- informatika va axborot texnologiyalari fanining predmeti;
- ma'lumot o'lchovlari, sifatleri, tasniflari;
- ma'lumotlarni qabul qilish, saqlash, qayta ishlash va uzatish muammolari;
- kompyuterdan foydalanish va kompyuterda dasturlar tuzish;
- kompyuterning tuzilishi (qurilmalari);
- operatsion tizimlar (**MSDOS, Microsoft Windows**);
- amaliy dasturlar (Microsoft Word, Microsoft Excel, Microsoft Power Point va Microsoft Paint);
- algoritm asoslarida kompyuterning ishlash prinsiplari, algoritmik amallar ketma-ketligini tuzish va jarayonlarni hayotga tatbiq etish;
- dasturlash (programmalash) tillari;
- tabiiy tillar grammatikasidagi muammolar;
- tabiiy tillarning matematik modelini ishlab chiqish;
- o'zbek tilining axborot uslubi;
- tabiiy tillarda standartlashuv, optimallashtirish jarayonlari;
- umumiy lingvistikaning formal va aksiomatik nazariyalari;
- lingvistik masalalarni yechishning kompyuter dasturlarini ishlab chiqish;
- tillarga o'qitish, bilimlarni baholash, matnlarni tahrirlash va kompyuter tarjimasi dasturlari **haqida tasavvurga ega bo'lishi**;
- matematika fanining predmeti;
- ijtimoiy sohalaridagi matematik modellar ishlab chiqilishi;
- o'zbek tili grammatikasini formallashtirish muammolari;
- kombinator matematika asoslari, kombinatorikaning asosiy qoidalari;
- Chekli to'plamlar. Chekli to'plamlar ustida amallar. O'zaro bir qiymatli moslik;
- Graflar nazariyasi asoslari. Graf tarifi. Uchlar va qirralar. Grafning geometrik interpretatsiyasi. Qo'shnichilik va tegishlilik. Uch darajasi. Graf osti. To'liq graf. Qo'shnichilik va tegishlilik matritsalarlari;
- Ehtimollar nazariyasi. Tasodifiy hodisalar uchun elementar model. Hodisa va ular ustida amallar. Hodisaning statistik, klassik va geometrik ta'rifi. Hodisa va ehtimolning aksiomatik ta'rifi. Ehtimollar fazosi. Ehtimolni hisoblash formulalari. Shartli ehtimol. Hodisalarining bog'liqligi. To'la ehtimol formulasi;
- Matematik mantiq asoslari. Mantiq funksiyalari. Mantiq funksiyalarining berilish usullari. Mukammal diz'yunktiv normal forma. To'liqlik. {&, V, -} sistemaning to'liqligi;
- Fayllar bilan ishlash. Fayllarni ko'chirish va nusxasini olish. Fayl nomini o'zgartirish. Fayllarni yo'qotish. Fayllar haqida ma'lumotni ko'rish. Fayllarni izlash. Katalog (papk) hosil qilish. Hujjatni ochish va saqlash;

- Kompyuter viruslaridan himoyalash. Kompyuter virusi namoyon bo‘lishi. Viruslardan himoyalashning asosiy vositalari. Viruslar bilan kurashuvchi ba’zi programmalar (antiviruslar);
 - Windows operatsion tizimida ishlash;
 - Amaliy dasturlar (Microsoft Word, Microsoft Excel, Microsoft Power Point Microsoft Paint) bilan ishlash;
 - Dasturlash asoslari. Pascal dasturlash tili asoslarini ***bilishi va ulardan amalda foydalana olishi:***
 - Windows operatsion tizimida ishlash. Masalalar paneli. Asosiy menyu (Start menu);
 - Fayllarni ko‘chirish va nusxasini olish. Fayl nomini o‘zgartirish. Fayllarni yo‘qotish. Fayllar haqida ma’lumotni ko‘rish. Fayllarni izlash. Katalog (papka) hosil qilish. Hujjatni ochish va saqlash;
 - Kompyuter viruslardan himoyalashning asosiy vositalari;
 - Kompyuter viruslari. Funksiya va buyruqlar. Oynalar bilan ishlash;
 - Amaliy dasturlar (Microsoft Word, Microsoft Excel, Microsoft Power Point Microsoft Paint) bilan ishlash;
 - Pascal dasturlash tili;
 - Tabiiy tillar formal nazariyasi (o‘zbek tili misolida). O‘zbek, rus va ingliz tillarini qiyosiy tahlil qilish;
 - O‘zbek tilining axborot uslubi;
 - Leksikologiya va morfologiyada formallashtirish (so‘z, so‘z ma’nolari, so‘z turkumlari, qo‘shimchalar, so‘z yasash jarayoni);
 - Sintaksisda formallashtirish (gap bo‘laklari, gap konstruksiyalari);
 - O‘zbek tili grammatikasining aksiomatik nazariyasi. O‘zbek tili grammatikasining simvollari, formulalari, aksiomalari, keltirib chiqarish qoidalari, teoremlari;
 - O‘zbek tili grammatikasining aksiomatik modelini rivojlantirish yo‘llari;
 - O‘zbek tili grammatikasini rivojlantirish istiqbollari;
 - Lingvistik masalalarni kompyuter vositasida yechish yo‘llari;
 - Kompyuterda lingvistik masalalarni yechish muammolari. Lingvistik masalani birlamchi qo‘yilishi, matematik tilda qo‘yilishi, yechish algoritmi, yechish dasturi, kompyuterda masalani yechish;
 - Tabiiy tillarning kompyuter lug‘atlari (tub so‘zlar va yasama so‘zlar, atoqli otlar va geografik nomlar, so‘z haqida grammatik ma’lumotlar, sinonimlar, so‘z shakllari);
 - Tillarga o‘qitish va bilimlarni baholash algoritmlari;
 - Matnlarni tahrirlash algoritmlari (mexanik, imlo va shevaga xos, grammatik, uslubiy xatolar);
 - Kompyuterda inglizcha-o‘zbekcha, o‘zbekcha- inglizcha tarjima algoritmi (gapni tahlil qilish, tarjima qilish);
 - O‘zbek tilida fe’lning tuslanishi. Analiz va sintez dasturlari;
 - Lingvistik kompyuter dasturlarini takomillashtirish yo‘llari haqida ***ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.***
- Tabiiy-ilmiy kurs*

Bakalavr:

- olamning yaxlit fizikaviy ob’ekt ekanligi va evolyutsiyasi;
- tabiiy fanlarning fundamental birligi, tbiat ilmining tugallanmaganligi va uning kelgusida rivojlanish imkoniyatlari;
- tabiatdagi diskretlik va uzluksizlik;
- tabiatdagi tartib va tartibsizlik nisbati, ob’ektlar tuzilishining tartibliligi;

- tartibsizlik holatiga o‘tish va uning aksi;
- tabiatdagi dinamik va statik qonuniyatlar;
- ehtimollik tabiatdagi sistemalarning ob’ektiv tavsifi ekanligi;
- o‘lchovlar va ularning tabiiy bilimlarning turli sohalarida o‘ziga xosligi;
- tabiat ilmining fundamental doimiylik (konstanta)lari;
- simmetriya tamoyillari va saqlanish qonunlari;
- bilishning empirik va nazariy nisbatlari;
- tabiatdagi holatlar va ularning vaqt birligida o‘zgarishi;
- tabiiy ob’ektlarning yakka va umum holdagi harakati;
- tabiatshunoslikda vaqt;
- kimyoviy sistemalar va jarayonlar, moddalarning reaksiyaga moyilligi;
- kimyoviy ayniqlikni isbotlash usullari va moddalar sifatini aniqlash;
- materiya yaralishining biologik asoslari xususiyatlari, takror yaralish, ko‘payish tamoyillari va tirik mavjudotlar rivojlanish tizimlari;
- biosfera va uning evolyutsiyasi yo‘nalishlari;
- tirik mavjudot tizimlarining yaxlitligi va gomeostazasi - o‘z-o‘zidan sozlanuvi;
- organizm va muhitning o‘zaro ta’siri, organizmlar majmuasi, ekotizimlar;
- tabiatni muhofaza qilishning ekologik tamoyillari va tabiatdan maqsadga muvofiq foydalanish, tabiatni buzmas texnologiyalar yaratishning kelajagi;
- tabiatshunoslikning eng yangi kashfiyotlari, texnik qurilmalar yaratishda ulardan foydalanish istiqbollari;
- fizik, kimyoviy va biologik modellash;
- inson bioijtimoiy tabiatining biosfera bilan birligi nuqtai nazaridan o‘z kasbiy faoliyatining oqibatlari haqida ***tasavvurga ega bo‘lishi***;
- mexanika, elektr va magnetizm, tebranishlar va to‘lqinlar, kvant fizikasi, statistik fizika va termodinamika, kimyoviy tizimlar, moddalarning reaksiyaga moyilligi, kimyoviy identifikatsiya, ekologiya ning asosiy tushunchalari, qonunlari va modellari;
- fizika, nazariy mexanika, kimyo va ekologiyadagi nazariy va tajribaviy tadqiqot usullari;
- inson atrof-muhitini fizik, kimyoviy va biologik hodisalarning zararli ta’sirlaridan himoya qilish vositalari va usullarini ***bilishi va ulardan foydalana olishi***;
- fizik, kimyoviy va biologik modellarni tekshirish;
- ishlab chiqarish jarayoni va texnik vositalarda fizik, kimyoviy, biologik tizimlarning eng oddiy modellaridan foydalanish;
- tabiiy fanlarning turli sohalarida qo‘llanadigan sonli ko‘rsatkichlar kattaliklari tartibini qo‘llay olish ***ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak***.

2.3.3 Umumkasbiy fanlar bo‘yicha talablar

Tilshunoslik kursi

Bakalavr:

- o‘zbek shevalarining tarqalishi va tasnifi;
- o‘zbek shevalarining fonetik- grammatik xususiyatlari;
- sheva va adabiy til munosabati, o‘zbek adabiy tilining shakllanish va taraqqiyot qonuniyatlari;
- o‘zbek tilining asosiy shevalari;
- til sathlarining tarkibi, imlo qoidalar;
- Xalq og‘zaki poetik ijodi morfemikasi, so‘z yasalishi, semasiologiyasi, fonetikasi, leksikologiyasi, morfologiyasi, sintaksisi, punktuatsiyasi;
- qadimgi turkiy til va uning asosiy manbalari;
- qoraxoniylar davri adabiy tili va manbalari;
- chig‘atoy adabiy tili va manbalari;

- XIX- XX asr o‘zbek adabiy tili va manbalari;
- tilshunoslik fanining tarixi;
- tilshunoslik metodlari;
- tilshunoslik ta’limotlari va maktablari;
- zamonaviy tilshunoslik yo‘nalishlari haqida **tasavvurga ega bo‘lishi**;
- shevalarni tasniflash tamoyillari va usullari;
- o‘zbek shevalarining lingvistik geografiyasi;
- shevalarning ilmiy-nazariy tadqiqi;
- Xalq og‘zaki poetik ijodining tushunchaviy-terminologik apparati;
- o‘zbek tili sathlarining asosiy xususiyatlari;
- o‘zbek tili grammatikasini ilmiy tadqiq paradigmasi;
- nutq variatsiyasi va sinonimiyasi;
- “Devonu lug‘otit turk”ning qiyosiy turkiyshunoslikdagi o‘rni;
- Xorazm yodnomalarining til taraqqiyotidagi roli;
- Alisher Navoiy-o‘zbek adabiy tilining asoschisi ;
- Navoiy izdoshlarining adabiy til rivojida o‘rni;
- til va yozuvning paydo bo‘lishi;
- til oilalari. Genetik va morfologik tasnif;
- fonologiya, fonetika, morfologiya, sintaksis;
- grafika, orfografiya, orfoepiya, punktuatsiyani **bilishi va foydalana olishi**;
- sheva materiallarini to‘plash, saralash va tahlil qilish;
- shevaga xos matnning fonetik, leksik hamda grammatik belgilarini farqlash;
- sheva materiallarini ilmiy o‘rganish usullarini bilish;
- tilning ijtimoiy faoliyatga egaligi;
- til siyosati haqida fikr bildirish olish;
- axborot xizmatidan foydalanish;
- lug‘atlar bilan ishlash;
- til materialini tahlil eta olish;
- adabiy til me‘yorlari va uslublarini farqlash;
- hozirgi o‘zbek tilining funksional hamda uslubiy imkoniyatlaridan ijodiy foydalana olish;
- mustaqil ravishda matn tuzish va uni o‘zgartirish usullarini egallash;
- arab va fors imlosining o‘ziga xos xususiyatlari;
- o‘qish tarzi, so‘z yasalishi qoidalari;
- arab va fors tillari grammatikasi to‘g‘risida.
- qadimgi run, arab yozuvidagi manbalarni farqlash;
- arab alifbosidagi matnlarni o‘qish;
- manba matnlarini transkripsiya qilish;
- arab alifbosida yozish.
- arab va fors imlosida yozishni bilish;
- so‘z yasalishi va grammatik qoidalarni bilish;
- matnni o‘qish va tushunish;
- matnni tarjima qilishda lug‘atdan foydalana bilish;
- olgan bilimlari natijasida matnni to‘laligicha o‘qiy bilish;
- matnni to‘liq tarjima qilish;
- arab va fors imlosida xatosiz yoza bilish **ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.**

Adabiyotshunoslik kursi

Bakalavr:

- bakalavr talabalar xalq og‘zaki ijodining o‘ziga xos xususiyatlarini bilish, yozma adabiyot namunasidan og‘zaki ijod namunasining farqi;

- adabiyot tarixining madaniyat tarixidagi o‘rni;
- adabiyot taraqqiyotining asosiy bosqichlari;
- mumtoz adabiyot janrlarining paydo bo‘lishi va taraqqiyoti;
- yangi o‘zbek adabiyotini mumtoz so‘z san’atidan farqlari;
- yangi o‘zbek adabiyotining asosiy xususiyatlari;
- yangi o‘zbek adabiyotining ijodiy metodlari;
- yangi o‘zbek adabiyotining taraqqiyot bosqichlari;
- yangi o‘zbek adabiyotining yirik namoyandalari;
- adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlari;
- adabiyotshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqasi;
- badiiy tahlilning adabiyotshunoslikdagi o‘rni;
- adabiy nazariy tafakkur taraqqiyoti;
- jahon va turkiy xalqlar adabiyoti tarixi, davrlari;
- jahon adabiyoti tarixida adabiy ijodiy metodlar;
- jahon va turkiy xalqlar adabiyotining taraqqiyot tamoyillari;
- jahon adabiyotining mashhur namoyondalari ijodi;
- fanlarning mohiyati va asosiy mazmuni;
- tanqidchilikning adabiyotshunoslikdan farqlari;
- Xalq og‘zaki ijodining asosiy xususiyatlari;
- o‘zbek tanqidchiligi va adabiyotshunosligining yirik namoyondalari ijodi haqida ***tasavvurga ega bo‘lishi***;
- xalq og‘zaki ijodi janrlarini bir-biridan ajrata olish, har bir janrning o‘ziga xosligini izohlash;
- o‘zbek mumtoz adabiyoti matnlarini tahlil qilish;
- O‘rta Osiyoning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi va uning oqibatlari;
- bu davrda yashab ijod etgan adabiyot ahlari faoliyati;
- ular ijodiga xos xususiyatlar;
- yangi o‘zbek adabiyotining yetuk namunalari;
- alohida yozuvchilar ijodi;
- eng yangi asarlar matni;
- vaqtli matbuot materiallari;
- adabiyot nazariyasi asoslari;
- adabiy tur va janrlar;
- adabiy yo‘nalish va ijodiy metod masalalari;
- badiiy uslub va poetika asoslarini ***bilishi va ulardan foydalana olishi***;
- xalq og‘zaki ijodi asarlarini g‘oyaviy va badiiy jihatdan tahlil etish, obrazlar tizimiga tavsif bera olish;
- og‘zaki ijod asarlarini ilmiy talablarga binoan yozib olish va uning pasportini to‘ldirish;
- badiiy matnni talqin va tahlil etish;
- ijodkor uslubini tekshirish;
- mustaqil ilmiy matn yozish;
- antik davr adabiyoti va mifologiyasini tahlil etish;
- XIX asr jahon adabiyotidagi realistik tamoyillarni ajrata bilish;
- XX asr jahon adabiyotining asosiy konsepsiyasi, modernizm, ekzistensializm va boshqa adabiy yo‘nalishlarning mohiyatini anglash;
- tanqid va adabiyotshunoslik yutuqlari, hozirgi o‘zbek adabiyotining eng yaxshi namunalari, badiiy va tanqidiy asarlar hamda vaqtli matbuot materiallarini tahlil eta olish;
- mumtoz adabiyotdagi poetik san’atlarni bir-biridan farqlay olish;

- umumta’lim maktablarining davlat dasturida qayd etilgan og‘zaki ijod namunalarini sinflar bo‘yicha adabiy o‘qitish talablariga binoan o‘qituvchilarga o‘rgatish;
- ko‘p asrlik o‘zbek adabiyotining yangilanish bosqichlari, yangi adabiyotning shakl va mazmunida yuz bergan o‘zgarishlar, mumtoz va yangi adabiyotning uzviyligi hamda yangi adabiyot bilan bugungi adabiyotning bog‘lanishlarini tushuntira olish;
- qo‘lyozma va tosh bosma manbalardan foydalana bilish;
- adabiyot tarixiga oid nazariy adabiyotlarni tahlil qila olish;
- yangi o‘zbek adabiyoti taraqqiyotini davrlashtirish;
- badiiy asarlar mazmuni va shakli o‘ziga xosligini aniqlash;
- jahon adabiyotida olgan bilimlarini amaliy faoliyatda tatbiq etish;
- adabiyotshunoslikning tahlil metodlaridan foydalanish;
- yangi asarlarni mutolaa qilish;
- taqriz yozish;
- ilmiy asarlarni konspekt qilish ***ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.***

Turkologiya kursi

Bakalavr:

- turkiy tillarning tarqalishi va tasniflari;
- turkiy tillarning umumiy va xususiy belgilari;
- zamonaviy turkiy tillarning fonetik-grammatik xususiyatlarini qiyoslash asoslari;
- turkiy tillarning tarixiy va hozirgi grammatik kategoriyalari va ularning variantlari;
- turkiy xalqlar folklori;
- turkiy xalqlar yozma adabiyoti tarixi;
- zamonaviy turkiy xalqlar adabiyoti haqida ***tasavvurga ega bo‘lish;***
- turkiy filologiyaning yo‘nalishlari va maktablari;
- qadimgi va hozirgi turkiy tillarning ijtimoiy mavqei hamda taraqqiyot yo‘llari;
- turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy o‘rganish metod va usullari;
- turkiy tillar fonetik-grammatik xususiyatlaridagi o‘zgarishlar;
- turkiy xalqlar adabiyotshunosligi tarixini;
- turkiy xalqlar adabiyoti bo‘yicha asl manbalarini ***bilishi va ulardan foydalana olishi;***
- turkiy tillarga xos lisoniy hodisalarni qiyosiy tahlil eta bilish;
- qadimgi va hozirgi turkiy tillarning o‘rni va asosiy belgilarini baholay olish;
- turkiy tillarga xos lingvistik hodisalarni qiyosiy-tarixiy metod asosida tahlil etish;
- til hodisalarini o‘zaro farqlash va umumlashtirish yo‘llarini bilish.
- turkiy xalqlar adabiyoti asl manbalarini o‘qish ***ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.***

Metodika kursi

Bakalavr:

- ona tili va adabiyot o‘qitishning prinsiplari va metodlari;
- ona tili va adabiyot o‘qitish nazariyasi va amaliyotining mazmuni;
- ona tili hamda adabiyot o‘qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyasi asoslari haqida ***tasavvurga ega bo‘lishi;***
- ona tili va adabiyot o‘qitishning maqsad va vazifalari;
- ona tili va adabiyot ta’limini rejalashtirish yo‘llari;
- ona tili va adabiyot darslarining turlari;
- ona tili hamda adabiyotidan zamonaviy dasturlari va darsdan tashqari mashg‘ulotlar mazmunini ***bilishi va ulardan foydalana olishi;***
- ona tili va adabiyotidan ish rejalarini tuza olish;

- ona tili va adabiyoti darslarining reja konspektini tuza olish;
- dars mashg'ulotini va nazorat ishlarini tahlil qila olish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.***

2.3.4. Ixtisoslik fanlari bo'yicha talablar

Bakalavr:

- filologiya sohasidagi asosiy muammolarni tushunishi;
- o'z ixtisosligi doirasida muayyan tadqiqot sohasining ob'ektlari;
- asosiy ob'ekt va jarayonlarga nisbatan shaxsiy ilmiy filologik munosabatlar;
- filologik muammolar va ularni hal qilish yo'llari haqida ***tasavvurga ega bo'lishi;***
- ixtisoslik fanlarining tushunchaviy apparati;
- ixtisoslik fanlarining metod va usullari;
- ixtisoslik fanlarining ilmiy-tadqiq mavzularini ***bilishi va ulardan foydalana olishi;***
- badiiy-lisoniy tahlil etish;
- o'zbek tili va shevalari namunalarini yozib olish, to'plash va nashrga tayyorlash;
- o'zbek adabiyoti namunalarini o'qish, tarjima va tahrir qilish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.***

Bakalavr maxsus tayyorgarligiga aniq talablar oliy ta'lim muassasasi

tomonidan belgilaniladi. Bunda maxsus kurs bloki mazmunidan kelib chiqiladi.

2.3.5. Tanlov fanlari

Yo'nalish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda tanlov fanlari ro'yxati va ularning dasturlari fakultet Ilmiy kengashi tomonidan belgilanib, talabalar ularning ichidan qiziqish va moyilliklari mos keladiganlarini tanlab o'qiydilar.

– 2.3.6. Kurs ishi (loyihasi) bo'yicha talablar

Kurs ishlarini bajarish orqali talabalarda muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish, kerakli ma'lumotlarni izlab topish va tahlil qilishga o'rgatish hamda shuning asosida ma'suliyatli yechimlar qabul qilish ko'nikmalari shakllantiriladi.

Ushbu ishlarda bakalavr:

- o'quv predmetining dolzarb nazariy masalalari bo'yicha bilimlarini chuqurlashtiradi, talaba tomonidan mavzuga oid olingan nazariy bilimlarini ijodiy qo'llash ko'nikmasini hosil qiladi;
- tanlangan kasbiy sohada xorij tajribalarini o'rganadi, muayyan sharoitlarda ularni amaliy jihatdan qo'llash imkoniyati va muammolarini o'zlashtiradi;
- tanlangan mavzu bo'yicha har xil manbalarni (monografiya, davriy adabiyotlar, internet manbalari va h.k.) o'rganish qobiliyatini takomillashtiradi;
- tanqidiy yondashgan holda materialni ifoda etadi, ishonchli xulosa va takliflar qiladi;
- yozma ko'rinishdagi ishlarni to'g'ri rasmiylashtirish ko'nikmalarini hosil qiladi.

2.3.7. Bitiruv malakaviy ishiga qo'yiladigan talablar

Bitiruv malakaviy ishida bakalavr tugallangan kasbiy topshiriqni yechadi, u fanlarni barcha turlari bo'yicha bilimlarni qo'llashni talab etadi.

Mazkur ishda bakalavr:

- hal qilinayotgan masalani tahlil qilishi va sharhlashi;
- ayni sohadagi tilshunoslik, adabiyotshunoslik talablarini ifodalashi, masalani yechish variantlarini ko'rib chiqishi va qulay variantni tanlashi;

- qulay variantning hisob, tekstologik, shaklan va mazmunan yechimini keltirishi;
- masala yechimi bo'yicha xulosalar va tavsiyalar berishi hamda ularning mos tarmoqda qo'llanilish imkoniyatini aniqlashi;

2.3.8. Malakaviy amaliyot bo'yicha talablar

Folklor va dialektologik amaliyot

Bakalavr:

- mahalliy sharoitni hisobga olgan holda folklor va dialektologik amaliyot o'tkazish uchun ob'ektni to'g'ri tanlash;
- belgilangan ob'ekti bo'yicha sahaga doir suhbat o'tkaza olish, zarur savollar bilan ob'ektga murojaat qilish;
- yig'ilgan xalq ijodiyoti namunalarini va sheva xususiyatlarini filologik talablar asosida qayta ishlash;
- yig'ilgan materiallarga pasport tayyorlay olish va buning uchun ob'ektga tegishli ma'lumotlarni to'play olishni ***bilishi va ulardan foydalana olishi***;
- to'plagan folklor va dialektologik materiallarni nashrga tayyorlash uchun dastlabki matn va manbalar tuza olish;
- nashrga tayyorlangan materiallarga zarur izoh, lug'at va sharhlar tayyorlay olishi;
- to'plagan materiallarni ommaviy axborot vositalari orqali o'z shaklida ommaga yetkaza bilishi va uni sharhlay olish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak***.

Pedagogik amaliyot

Bakalavr:

- o'zbek tili va adabiyoti o'qitishning turli metodlarini bilishi;
- o'quvchilar bilan muomala qilish;
- ko'rgazmali qurollarni erkin tayyorlay olish;
- hozirgi zamon interfaol metodlaridan foydalana bilish;
- o'quvchilar bilimini baholash mezonlarini ***bilishi va ulardan foydalana olishi***;
- o'rta va o'rta maxsus o'quv yurtlarida o'zbek tili va adabiyotini o'qitish;
- hozirgi zamon o'quv texnik vositalaridan foydalana bilish;
- boshqa o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchilarning darslarini tahlil qila olish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak***.

3. Ta'lim dasturining mazmuni va komponentlari

3.1. 5220100 – Filologiya (O'zbek filologiyasi) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash ta'limi dasturi ta'limning kunduzgi shakli bo'yicha 4 yil o'qishga mo'ljallangan bo'lib, quyidagi vaqt taqsimotiga ega:

Nazariy ta'lim va amaliy mashg'ulot, shu jumladan, oraliq va yakuniy attestatsiyalar	135 hafta
Malakaviy amaliyot	24 hafta
Jumladan:	
Malakaviy amaliyot	16 hafta
Pedagogik amaliyot	8 hafta
Bitiruv malakaviy ishi	7 hafta

Davlat attestatsiyasi	2 hafta
Ta'tillar	36 hafta
Jami:	204 hafta

3.2. Talaba haftalik o'quv yuklamasining maksimal hajmi 54 soat, shundan auditoriyadagi o'quv yuklamasi – 28 soatgacha, qolgan soatlar hajmi mustaqil ta'lim uchun ajratiladi.

3.3. Joriy, oraliq va yakuniy attestatsiyalarni hisobga olgan holda ta'lim dasturining umumiy hajmi 4 yillik o'quv davri uchun 9072 soatni tashkil etadi.

3.4. Ta'lim dasturlarini o'zlashtirish jarayonida o'quv fanlarining ba'zi masalalari va muammolarini o'qituvchi raxbarligida talabalar tomonidan mustaqil o'rganilishi e'tiborga olinishi kerak.

3.5. 5220100 – Filologiya (O'zbek filologiyasi) ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining zaruriy mazmuni

3.5.1. Gumanitar va ijtimoiy- iqtisodiy fanlar

Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar bloki bo'yicha talablar Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tasdiqlagan "Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar bloki bo'yicha bakalavrlarni tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo'yilgan talablar" asosida belgilanadi.

3.5.2. Matematik va tabiiy-ilmiy fanlar

Matematik kommunikativ kurs

Oliy matematika

Algebra: asosiy algebraik tuzilmalar; fazoviy vektorlar va chiziqli tasvir, Bulev algebrasi;

Geometriya: analitik geometriya, ko'p o'lchamli Yevklid geometriyasi, egri chiziq va tekisliklarning differensial geometriyasi, topologiya elementlari;

Diskret matematika: mantiqiy hisoblashlar, garafiklar, algoritmlar nazariyasi, tillar va grammatika, avtomatlar, kombinatorika;

Tahlil: differensial va integral hisoblash; funksiya va funksional tahlil nazariyasi elementlari; kompleks o'zgaruvchan funksiyalar nazariyasi; differensial tenglamalar;

Ehtimollik va statistika: ehtimollar nazariyasi matematik asoslari, tasodifiy jarayonlar modellari, gipotezalarni tekshirish, maksimal haqiqatga yaqinlik prinsipi, tajriba ma'lumotlarini ishlashning statistik usullari.

Informatika va axborot texnologiyalari

Informatika tushunchasi: axborotni to'plash, uzatish, ishlash va saqlash jarayonlarining umumiy tavsifi; axborot almashinish jarayonlarining umumiy tavsifi; axborot almashinish jarayonlarining amalga oshirishning texnik va dasturiy vositalari; funksional va va hisoblanadigan masalalarni yechish modellari; algoritmlash va dasturlash; yuqori darajadagi dasturlash tillari; ma'lumotlar bazasi; dasturiy ta'minot va dasturlash texnologiyasi; kompyuter grafikasi.

Kompyuter lingvistikasi

Tabiiy tillarning kompyuter lug'atlari. Tub so'zlar lug'atlari. Yasama so'zlarni berish. Atoqli otlar va geografik nomlar lug'atlari. Tillarga o'qitish va bilimlarni baholash algoritmlari.

O'qitish algoritmlari. Bilimlarni baholash algoritmlari.

Matnlarni tahrirlash algoritmlari. Mexanik, imlo va shevaga xos xatolar. Xatolarni topish algoritmi. Xatolarni tuzatish algoritmi.

Kompyuterda tarjima algoritmi (inglizcha-o'zbekcha). Ingliz tilidagi gapni tahlil qilish algoritmi.

Tarjima qilish algortmi.

O'zbek tili grammatikasining aksiomatik nazariyasi. O'zbek tili grammatikasining simvollari. O'zbek tili grammatikasining formulalari. O'zbek tili grammatikasining aksiomalari. O'zbek tili grammatikasining keltirib chiqarish qoidalari. O'zbek tili grammatikasining teoremlari.

O'zbek tili grammatikasining aksiomatik modelini rivojlantirish yo'llari.

Tabiiy-ilmiy kurs

Ekologiya

Biosfera va odam: biosfera tuzilishi, tirik mavjudot tizimlarining yaxlitligi va gomeostazasi, organizmlar majmuasi va muhitning o'zaro aloqasi, ekosistemalar, ekologiya va inson salomatligi, atrof-muhitning global muammolari;

Tabiatdan foydalanish: tabiat resurslaridan oqilona foydalanishning ekologik prinsiplari va tabiatni muhofaza qilish, tabiatdan foydalanishning iqtisodiy asoslari, ekologik muhofaza texnikasi va texnologiyasi, ekologik huquq asoslari va professional javobgarlik, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi xalqaro hamkorlik.

Tabiatshunoslikning zamonaviy konsepsiyasi

Tabiatshunoslikning asosiy tushunchalari, olamning yaxlitligi va evolyutsiyasi, tabiiy fanlarning fundamental birligi, tabiat ilmining tugallanmaganligi va kelgusidagi taraqqiyoti imkoniyatlari, tabiatdagi uzluksizlik, tartibsizlik, dinamik va statik qonuniyatlar, tabiatshunoslikda vaqt tushunchasi, biosfera va inson, tabiatni asrash muammolari, tabiatdan unumli foydalanish tamoyillari, tabiatni muhofaza qilishda xalqaro hamkorlik.

3.5.3. Umumkasbiy fanlar

Tilshunoslik kursi

Xalq og'zaki ijodi

Adabiy til tushunchasi. O'zbek adabiy tilining shakllanish manbalari va qonuniyatlari. O'zbek adabiy tilining dialektal asoslari. Xalq og'zaki poetik ijodi sathlari. Ular orasidagi munosabat.

Nazariy fonetika. Fonetika – o'zbek adabiy tilining tovushlari tizimini o'rganuvchi sath sifatida. Fonologiya- nutq tovushlarini o'rganuvchi sath; O'zbek tilida so'zning fonetik strukturasi va uning asosiy xususiyatlari. Fonema va uning variantlari. Fonetik hodisalar va ularning ko'rinishlari. O'zbek tilida urg'u, bo'g'in va ularning turlari. Ohang, so'z va gap ohangi, shuningdek, uning hususiyatlari. O'zbek grafikasi taraqqiyoti. Imlo masalalari, o'zbek orfografiyasining asosiy tamoyillari. O'zbek adabiy tilining orfoepik tizimi.

Nazariy grammatika. Morfemika - tilning morfem strukturasi haqidagi ta'limot. Morfemalar tasnifi va xususiyatlari. So'z yasash tizimi. O'zbek tili so'z yasash tizimi bo'yicha qarashlar. Morfologiya-so'z shakllari haqida ta'limot. So'zlarni turkumlarga ajratish asoslari. So'z turkumlariga xos grammatik kategoriyalar. Grammatik shakl va grammatik ma'no tushunchalari. O'zbek tilining sintaksis tizimi. So'z birikmasi va u haqdagi qarashlar. So'z, gap, so'z birikmasi munosabatlari. Sodda gap sintaksisi. Qo'shma gap sintaksisi. Sintaksisda paradigmatika hamda sintagmatika. Shakl va mazmun munosabati. Sintaksisga formal-funksional va mazmuniy yondoshuv.

Semasiologiya. Leksikologiya. So'z ma'nolarining taraqqiyoti. Lug'aviy birliklarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra guruhlanishi: omonimlar, sinonimlar, antonimlar. Atamalar tizimining shakllanishi, lug'atchilik taraqqiyoti.

O'zbek tili punktuatsiyasi taraqqiyoti. Tinish belgilari va ularning qo'lanish xususiyatlari. Tinish belgilari va gap qurilishi xususiyati o'rtasidagi bog'lanish.

O'zbek adabiy tilining me'yoriy shakllanishi. Adabiy til me'yori tushunchasi.

Tarixiy grammatika. O'zbek tili tarixining O'rta Osiyo olimlari tomonidan o'rganilishi. Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asari o'zbek tili tarixini o'rganishda asosiy manba sifatida. Alisher Navoiyning «Muhokamatul- lug'atayn» asari turkiy (o'zbek) tili tarixini o'rganish manbai. O'zbek tili tovushlarining tarixiy

evolyutsiyasi. O'zbek tilida so'z tarkibining o'zgarishi, tarixiy so'z yasalishi va so'z yasovchi formantlar. Grammatik shakllarning tarixiy rekonstruksiyasi. O'zbek tilida gap qurilishining tarixiy ko'rinishlari va xususiyatlari.

Stilistika asoslari. Nutq uslublari, uning adabiy til me'yorlariga munosabati. Nutq uslublari tasnifi, uslub turlarining qo'llanish xususiyatlari. Nutq uslublarning til materiallari: leksikasi, grammatik shakllari. Uslubiy sinonimiya. Rasmiy-idoraviy uslubning takomili masalalari. Uslublarning qiyosiy o'rganilishi, ularda qo'llangan vositalar tadqiqi. Uslublarda til birliklarining imkoniyatlarini o'rganish

Amaliy fonetika. O'zbek tili nutq tovushlari tasnifi. Talaffuzda yuz beradigan fonetik hodisalar. Tovush va harf munosabati tahlili. Aksentuatsiya, intonatsiya va boshqalar bilan bog'liq hodisalar. Fonologik tahlil ko'nikmasi va malakasini shakllantirish. Imlo va orfoepiya munosabatidagi umumiy hamda xususiy jihatlar, ularning adabiy til me'yoriga munosabatini aniqlash.

Amaliy grammatika. So'z tarkibi tasnifi, so'zning ma'noli qismlarga ajratish, morfemalarning funksional-semantik, strukturaviy, pozitsion tavsifi. Grammatik ma'no va grammatik shakllardagi aloqadorliklarni farqlash. Grammatik kategoriyalar oppozitsiyasi, sinonimiyasi. So'z turkumlarini ajratish, ularning gapdagi vazifasini belgilash tamoyillari, so'z turkumlarining ko'chishi.

So'z birikmasi va so'zlarning grammatik munosabatga kirishish yo'llari, so'zlar o'rtasidagi sintaktik aloqa tiplarini ajratish. Gap tuzilishi hamda gap turlarining tahlili. Qo'shma gaplarni semantik-funksional tavsiflash va tahlil etish.

Amaliy stilistika. Uslublarda til birliklarining qo'llanilishi tahlili, ularning o'ziga xos xususiyatlari. Nutq uslublari o'rtasida farqlar va umumiylikni til materiallari asosida dalillar. Turli matnlar tadqiqida qiyosiy-chog'ishtirma metoddan foydalanish. Til birliklari qo'llanilishida umumiy hamda xususiy tomonlar tahlili. Nutq uslublarning lingvistik tahlili. Uslubiy sinonimiya va uning ko'rinishlarini farqlash.

Til tarixi

O'zbek tili tarixi fani tarkibiga «Qadimgi turk tili», «Eski o'zbek tili va yozuvi», «O'zbek tilining tarixiy grammatikasi», «O'zbek adabiy tili tarixi» fanlari kiradi.

Qadimgi turkiy til. Kursning tarix, adabiyot, jug'rofiya, xalq og'zaki ijodi, etnografiya va ularning har bir davri (X asrgacha) bilan bog'liqligi. Yozuvlar tarixi, xususan O'rta Osiyo xalqlari yozuvlari tarixi xaqida dastlabki ma'lumot. Qadimiy turkiy til, xususan, runik va uyg'ur yozuvlari bitiklari tili.

Eski o'zbek tili yozuvi. Arab-fors yozuvi asosida yaratilgan turkiy (eski o'zbek tili) yozma yodgorliklar. Ularning til xususiyatlarini o'rganish. Arab xati turlari, raqamlar, abjad hisobi, ta'rix san'ati, yozuvning isloh qilinishi.

O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. O'zbek xalqi va tilining tarixi, uning o'rganilish darajasi, turkiy tillar va ularning tasnifi, o'zbek xalqi va tilining shakllanishi, o'zbek tili tarixini davrlashtirish masalalari. O'zbek tili tarixining fonetik-fonologik tizimi, morfem- morfololgik strukturasi, undagi mustaqil va yordamchi so'z turkumlari, so'z yasash evolyutsiyasi hamda so'z birikmalari, gap bo'laklari, sodda va qo'shma gap turlari, ularning tarixiy taraqqiyot etaplari.

O'zbek adabiy tili tarixi. Adabiy tilning asosiy taraqqiyot bosqichlari. Uning madaniyatimizdagi ahamiyati, adabiy tilning yozma va og'zaki shakllari, adabiy til va dialektlar, adabiy til uslublari. Har bir davr tilining fonetik, leksik, grammatik farqlanishlari.

Turk-runik yodgorliklari tili. Qadimgi turk-runik yozuvi. Bu yozuvning Sharqiy Yevropadagi runik yozuvlardan farqi va o'xshash tomonlari. Qadimgi turk-runik yozuvining so'g'd yozuvi bilan aloqasi. Turk-runik yozuvining deshifrovkasi va paleografikasi. Qadimgi turk tili fonetikasi, grammatikasi va leksikasi.

Qoraxoniylar davri yozma yodgorliklar tili. Mahmud Koshg'ariy, Yusuf Xos Hojib va Zamaxshariyning ilmiy merosi. Chig'atoy adabiy tili. Temuriylar davri adabiy yodgorliklar tili. Navoiyning turkiy til taraqqiyotiga qo'shgan hissasi. Navoiyning

tilshunoslik merosi. Bobur asarlarining til xususiyatlari. XVII-XIX asrlar yozma yodgorliklari tili. XX asr boshlaridagi o'zbek yozma matnlarining til xususiyatlari.

Tilshunoslik nazariyasi

Tilshunoslikning boshqa fanlar orasidagi o'ri. Tilshunoslik predmeti. Tilshunoslik fanining tushunchaviy terminologik apparati. Tilshunoslik fanining vujudga kelishi. Til ijtimoiy hodisa sifatida. Til fikr ifodalashning vositasi ekanligi. Tilning ijtimoiy vazifalari. Til haqidagi fanning ichki qurilishi. Tillarning umumiy va xususiy tomonlari. Lisoniy tadqiqot an'analari. Tilshunoslik maktablari. Umumiy tilshunoslikning yetakchi muammolari: tilshunoslik ob'ekti, tilning ichki (strukturaviy) bo'linishi, funksiyalanishi, tarixiy taraqqiyoti, semiotik tabiati, lisoniy universalialar, lingvistika fanining metodlari, tadqiqot paradigmatlari, til fanining boshqa fanlar bilan aloqasi. Jahonning mashhur tilshunoslari. Hozirgi tilshunoslikning dolzarb masalalari. Til va tafakkur. Til va nutq. Tilga oid ta'limotlar evolyutsiyasi. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning yuzaga kelishi. Tillarning genetik, tipologik va areal tasniflari. Grafika. Orfografiya. Orfoepiya. Punktatsiya. Fonetika. Fonologiya. Morfologiya. Morfemika. So'z yasalishi. Morfologik kategoriyalar. Sintaksis. So'z birikmasi. Gap. Sintaktik kategoriyalar. Matn. Leksika. Semantika.

Arab tili

Arab yozuvi, arab tili fonetika, morfologiya, sintaksis va leksikologiyasi. Arab tiliga doir so'zlar, arabiy konstruktsiya va ifodalarning turkiy yozma yodgorliklaridagi o'ri. Arab lug'atchiligi va o'zbek mumtoz adabiyoti.

Fors tili

Alifbosi, fonetikasi, morfologiyasi, sintaksisi va leksikologiyasi. Fors tiliga doir so'zlarning turkiy yozma obidalaridagi o'ri. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalarini o'rganishda fors tiliga doir ifodalarni bilishning zaruriyati. Fors lug'atchiligi amaliyoti.

O'zbek dialektologiyasi

O'zbek dialektologiyasi predmeti. O'zbek dialektologiyasi tarixi. O'zbek shevalarini o'rganish metodlari. Transkripsiya. O'zbek shevalarining tasniflari. Qarluq lahjasi. Qipchoq lahjasi. O'g'uz lahjasi. O'zbek dialektal zonalar va azonal hududlar. Sheva va adabiy til munosabati. Sheva va adabiy til ontologiyalari orasidagi farq. Shevaning adabiy tilga asos bo'la olmasligi. Tayanch sheva birliklari haqidagi ta'limot. O'zbek shevalari fonetikasi, grammatikasi va leksikasi. Dialektologik lug'atlar. O'zbek shevalari atlas.

Adabiyotshunoslik kursi

O'zbek xalq og'zaki ijodi

O'zbek xalq og'zaki ijodi manbalari. Qadimgi turk asotirlari. Xalq og'zaki ijodida janrlar tipologiyasi. Doston, ertak, qo'shiq, maqol va boshqa janrdagi ijod namunalari. Xalq og'zaki ijodining yozma adabiyot bilan hamqadam taraqqiyoti. Hozirgi zamon og'zaki ijod namunalarining xususiyatlari.

O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi

Adabiyot tarixining madaniyat tarixidagi o'ri. Adabiyot taraqqiyotining asosiy bosqichlari. Islomga qadar o'zbek adabiyoti. Ilk turk-islom davlatlaridagi adabiyot. Somoniylar, xorazmshohiylar va g'aznaviylar sulolalari davri adabiyoti. Mo'g'ul istilosi davri o'zbek adabiyoti. Temuriylar davri o'zbek adabiyoti. Alisher Navoiy va uning adabiy davri. XVI-XIX asrlar adabiyotining xususiyatlari. Tasavvuf adabiyoti va uning manbalari. Adabiy muhit va maktablar. Buxoro xonligida badiiy adabiyot. Shayboniylar va ashtarxoniylar sulolalari davri adabiyoti. Xiva adabiy muhiti va uning namoyandalari. XIX asr Xiva adabiy maktabi manbalari. Qo'qon adabiy maktabi. Umarxon davri adabiyoti. XIX asrning o'rtalarida Qo'qon adabiy muhiti. Saroydan tashqaridagi xalq adabiyoti manbalari. Adabiyotlarning o'zaro ta'siri va aloqasi.

Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti

XIX asrning II yarmi - XX asr boshi o'zbek adabiyotidagi keskin o'zgarishlar. Jadidchilik va jadid adabiyoti. Yangi adabiyotning shakllanish manbalari va ilk

qadamlari. Yangi maktablar va didaktik-ta'limiy adabiyot. Matbuot va adabiyot. O'zbek publitsistikasining shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari. Teatr va adabiyot. Yangi adabiy tur va janrlar. Vazn o'zgarishlari. Milliy uyg'onish g'oyalarining badiiy talqini. An'anaviy obraz-timsollarning yangi ma'no va mazmun kasb etishi. Yangi obraz va timsollarning kirib kelishi. Yangi o'zbek she'riyati, realistik proza, zamonaviy adabiyotshunoslikning qaror topish manbalari.

Yangi o'zbek adabiyoti tarixi

XX asr boshlari o'zbek adabiyotidagi o'zgarishlar. Sho'rolar davri adabiyotining xususiyatlari. 20-30 yillar adabiyoti. Mafkuraviy tazyiq va adabiy jarayon. II jahon urushi va urushdan keyingi davr adabiyoti. 60-80 yillar adabiyotidagi o'zgarishlar. Qayta qurish davridagi adabiy ko'tarilish. Istiqlol davri adabiyoti va uning xususiyatlari. Milliy mafkura va badiiy ijod.

Jahon adabiyoti tarixi

Jahon adabiyoti tarixining asosiy tamoyillari va davrlashtirish. Antik davr adabiyoti tarixi. Yunon va Rim adabiyoti tarixi. Tragediya va komediya. O'rta asrlar g'arb adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari. Ritsarlik adabiyoti. Yevropa adabiyotida uyg'onish davri. Italiyada uyg'onish. Fransiya da uyg'onish, Angliyada uyg'onish. Shekspir ijodi. XUP-XUSH asrlar Yevropa adabiyotida ma'rifatchilik va realizmning taraqqiyoti. D. Defo, D. Didro, F. Shiller va I. V. Gyote. Yevropa va Amerika adabiyotining XIX asrdagi kamoloti. Tanqidiy relizm adabiyoti. Rus adabiyotida realizm. L.Tolstoy va F.M.Dostoevskiy ijodi. XX asr chet el adabiyotidagi asosiy adabiy oqimlar va konsepsiyalar. Modernizm, postmodernizm, ekzistensializm. Jahon adabiyotidagi Xalq og'zaki ijodi.

Adabiyotshunoslik nazariyasi

Adabiyotshunoslik-badiiy adabiyot haqida ta'limot. Adabiyotshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqasi. Adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlari. Ularning o'zaro bog'laqligi. Adabiyot tarixi, adabiy tanqid va adabiy jarayon. Adabiyot nazariyasi asoslari. Badiiy asar va uning tahlil tamoyillari. Adabiy tur va janrlar. Lirik, epik va dramatik tur. Lirik janrlar. Roman janri. Badiiy uslub va metod muammolari. Badiiy tasvir vositalari. Badiiy san'atlar. Badiiy asar tili. Adabiy yo'nalish va maktablar.

Adabiy-nazariy tafakkur taraqqiyoti. Adabiyotshunoslikdagi akademik maktablar. San'at nazariyasi. Badiiy adabiyot spetsifikasi. Badiiy asar yaxlitligi va tizimli tahlil. Adabiy tur va janrlar tipologiyasi. Adabiy jarayonning umumiy masalalari.

O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi

Adabiyotshunoslikning vujudga kelishi va tarixiy taraqqiyoti. Adabiy tanqidchilikning o'ziga xos xususiyatlari. Adabiy tanqidchili tarixiga bir nazar. Mumtoz adabiyot tarixi va adabiy tanqidchilik. Milliy adabiyotshunoslikning shakllanishida matbuot va matbaa vositalarining roli. XX asr boshlari adabiyotshunosligi va adabiy tanqidning vujudga kelishi. Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriyning adabiy tanqidiy qarashlari. Adabiy tanqid tarixi – adabiy asarlar va jarayonni baholovchi mezon sifatida. Adabiy tanqidchilikda shakl va uslublar xilma-xilligi. O'zbek munaqqidlari. M.Qo'shjonov va O.Sharafiddinov ijodi. Bugungi yosh adabiyotshunos va munaqqidlar xususida

Xalq og'zaki ijodi

XX asr adabiyotining insoniyat tarixidagi o'rni. XX asr adabiyoti dagi asosiy yo'nalishlar.Xalq og'zaki ijodining asosiy tamoyillari. Mustaqillik davrida yaratilgan badiiy asarlar. She'riyat, nasr va dramaturgiya. Hozirgi yoshlar she'riyati va nasri. Modernizm to'g'risidagi bahslar. Bugungi dramaturgiya muammolari. Xalq og'zaki ijodiga xos qonuniyatlar. Milliy istiqolol davrida yaratilgan badiiy-estetik kashfiyotlar. Istiqolol davri nasri va nazmi. Mustaqillik davrida yaratilgan o'zbek romaniga xos xususiyatlar.

Turkologiya kursi

Turkiy filologiyaga kirish

Turkiy tillarning jahon tillari orasida tutgan oʻrni. Turkiy tillarning tasniflari. Eng qadimgi turkiy tillar. Oʻrxun-Enisey yodgorliklari tili. Qadimgi uygʻur tili. Qoraxoniylar davri turkiy tili. Chigʻatoy tilining qardosh turkiy adabiy tillar shakllanishidagi roli. Mamluklar tili. Volgaboʻyi turklari tili. Zamonaviy turkiy tillar.

Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi

Fanning boshqa fanlar orasidagi mavqei. Turkiy tillarning Oltoy tillari orasidagi oʻrni. Turkiy tillarning shakllanish va taraqqiyot bosqichlari. Turkiy tillar qiyosiy-tarixiy grammatikasiga Qoraxoniylar davrida asos solinishi. Turkiy tillarga oid tasniflar. Turkiy tillarning fonetik-fonologik, morfem-morfologik, leksik-semantik va sintaktik qurilishi. Turkiy tillar fonetikasi, leksikasi va grammatikasini rekonstruksiyalash tamoyillari. Turkiy tillarning moʻgʻul, tungus-manchjur, ugor-fin, eroniy tillar bilan aloqasi. Turkiyshunoslikdagi etimologik tadqiqotlar. Turkiy tillar qiyosiy-tarixiy grammatikasini yaratish tamoyillari va qiyosiy-tarixiy metodning roli. Qiyosiy-tarixiy fonetika. Qiyosiy-tarixiy morfologiya. Qiyosiy-tarixiy sintaksis. Qiyosiy-tarixiy leksikologiya.

Turkiy xalqlar adabiyoti tarixi

Turkiy xalqlar adabiyotining xalqlar ijtimoiy madaniyat hayotidagi oʻrni. Turkiy xalqlar adabiyotining asosiy bosqichlari. Turkiy xalqlar folklori. Turkiy xalqlar yozma adabiyoti tarixi. Turk adabiyotida tasavvuf. Tanzimot davri turk adabiyoti. Zamonaviy turk adabiyoti. Ozarbayjon, Qozoq, Qirgʻiz, Turkman folklori, yozma adabiyoti tarixi, zamonaviy adabiyot.

Metodika kursi

Ona tili va adabiyot oʻqitish metodikasi

Ona tili oʻqitish metodikasi fanining predmeti. Til taʼlimining asoslari. Til taʼlimi metodlari va usullari. Ona tili boʻyicha sinfda uyushtiriladigan mashgʻulot turlari. Til darslari metodikasi. Bogʻlanishli nutqni oʻstirish metodikasi. Yozma ishlarni oʻtkazish, tekshirish va baholash yoʻllari. Dars tahlili metodikasi.

Adabiyot oʻqitish metodikasi fanining predmeti. Adabiy taʼlimning asoslari. Turkiston maktablari va madrasalarida adabiyot oʻqitilishi tarixi. Adabiyot oʻqitish metodlari. Badiiy matn ustida ishlash. Maktab germeneytikasi. Adabiyot boʻyicha sinf va maktabdan tashqari ishlar. Fakultativ mashgʻulotlarni uyushtirish. Yozma ishlar oʻtkazish, tekshirish va baholash metodikasi. Adabiyot darslari tahlili.

3.5.4. Ixtisoslik fanlari

Oʻzbek tilshunosligi tarixi

Kursning maqsadi, tekshirish obʼekti, predmeti va vazifalari. Oʻzbek tilshunosligining shakllanish tarixi. Kursning “Oʻzbek tili tarixi”, “Xalq ogʻzaki poetik ijodi”, “Oʻzbek dialektologiyasi”, “Nutq madaniyati va uslubiyati asoslari”, “Umumiy tilshunoslik”, “Sotsiolingvistika”, “Psixolingvistika” kabi fanlar bilan munosabati. Jahon tilshunosligi shakllanishida oʻzbek tilshunosligining oʻrni. Yirik tilshunos-turkologlarning oʻzbek tilshunosligi taraqqiyotiga qoʻshgan hissalar.

Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Qoshgʻariylarning tilshunoslikka oid qarashlari. A.Navoiy va oʻzbek tilshunosligi taraqqiyoti. Mahmud Zamaxshariyning tilshunoslik merosi. Nomaʼlum shaxs tomonidan yozilgan “At-tuhfatuz zakiyatu fi-tugʻatit turkiya” asari tahlili. Boburning tilshunoslikka oid qarashlari. Oʻrta asrda lugʻatchilik taraqqiyoti. Xonliklar davri oʻzbek tilshunosligi. XX asr boshlarida oʻzbek tilshunosligi: Fitrat, Munavvar qori, Behbudiy, Avloniylarning tilshunoslik merosi (rus tilshunoslarining taʼsiri masalasi). XX asr ikkinchi yarmi oʻzbek tilshunosligi. Toshkent tilshunosligi ilmiy maktabining shakllanishi (Ayub Gʻulomov ilmiy maktabi). Samarqand tilshunosligi ilmiy maktabining shakllanishi (uslubshunoslik maktabi. Ulugʻ Tursunov ilmiy maktabi). Istiqloq davri oʻzbek tilshunosligi.

Tasavvuf va mumtoz poetika asoslari

Tasavvuf istilohi, mohiyati, vujudga kelish oʻrni va davri. Tasavvuf manbalari va taraqqiyot omillari. Tasavvufning taraqqiyoti va tasavvuf adabiyotining shakllanishi (VII-IX asrlar). Tasavvuf tarixida irfon bosqichi (X-XIII asrlarda tasavvuf adabiyoti).

Markaziy Osiyoda tasavvuf tariqatlari. Tasavvuf va badiiy ijod masalalari. Yassaviylik va ibodat adabiyoti. Kubroviylik va badiiy adabiyot. Naqshband va o'zbek mumtoz adabiyoti. Naqshband va Alisher Navoiy ijodiyoti. Qalandariylik adabiyoti. Turkiy badiiy adabiyotda tasavvuf. Rum va Hindiston forsiy adabiyotida tasavvuf.

Mumtoz adabiyotda badiiy so'z tabiati. Surat (shakl) va ma'no birligi. Mumtoz adabiyotda adabiy turlar va she'r nav'lari. Mumtoz she'r tuzilishi va aruz ilmi. Mumtoz adabiyotshunoslikda qofiya ilmi. Ilmi bade' va she'riy san'atlar talqini. Mumtoz adabiyotshunoslikda til odobi, badiiy nutq va uslub masalalari.

Badiiy tahlil asoslari

Badiiy tahlilda falsafiy va milliy asosning o'rni. Badiiy tahlil turlari. Badiiy tahlil bosqichlari va uning badiiy tasvir bosqichlariga muvofiqligi. Badiiy tahlilning yo'nalishlari. Badiiy tahlilning asosiy tamoyillari. Ilmiy tahlil. O'quv tahlili. Badiiy tahlilda shakl va mazmun munosabati. Badiiy tahlilda ob'ekt va sub'ekt munosabati xarakteri. Badiiy matnni tekshirishdagi ilmiy maktablar. Badiiy tahlilda asarning tur xususiyatlarini hisobga olish. Lirik asarlarni tahlil qilish. Epik asarlarni tahlil etish yo'llari. Dramatik asarlarni tahlil etish yo'llari. Badiiy tahlilda uslub.

3.5.5. Tanlov fanlari

O'zgaruvchan bozor sharoitiga moslashish, buyurtmachilar talablari asosida qo'shimcha bilim berish, jaxon fan va texnikasi sohasidagi yangiliklar bilan tanishtirish, tanlangan faoliyat sohasiga tegishli qo'shimcha bilimlar berish, respublika va xorijiy mamalakatlardagi nufuzli oliy ta'lim muassasalarida yo'lga qo'yilgan ta'lim jarayonidagi yangiliklar bilan tanishtirish. Ilmiy pedagogik yoki ilmiy tadqiqot faoliyatiga yo'naltirilgan integrallashtirilgan kurslarni o'zlashtirishga *yo'naltirilgan bo'lishi kerak*.

– 3.5.6. Kurs ishi (loyihasi) mazmuniga qo'yiladigan talablar

Tanlangan mavzuning dolzarbligini asoslash. Mavzuning o'rganilish tarixi, o'rganilganlik darajasi, maqsad va vazifalari. Kurs ishini yozishda tanlangan uslub.

O'quv fanining muhim nazariy muammosiga tegishli mavzu bo'yicha ilmiy adabiyotlarni, elektron manbalarni, internet ma'lumotlarni o'rganish. To'plangan materiallarni reja asosida tartibga solish. Turli xil olimlarning fikrlarini, xulosalarini, nuqtai nazarlarini qiyoslash, tahlil qilish, ularga tanqidiy yondashish. O'zining mustaqil ilmiy xulosalarini muayyan bir tizimga solgan holda bayon etish. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini ilova qilish.

3.5.7. Malakaviy amaliyotni tashkil qilishga qo'yiladigan talablar

Folklor va dialektologik amaliyot

Amaliyot haqida ma'lumot berish. Amaliyotga boriladigan hududni aniqlash. Belgilangan hudud shevasiga oid xususiyatlarni talabalarga eslatish. O'rganiladigan hudud shevasi vakillari bilan mo'ljallangan ilmiy va amaliy mazmundagi reja asosida guruh talabalarining muloqatlarini uyushtirish. Muloqatlarni yozib olish va ularni dialektologik materiallar sifatida yozib, transkripsiya qilish.

Yozib olingan sheva matnlarini guruhlab, alohida daftarlarga yozish, ularni amaliyot rahbarlariga topshirish. Amaliyot oxirida yakuniy va talablarni baholash

Pedagogik amaliyot

Kirish anjumanida ishtirok etish. Ta'lim tizimi bilan tanishish. Pedagogik amaliyotning maqsad va vazifalarini belgilab olish. Dars kuzatish va tahlil qilish yo'llari. O'quvchi va talabalarning jismoniy, ruhiy hamda aqliy taraqqiyotiga doir ma'lumotlarni to'plash, tizimga solish, tahlil qilish. Belgilangan sinf va kurslarda tegishli fanlardan dars o'tish va uning tahlilida ishtirok etish. Bir o'quvchi yoki talabaga atroflicha tavsifnoma yozish. Yakuniy anjumanni tayyorlash va o'tkazishda ishtirok qilish.

3.5.8. Bitiruv malakaviy ishi

Bitiruv malakaviy ishda talaba barcha bloklar bo'yicha olgan bilimlarini tadbiq etishni talab etadigan, tugallangan kasbiy masalani hal etadi.

Unda bakalavr quyidagilarni hal etishi lozim:

- hal qilinayotgan masalani tahlil qilishi va sharhlashi;

- ayni sohadagi tilshunoslik, adabiyotshunoslik talablarini ifodalashi, masalani yechish variantlarini ko‘rib chiqishi va qulay variantni tanlashi;
- qulay variantning hisob, tekstologik, shaklan va mazmunan yechimini keltirishi;
- masala yechimi bo‘yicha xulosalar va tavsiyalar berishi hamda ularning mos tarmoqda qo‘llanilish imkoniyatini aniqlashi;

Bitiruv malakaviy ishning mavzusi oliy ta‘lim muassasasining ixtisoslik kafedralari tomonidan mutaxassisga buyurtmachi bo‘lgan korxonalar talablari, tilshunoslik va adabiyotshunoslik sohasidagi zamonaviy yutuqlardan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Bitiruv malakaviy ish filologik: tilshunoslik, adabiyotshunoslik yoki shu sohadagi ilmiy-tadqiqot yo‘nalishlarida bo‘lishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ishga topshiriq, odatda, talabaga uchinchi kurs tugaganidan keyin beriladi. U to‘rtinchi kurs davomida-umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o‘rganish jarayonida, shuningdek, mazkur standartdagi uni bajarishga ajratilgan maxsus vaqt mobaynida bajariladi.

Bitiruv malakaviy ishning hajmi ixtisoslik kafedrası tomonidan belgilanadi.

3.5.9. Ta‘lim dasturini amalga oshirish

5220100 – *Filologiya (O‘zbek filologiyasi)* yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlashning ta‘lim dasturi mazkur yo‘nalish bo‘yicha akkreditatsiyalangan oliy ta‘lim muassasalarida zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida zamonaviy texnika vositalaridan unumli foydalanib amalga oshiriladi.

Xorijiy tillarni talabalar tomonidan o‘zlashtirilishiga hamda pedagoglar tomonidan o‘qitilishiga e‘tibor ustuvor bo‘lmog‘i va sharoit yaratilishi lozim.

Malakaviy amaliyot alohida ishlab chiqilgan amaliyot dasturlari asosida ta‘lim muassasalarida, zamonaviy korxonalar, tashkilotlar va ITlarda o‘tkaziladi. Shuningdek, amaliyot davrida ixtisoslik fanlaridan ham amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazilishi nazarda tutiladi.

Ta‘lim mobaynida talaba Davlat attestatsiyasi(gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlardan va xorijiy tildan) topshiradi va bitiruv malakaviy ish(loyihasi)ni bajaradi hamda natijasiga qarab davlat namunasidagi oliy ma‘lumot to‘g‘risidagi hujjat (diplom) beriladi. Davlat attestatsiyasi o‘quv jarayoni tugashidan oldin integrallashgan kurs bo‘yicha o‘tkaziladi.

Mehnat faoliyatini ta‘lim muassasalarida amalga oshirish istagini bildirgan bitiruvchilar uchun bitiruv malakaviy ishi umumkasbiy fanlar majmuasi bo‘yicha davlat attestatsiyasi bilan almashtirilishi mumkin.

4. Bakalavrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish va baholash

4.1. Bakalavriat yo‘nalishlari bo‘yicha kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish quyidagilardan iborat:

ichki nazorat oliy ta‘lim muassasasi tomonidan amalga oshiriladi. Ichki nazorat oliy ta‘limni boshqaruvchi vakolatli davlat idorasi tomonidan tasdiqlangan nazoratning reyting tizimi to‘g‘risidagi Nizom asosida o‘tkaziladi;

yakuniy davlat nazorati davlat ta‘lim standartiga muvofiq fanlar bo‘yicha davlat attestatsiyasini va malakaviy bitiruv ishi himoyasini o‘z ichiga oladi;

davlat-jamoat nazorati oliy ta‘limning boshqaruvchi vakolatli davlat idorasi, jamoat tashkilotlari va kadrlar buyurtmachilari tomonidan belgilangan tartibda o‘tkaziladi;

tashqi nazorat Vazrlar Mahkamasi qoshidagi Davlat test markazi Kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish, pedagog kadrlar va ta‘lim muassasalari attestatsiya qilish boshqarmasi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Tayyorlangan kadrlar sifatini baholash kadrlar iste‘molchilari tomonidan mehnat faoliyati jarayonida amalga oshiriladi.

4.2. Oliy ta‘lim muassasasi:

1. ushbu standartdagi talablarga rioya qilinishiga, bakalavrning sifatiga;

- professor-o‘qituvchilar tarkibi va o‘quv-yordamchi xodimlar malakasi talablarga to‘la mos kelishi;
- integrallashtirilgan kurs fanlarining dasturlarida nazarda tutilgan o‘quv-metodik adabiyotlar, o‘quv-uslubiy majmualar, shuningdek, yakka tartibda ishlash va mustaqil tayyorgarlik uchun materiallar bilan ta‘minlanganligi;
- o‘quv jarayonining moddiy-texnika ta‘minoti uchun to‘la ma’suldir.

5. Eslatma

5.1. Oliy ta’lim muassasasiga:

- ushbu standartda nazarda tutilgan minimal mazmunni ta‘minlagan holda talabaning haftalik maksimal yuklamasini oshirmasdan o‘quv materialini o‘zlashtirishga ajratilgan soatlar hajmini o‘quv fanlari bloklari uchun 5% oralig‘ida, blokga kiruvchi o‘quv fanlari uchun 10% oralig‘ida o‘zgartirish;
- umumkasbiy fanlar blokiga mos ravishda gumanitar, ijtimoiy-iqtisodiy, matematik va tabiiy-ilmiy o‘quv fanlarining alohida bo‘limlarini chuqurlashtirib o‘qitishni belgilash;
- o‘quv fanlari mazmuniga, texnika va texnologiyalarning yutuqlarini hisobga olgan holda o‘zgartirishlar kiritish huquqi beriladi;
- bitiruv malakaviy ish (loyiha) mavzusini belgilash oliy ta’lim muassasasi rektori tomonidan rasmiylashtiriladi.

5.2. Kurs ishlari (loyihalari) muayyan o‘quv faoliyatining bir turi sifatida ko‘riladi va ushbu o‘quv fanini o‘zlashtirish uchun ajratilgan soatlar chegarasida bajariladi.

5.3. Davlat ta’lim standartini bilish professor-o‘qituvchilar tarkibini oliy ta’limning tanlov asosida saralash shartlaridan biri hisoblanadi.

1-ilova

5220100-Filologiya (O‘zbek filologiyasi) yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim dasturining tuzilishi

№	O‘quv fanlari, integrallashtirilgan kurslar va bloklarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi
		soatlarda
1	2	3
1.00	Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar	1704
2.0.00	Matematik va tabiiy-ilmiy fanlar	776
2.1.00	<i>Matematik kommunikativ kurs</i>	<i>472</i>
2.1.01	Oliy matematika	168
2.1.02	Informatika va axborot texnologiyalari	168
2.1.03	Kompyuter lingvistikasi	136
2.2.00	<i>Tabiiy-ilmiy kurs</i>	<i>304</i>
2.2.01	Ekologiya	136
2.2.02	Tabiatshunoslikning zamonaviy konsepsiyasi	168
3.0.00	Umumkasbiy fanlar	3555
3.1.00	<i>Tilshunoslik kursi</i>	<i>1485</i>
3.1.01	Xalq og‘zaki poetik ijodi	448
3.1.02	Til tarixi	318
3.1.03	Tilshunoslik nazariyasi	235
3.1.04	Arab (fors) tili	364
3.1.05	O‘zbek dialektologiyasi	120
3.2.00	<i>Adabiyotshunoslik kursi</i>	<i>1454</i>
3.2.01	O‘zbek xalq og‘zaki ijodi	100
3.2.02	O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi	348
3.2.03	Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti	150
3.2.04	Yangi o‘zbek adabiyoti tarixi	156
3.2.05	Jahon adabiyoti tarixi	168

3.2.06	Adabiyotshunoslik nazariyasi	266
3.2.07	O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi	142
3.2.08	Xalq og'zaki ijodi	124
3.3.00	<i>Turkologiya kursi</i>	364
3.3.01	Turkiy filologiyaga kirish	100
3.3.02	Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi	144
3.3.03	Turkiy xalqlar adabiyoti tarixi	120
3.4.00	<i>Metodika kursi</i>	252
3.4.01	Ona tili va adabiyot o'qitish metodikasi	252
4.0.00	Ixtisoslik fanlari	284
4.0.01	O'zbek tilshunosligi tarixi	84
4.0.02	Tasavvuf va mumtoz poetika asoslari	104
4.0.03	Badiiy tahlil asoslari	96
5.0.00	Qo'shimcha tayyorgarlik	432
5.0.01	Tibbiy tayyorgarlik	432
6.0.00	Tanlov fanlari	539
	Jami	7290
	Malakaviy amaliyot	1296
	Bitiruv malakaviy ishi	378
	Attestatsiya	108
	Jami	1782
	HAMMASI	9072

2-ilova

5220100-Filologiya (O'zbek filologiyasi) yo'nalishi bo'yicha o'qitiladigan tanlov fanlarining taxminiy ro'yxati

1. Navoiy poetikasi.
2. Tilshunoslik va tabiiy fanlar.
3. Matnshunoslik.
4. O'zbek tili morfofonologiyasi.
5. Sotsiolingvistika.
6. O'zbek nutqi madaniyati asoslari.
7. Matn va talqin muammosi.
8. Ilmiy tadqiqot asoslari.
9. O'zbek adabiyotshunosligi tarixi.
10. Badiiy nasr poetikasi.
11. She'riy janrlar tipologiyasi.
12. O'zbek va rus adabiy aloqalari.
13. Qiyosiy tilshunoslik.
14. Demografiya asoslari.
15. Yosh davrlar psixologiyasi.
16. Ona tili va adabiyot fanlarini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiya usullarini qo'llash.

Izoh:

1. OTM imkoniyatlari va kadrlar iste'molchilari talablari asosida mazkur ro'yxatga qo'shimchalar va o'zgarishlar kiritilishi mumkin.
2. Ko'rsatilgan fanlardan 5-6 tasi o'qitilishi shart.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI**

Рўйхатта олинди

№ Б.4 5220100-3

«22» август 2006 й



Тасдиқланди

Ўз.Р. ОўМТВ

№ 186

«22» август 2006 й

O‘zbek xalq og‘zaki ijodi
fanidan
DASTUR

200000 — Gumanitar fanlar va san’at bilim sohasi
5220100 — Filologiya (o‘zbek filologiyasi) yo‘nalishi

Toshkent - 2006

Tuzuvchilar: f.f.n., dotsent T.Sobitova
f.f.n., katta o`qituvchi A.Tilavov

Taqrizchilar: f.f.n.S.Alimov, O`zbekiston Milliy universiteti dotsenti, f.f.n. Sh.Turdimov, O`zFA til va adabiyot instituti katta ilmiy xodimi

Dastur Mirzo Ulug`bek nomidagi O`zbekiston Milliy universiteti ilmiy-metodik kengashida ko`rib chiqilgan va tavsiya qilingan.
«___»_____ 2006 y. _____ - son majlis bayoni.

Muvofiqlashtiruvchi kengashning_____qaydnomasi bilan tasdiqqa tavsiya etilgan

Kirish

O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi fanining xalq milliy qadriyatlari, estetikasi, dunyoqarashi, merosini o'rganishdagi o'rni.

O'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari, uning o'ziga xos xususiyatlari, tarixi, janrlari, badiiy jihatlar bilan tanishtirishni maqsad qilishi.

Talabalar folklorning paydo bo'lishi, shakllanishi, taraqqiyot bosqichlari, undagi ijodiy jarayon, hayotiy mazmuni, g'oyaviy mohiyati, badiiy o'ziga xosligi, janrlarining spetsifikasi haqida bilimga ega bo'lishi kerakligi.

Mazkur fanning adabiyotshunoslik, tilshunoslik, san'atshunoslik, sotsiologiya, tarix, etnografiya, pedagogika kabi fanlar bilan aloqadorligi.

Xalq og'zaki poetik ijodi haqida umumiy ma'lumot

«Folklor» termini haqida tushuncha. Xalq og'zaki badiiy ijodi tarixi va uning asosiy janrlari. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi va boshqa xalqlar folklorining mushtarakligi, farqli tomonlari. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi, xalqning milliy xususiyatlari va an'alarining badiiy ifodasi sifatida.

Xalq og'zaki poetik ijodining o'ziga xos belgilari

Jamoalik va ommaviylik xalq og'zaki ijodining muhim belgisi sifatida. Og'zakilik va badihago'ylik folklor asarlari keng tarqalishining muhim omili sifatida. Badihago'ylik haqida ma'lumot. Og'zakilikning ijobiy va salbiy jihatlar. Versiya va variantlilik hamda uning sabablari. An'naviylikning o'ziga xos xususiyat ekanligi. Anonimlik yoki folklor asarlari ilk namunalari mualliflari nomining saqlanmasligi haqida.

Qadimgi davr folklori

Turkiy xalqlar mifologiyasi. Mif (asotir) atamasi. Miflar jamiyat tafakkurining badiiy in'ikosi sifatida. «Avesto»ning mifologik asoslari. O'rxun –Enasoy bitiklarida folklor motivlari. Turkiy kitobiy doston va nasriy asarlar («O'g'uznoma», «Kitobi dadam Qo'rqud», «Qutadg'u bilig», «Hibatu-l-xaqoyiq», «Qissai Rabg'uziy»)da folklor an'alari. Totemizim, fetishizm, animizm tushunchalari. Miflarda xalq e'tiqodlarining ifodalanishi.

Xalq afsonalari

Afsona va rivoyatlar, ularning hayot haqiqati bilan munosabati. Afsona va rivoyatlarning o'xshash va farqli tomonlari. Qahramonlik afsonalari, «To'maris» va «Shiroq» afsonalari. Afsonalarda Vatan tuyg'usi. Xalq afsonalarida rasm-rusumlar, geografik nomlar, tarixiy voqealarning izohlanishi. Qirg'iz, Guldursun, Hazorasp, Dalvarzin tepa afsonalari.

Maqol va matallar

Maqol va uning janr xususiyatlari. Maqollarning badiiyati, obrazlilik, o'z va ko'chma ma'nolari. Maqollarning milliy va uslubiy xususiyatlari. Maqollarning yozma adabiyotda keng qo'llanilishi. Matal haqida ma'lumot. Matallarning maqolalardan farqi. Matallar jonli va badiiy tilning uzviy qismi sifatida.

Topishmoqlar

Topishmoq-xalq og'zaki ijodning kichik janri sifatida. Topishmoqlarning ma'rifiy, estetik va tarbiyaviy ahamiyati. Topishmoqlarning janr xususiyatlari.

Topishmoq poetikasi (timsollar olami, syujet va kompozitsion xususiyatlari). Topishmoq va chiston. An'anaviy topishmoqlarda xalq hayotining aks etishi. Topishmoqlarning badiiy xususiyatlari.

Askiya va so`z o`yinlari

Askiya janrining o`ziga xos belgilari. Askiya payrovlari haqida. Mashhur askiyachilar haqida ma'lumot. So`z o`yinlari. Ularda omonimlarni qo'llashdagi san'atkorlik. So`z o`yinlari va tuyuqlar.

Xalq qo`shiqlari

Xalq qo`shiqlari-xalq og`zaki ijodi san'atining keng tarqalgan janri sifatida. Qo`shiqlarning janr xususiyatlari. Xalq qo`shiqlarining mavzuga ko`ra tavsifi. Marosim qo`shiqlari va ularning turlari. Marosim qo`shiqlarining hayotiy asoslari. O`lan, lapar, yor-yorlar, alla va ularning ijrosi. Marsiyalarda mehnatkash ommaning dunyoqarashi, psixologiyasi va estetik tafakkurlarining aks etishi. Marsiyalarda ichki kechinmalar va his-tuyg`ularning ifodalanishi. Tarixiy qo`shiqlar. Qo`shiqlarning badiiy xususiyatlari. Qo`shiqlarning ma'rifiy va tarbiyaviy ahamiyati.

Xalq ertaklari

Ertak xalq og`zaki ijodining eng qadimiy ommaviy janrlaridan biri. Ertak atamalari. Ertak xalq og`zaki ijodidagi badiiy nasrning namunasi sifatida. Xalq ertaklarining janr xususiyatlari. Ertaklar tasnifi. Ertaklarning badiiy xususiyatlari.

Latifalar

Latifa-xalq og`zaki ijodining keng tarqalgan kichik nasriy janri sifatida. Latifalardagi kulgining ijtimoiy xarakteri. Nasriddin afandi timsoli. Nasriddin xalqning ideal qahramoni sifatida. Afandining ikki xil qiyofasi. Afandi latifalarining badiiy qimmati. Afandi latifalarining kompozitsion jihati. Latifalarning til xususiyatlari. Zamonaviy latifalarning ijtimoiy mazmuni.

Xalq dostonlari

Doston janri haqida ma'lumot. Doston-xalq og`zaki ijodining sinkretik janri sifatida. Dostonda badiiy matn (nazm va nasr) va musiqaning o`rni. Xalq baxshilari haqida qisqacha ma'lumot. Dostonlar tasnifi. Dostonchilik an'analari.

«Alpomish» dostoni

«Alpomish»-qadimiy xalq qahramonlik eposi sifatida. Dostonning variantlari va versiyalari. «Alpomish» dostoni haqida munozaralar. Dostonning nashrlaridagi farqlari (1939, 1958, 1979, 1992-93, 1998). Asarga islom dini ta'siri. Dostonning badiiy xususiyatlari. «Alpomish» dostonning o`zbek xalq og`zaki ijodida tutgan o`rni va ahamiyati.

«Go`ro`g`li» dostonlar turkumi

Xalq dostonlari haqida umumiy xulosalar.

Bolalar folklori

Bolalar folklori-xalq og`zaki poetik ijodining muhim tarkibiy qismi.

O`zbek marosim folklori

Marosim va «Marosim folklori» tushunchalari. Marosim folklori turlari. («Sust xotin», «Choy momo», «Loy tutish», «Shohmoylar»).

Amaliy mashg'ulotlari

Xalq og'zaki ijodining o'ziga xos xususiyatlari. An'anaviylik. Og'zakilik. Jamoalik. Variantlilik va versiyalilik. Anonimlik. Folklor va jismoniy mehnatdagi kollektivlik. Anonimka va anonimlikning farqi. Turkiy xalqlar mifologiyasi. Ardisura Anaxita haqidagi mif. Kayumars va Jamshid haqidagi miflar. Xalq ishonchlarida totemizm, fetishizm va animizm. Afsona va rivoyatlar. Kosmogonik, toponomik, afsonalar. «Etti og'a-ini», «Oq bo'z ot», «Ko'k bo'z ot» afsonalari. To'maris. Afsona va rivoyat farqi. Po'ltan shoirning o'zbek dostonchiligidagi o'rti. Po'ltan shoirning badiiy mahorati. «Alpomish» dostoni va uning tarjimalari xususida. Alpomish dostoni rus tilida. Dostonning turkcha tarjimasi haqida mulohazalar. Miflar. Mifologiya tushunchalari. Totem. Fetish. Anim. Mifologiya-miflarni o'rganuvchi soha. Ot totemi haqida. Fetishizm va animizmning xalq urf - odatlaridagi o'rti. Maqollar. Maqol va paremiya. Maqol va irloli masal. Topishmoqlar. Topishmoqlar hayotni badiiy idrok etish shakli sifatida. Marosim folklori. Milliy urf-odatlarimiz va marosim folklori. Mavsumiy marosim folklori va oilaviy-maishiy marosim folklori. Dostonlar. Tasnif va tahlil. O'zbek dostonchilik maktablari. Latifalar. Afandi latifalari. Aldarko'sa, Kalo'g'lon va o'zbek latifalari.

Seminar mashg'ulotlari

O'zbek maqollarining tasnifi. Dostonlarda turkumlik. «Alpomish» dostonining variant va versiyalari. Xalq baxshisining badiiy mahorati. Dostonlar-ma'naviyatimiz gultoji. Xalq kitoblari: «Bobo Ravshan» qissasi. «Ibrohim Adham» qissasining ma'rifiy-estetik ahamiyati. Marsiyalarning hududlarga ko'ra farqlanishi. «Alpomish» dostonidagi maqol va matallar. Ertaklarda hayot falsafasi.

Mustaqil ish

Amaliy mashg'ulotlarga tayyorlanish.

Seminar mavzulariga tayyorlanish.

Folklor va badiiy adabiyot munosabatlari. Jangovar ot obrazining tarixiy asoslari va badiiy talqini. Maqollar badiiyati. Topishmoqlar - bolalar folklorining janri sifatida. Alisher Navoiy ijodida folklorizm «Alpomish» dostonidagi ayollar obrazi. «Kuntug'mish» dostonida qahramon ruhiyati talqini. To'y marosimlari va ommaviy axborot vositalari. Chorvachilik bilan bog'liq qo'shiqlar. Lirik qo'shiqlar. Aytishuvlar. Termalar, xalq qo'shiqlarini yig'ish va nashr etish. Allalar poetikasi. «Alpomish» sahnada. «Go'ro'g'li» dostonining turkiy variantlari («Goroglu», «Ko'ro'g'li»). Mashhur o'zbek baxshilari. Askiya va me'yori. «Alpomish» dostoni xorijda.

Darslik va o`quv qo`llanmalar ro`yxati

Asosiy

1. K.Imomov, T.Mirzaev, B.Sarimsoqov, O.Safarov. O`zbek xalq og`zaki poetik ijodi. -T.: O`qituvchi, 1990. -
2. Jirmunskiy V.M., Zarifov X.Z. Uzbekskiy narodno`y geroicheskiy epos. -M.: GIXL, 1947. -
3. O`zbek folklori ocherklari. -T.: «Fan» 1987.
4. Madaev O, Sobitova T. O`zbek xalq og`zaki ijodi. –T.: «Sharq» nashriyoti matbaa konserni. 2001, 2003. boshqa avtor

Qo`shimcha

5. Oq olma, qizil olma. -T.:1972.G`ofur G`ulom nashriyoti
6. Gulyor. Farg`ona qo`shiqlari. -T.: 1962.G`ofurG`ulom nashriyoti
7. Latifalar. -T.:1971.G`.G`ulom nashriyoti
8. Oltin beshik, -T.: 1985.G`.G`ulom nashriyoti
9. O`zbek xalq ertaklari. –1989.G`.G`ulom nashriyoti
10. O`zbek xalq maqollari. -T.: «Fan»,1988.
11. Topishmoqlar. -T.:1983.G`.G`ulom nashriyoti
12. Alpomish. Doston. -T.: 2000.G`.G`ulom nashriyoti
13. Go`ro`g`lining tug`ilishi. -T.:1972.G`.G`ulom nashriyoti
14. Ravshan. -T.: 1975.G`.G`ulom nashriyoti
15. Kuntug`mish. -T.: 1976G`.G`ulom nashriyoti
16. Sarimsoqov B. O`zbek marosim folklori. -T.: «Fan» 1986.
17. Alaviya Muzayana. O`zbek xalq marosim qo`shiqlari -T.: «Fan» 1974.
18. Imomov K. O`zbek xalq og`zaki prozasi. -T.: «Fan» 1981.
19. JalolovG`. O`zbek xalq ertaklari poetikasi, -T., «Fan» 1976
20. Yo`ldosheva F. O`zbek materiallarida Nasriddin afandi obrazi. -T.: «Fan» 1979.
21. Saidov M. O`zbek xalq dostonchiligida badiiy mahorat.-T.: «Fan» 1969.
22. Madaev O. «Alpomish» bilan suhbat. -T.: «Ma`naviyat» 2000.
23. Yo`ldoshev Q. «Alpomish talqinlari» -T.: «Ma`naviyat» 2001.
24. Muhammadiy R. Askiya. -T.: «G`ulom»,1962.
25. Husainova Z. O`zbek topishmoqlari, -T., «Fan» 1966.
26. O`gal B. Turk mifologiyasi. -Anqara. 1992.
27. Mamasoli Jumaboev O`zbek va chet el bolalar adabiyoti.– T.: «Ma`naviyat», 2001.
28. Jo`raev M. «Oy oldida bir yulduz» -T.: «Fan», 2000.
29. Murodov M., Ergashev A. «Alpomishnoma»-T.: Sharq matbaa-nashriyot konserni 2001.

***O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI***

«Tasdiqlayman»

O`quv ishlari bo`yicha prorektor v.b.

_____ **O` Ubaydullayev**

« ____ » _____ 2012-yil

O'zbek xalq og'zaki ijodi fanining
(fanning nomi)

ISHCHI O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: - 200000 - Gumanitar fanlar va san'at
Ta'lim sohasi: -220000 - Gumanitar fanlar
Ta'lim yo'nalishi: - 5220100 - Filologiya (O'zbek filologiyasi)

Umumiy o`quv soati -100

Shu jumladan:

Ma'ruza	-24
Amaliy	-16
Laboratoriya	- -
seminar	-18
Mustaqil ta'lim soati	-49

ANDIJON

Fanning ishchi o`quv dasturi Andijon davlat universiteti Filologiya fakulteti kengashining 2012-yil \_\_\_\_avgustdagi \_\_\_\_-sonli yig`ilishida muhokama etildi va ma'qullandi.

Filologiya (O`zbek filologiyasi) ta'lim yo`nalishi o`quv dasturi va ishchi o`quv rejasiga muvofiq ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar: **Salima Mirzayeva-** _____
“O`zbek adabiyoti” kafedrası dotsenti, f.f.d. (imzo)

Nargiza Shermatova- _____
“O`zbek adabiyoti” kafedrası assistenti (imzo)

Taqrizchilar:

Bahrom Jalilov- “O`zbek adabiyoti” kafedrası dosenti, f.f.n.
Rahmonov Bahodir -“O`zbek adabiyoti” kafedrası dosenti, f.f.n.

Fanning ishchi o`quv dasturi Filologiya fakultet kengashida tasdiqlandi (2010-yil ____avgustdagi ____-sonli bayonnoma)

Kengash raisi: _____ f.f.n. dotsent **Z. QODIROV**
(imzo)

Kelishildi:

Kafedra mudiri: _____ f.f.d. dotsent **S. MIRZAYEVA**
(imzo)

2012-yil ____avgust

1-ilova

2012-2013 o`quv yili uchun “Ozbek xalq og`zaki ijodi” fanidan ishchi o`quv dasturiga o`zgarishlar va qo`shimchalr kiritish to`g`risida Filologiya (o`zbek filologiyasi) ta'lim yo`nalishi bo`yicha “Ozbek xalq og`zaki ijodi” faninig ishchi o`quv dasturiga qo`yidagi o`zgartirish va qo`shimchalar kiritlmoqda:

O`zgartirish va qo`shimchalarni kirituvchilar:

Salima Mirzayeva

_____ (imzo)

Nargiza Shermatova

_____ (imzo)

ishchi o`quv dastur Filologiya fakulteti Ilmiy kengashida muhokama etildi va ma'qullandi (2012 yil «_____» _____ dagi «____» -sonli bayonnoma).

Kengash raisi: _____ f.f.n. dotsent **Z. QODIROV**
(imzo]

KIRISH

“Ozbek xalq og`zaki ijodi” fanining ta`limiy maqsadi: talabalarga xalq og`zaki ijodi haqida bilim berish, ularda folklor asarlarini tahlil va talqin qilish ko`nikmalarini shakllantirish.

**“Ozbek xalq og`zaki ijodi” fanining tarbiyaviy maqsadi:** talabalarni milliy an`analarga nisbatan hurmat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.

**“Ozbek xalq og`zaki ijodi” fanining rivojlantiruvchi maqsadi:** badiiy asar g`oyasini ifodalashda folklor asarlari va an`analarining ahamiyatini belgilash, adabiyotshunoslik va xalq og`zaki ijodining chambarchas bog`liq ekanligini anglash hamda folklor asarlarini ilmiy jihatdan o`rganish ko`nikmalarini shakllantirish.

Folklor asarlari o`zining hayotiyliigi, ijtimoiy tabiati, g`oyaviy mohiyati hamda o`ziga xos badiiy xususiyatlari bilan ajralib turishi. Xalqning mehnati, urf-odati, turmush sharoiti, orzu-istagi, kurash va g`alabalari uning temasi va g`oyaviy mazmunida aks etganligi.

Folklor asarlarining xalqchilik xususiyati ularning hayotiyliigi va qaysi bir dunyoqarashni himoya qilishi bilan bog`langanligi. Bu xususiyat, asosan, folklor asarlarida mavjud bo`lgan bosh g`oyaning mohiyatidan kelib chiqishi. Folklor asarlari o`ziga xos badiiy qolip-andozaga ham egaligi. Ayniqsa, ertak va dostonlarda mavjud syujet va kompozitsiya hikoya qilish uslubi xarakterli bo`lib, har ikki janrga xos syujet voqelari doimo o`ziga xos boshlanma va tugallanmaga ega bo`lishi xususida. Bunday xususiyat yozma adabiyotda uchramasligi.

Xalq og`zaki ijodining o`z ijodiy metodi mavjudligi. Uni shartli ravishda romantizm tipidagi ijodiy metod deyish mumkinligi, chunki folklor asarlarida fantastika, badiiy uydirmalar, hayotiy asos bo`lishi, yo`g`rilgan xayoliy voqea va hodisalar hayotni tasvirlashning o`ziga xos uslubi sifatida namoyon bo`lganligi.

Xalq og`zaki poetik ijodi haqida umumiy ma`lumot Xalq og`zaki poetik ijodining o`ziga xos xususiyatlari (2soat ma`ruza)

“Folklor” termini haqida tushuncha. Xalq og`zaki badiiy ijodi tarixi va uning asosiy janrlari. O`zbek xalq og`zaki poetik ijodi va boshqa xalqlar folklorining mushtarakligi, farqli tomonlari va an`analarining badiiy ifodasi sifatida.

Xalq og`zaki poetik ijodining asosiy xususiyati ijodiy jarayon-yaratuvchilik va ijrochilik jarayonining kollektivlik xarakteriga egaligi. Uning og`zakilik, variantlilik, ommaviylik, traditsionlik, anonimlik kabi belgilarini kollektivlik tomonidan yaratilgan poetika elementlari, an'anaviy uslub vositalari asosida yuzaga kelishi. U muayyan eshituvchilar guruhiga mo`ljallangan bo`lishi va kollektiv tomonidan e'tirof etilgandagina ijtimoiy va tarixiy ahamiyat kasb etishi.

Folklor namunalari og`zaki yaratilib, og`zaki ijro etilishi. Xalq og`zaki poetik ijodining kollektivlik xakteri individual ijodchilar faoliyatini inkor etmasligi. Iste'dodli ijodkorlar folklor namunalarini saqlab qolishi va keng ommalashtirish bilan birga og`zaki an`analari doirasida uni yanada mukammallashtirgan holda, yangilarini yaratilishi.

Qadimgi davr folklori .Xalq afsonalari **(2soat ma'ruza)**

Qadimgi davr folklorlarining asl namunalari bizga qadar saqlanib qolmaganligi. Turli davrlarda ular turlicha o'zgarishlarga uchraganligi. O'rta Osiyo xalqlarining qadimgi folklorlarining ba'zi namunalari ayrim tarixiy, ilmiy asarlarda, yodnomalarda qisman saqlanib qolganligi.

Turkiy xalqlar mifologiyasi. Mif (asotir) atamasi. Miflar jamiyat tafakkurining badiiy in'ikosi sifatida. "Avesto"ning mifologik asoslari. O'rxun-enasoy bitiklarida folklor mativlari. Turkiy kitobiy doston va nasriy asarlar ("O'g'uznoma", "Kitobi dadam Qo'rqu", "Qutadg'u bilig", "Hibatu-l-xaqoyiq", "Qissai Rabg'uziy")da folklor an'analari. Totemizm, fetishizm, antimizm tushunchalari. Miflarda xalq e'tiqodlarining ifodalanishi.

Afsona va rivoyatlar, ularning hayot haqiqati bilan munosabati. Afsona va rivoyatlarning o'xshash va farqli nomonlari. Qahramonlik afsonalari, "To'maris" va "Shiroq" afsonalari. Afsonalarda Vatan tuyg'usi. Xalq afsonalarida rasm-rusumlar, geografik nomalar, tarixiy voqealarning izohlanishi. Qirqqiz, Guldursun, Hazorasp, Dalvarzon tepa afsonalari.

Maqol va matallar **(2soat ma'ruza)**

Maqol xalq og'zaki ijodining ixcham shaklga, ammo chuqur mazmunga ega bo'lgan janrlaridan biri bo'lib, u xalqning ko'p asrlik hayotiy kuzatishlari, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy tajribalari asosida vujudga kelganligi. Maqollar o'zlarining ijtimoiy-g'oyaviy funktsiyalariga ko'ra, asosan keng xalq ommasining, ayrim hollarda esa ba'zi ijtimoiy tabaqa yoki guruhlarining dunyoqarashini ifodalaganligi. Maqol termini arabcha "qavlun"(aytmoq, gapirmoq) so'zidan olingan bo'lib, o'zbek tilida u xalq donoligining namunasi ekanligi.

Topishmoqlar **(2soat ma'ruza)**

Topishmoq xalqning hayotini, turmush madaniyatini, urf-odatlarini, predmetlarning badiiy-estetik tomonlarini o'zida aks ettiruvchi folklorning eng qadimiy, eng kichik va ixcham mustaqil janri ekanligi. Topishmoq janri o'zbeklarda topishmoq, topmacha, topar cho'pchak, top-top, jumboq, matal, masala kabi bir necha terminlar bilan yuritilganligi.

Topishmoqlar-xalq og'zari ijodning kichik janri sifatida. Topishmoqlarning ma'rifiy, estetik va tarbiyaviy ahamiyati. Topishmoqlarning janr xususiyatlari. An'anaviy topishmoqlarda xalq hayotining aks etishi. Topishmoqlarning badiiy xususiyatlari.

Askiya va so'z o'yinlari. Latifalar **(2soat ma'ruza)**

Askiya janrining o'ziga xos belgilari. Askiya payrovlari haqida. Mashhir askiyachilar haqida ma'lumot. So'z o'yinlari. Ularda omonimlarni qo'lashdagi san'ankorlik. So'z o'yinlari va tuyuqlar.

Latifa so'zi arabcha lutf, latif so'zlaridan olingan bo'lib, nozik nafis ma'nolarini anglatishi. Latifalar xalq orasida keng tarqalgan bo'lib, xalq og'zaki prozasining

voqeaband, hajman kichik, yumoristik xarakterdagi hajviy janrlaridan hisoblanganligi. Latifalar juda qadimiy bo'lishiga qaramay, ularning Nasriddin nomi bilan bog'lanishi nisbatan keyingi davrlarga xosligi. Fikrning ixcham, lo'nda ifodalanishi va favqulodda chuqur mazmun bilan tugallanishi, ba'zan beg'araz, ba'zida achchiq kulgi uyg'otish latifalarning muhim belgisi hisoblanganligi.

Xalq qo'shiqlari (2soat ma'ruza)

Qo'shiqlar-o'zbek folklorining qadimiy va keng tarqalgan janrlardan biri sifatida. O'zbek xalq qo'shiqlari janr mansubiyati, yaratilish davri, ijro o'rni va turi kabilar jihatidan xilma-xillik kasb etishi. Bu jihatdan xalq qo'shiqlari marosim va marosimga aloqasiz qo'shiqlarga bo'linishi. To'y va boshqa marosimlarda ijro etiladigan yoki motam yig'ilari marosim qo'shiqlarini tashkil etilishi.

Qo'shiqlarning janr xususiyatlari. Xalq qo'shiqlarining mavzusiga ko'ra tasnifi. Marosim qo'shiqlari va ularning turlari. Marosim qo'shiqlarining hayotiy asoslari. Marsiyalar mehnatkash ommaning dunyoqarashi, psixologiyasi va estetik tafakkurlarining aks etishi. Tarixiy qo'shiqlar. Tarixiy qo'shiqlarning badiiy xususiyatlari. Qo'shiqlarning ma'rifiy va tarbiyaviy ahamiyati.

O'zbek xalq ertaklari (2soat ma'ruza)

Hayot haqiqati bilan bog'liq bo'lishi, hayotiy va hayotiy uydirmalar asosiga ko'rilganligi, didaktik g'oya tashuvchi og'zaki hikoyalar ertak deyiladi.

Ertak-o'zbek og'zaki prozasining yetakchi janrlaridan biri bo'lib, ularda xalqning ulug'vor g'oyalari, dunyoqarashi, ruhiy kechinmalari, sotsial-ahloqiy ideallari o'ziga xos yo'sinda badiiy aks etadi. Binobarin, ertaklar hech vaqt bekorchi, ertak narsalar emas, ular hamma vaqt muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadilar.

Xalq dostonlari (2 soat ma'ruza)

Doston o'zbek folklorining keng tarqalgan va yirik janrlaridan biridir. Uning yaratilishi xalqimizning ma'naviy-maishiy qiyofasi, ijtimoiy-siyosiy kurashlari, axloqiy-estetik qarashlari, adolat va haqqoniyat, ozodlik va tenglik, qahramonlik va vatanparvarlik haqidagi ideallari bilan chambarchas bog'liqdir. Asriy kurashlar va ideallar uning tematikasi, g'oyaviy mazmuni, obrazlar sistemasi, syujet va kompozitsiyasi mohiyatini belgilaydi.

“Alpomish” dostoni (2 soat ma'ruza)

“Alpomish”-qadimiy xalq qahramonlik eposi sifatida. Dostonning variantlari va versiyalar. “Alpomish” dostoni haqida munozaralar. Dostonning nashrlaridagi farqlari (1939,1958,1979,1992,1993,1998). Asarga islom dini ta'siri. Dostonning badiiy xususiyatlari. “Alpomish” dostoning o'zbek xalq og'zaki ijodida tutgan o'rni va ahamiyati.

“Go'ri'g'li” dostonlar turkumi (2soat ma'ruza)

“Go’ro’g’lining tug’ilishi va bolaligi”, “Yunus pari”, “Misqol pari”, “Ravshan”, “Avazxon”, dostonlarining g’oyaviy-badiiy xususiyatlari.

Bolalar folklori

(2 soat ma’ruza)

Bolalar folklori-xalq og’zaki poetik ijodining muhim tarkibiy qismi.

O’zbek marosim folklori

(2 soat ma’ruza)

“Marosim folklori” ning bajarilish o’rni va vazifalari. Marosim folklori turlari. (“Sust xotin”, “Choy momo”, “Loy tutish”, “Shohmoylar”). Mavsum folklorining marosim folkloridan farqi.

Amaliy mashg’ulot (16 soat)

Xalq og’zaki ijodining o’ziga xos xususiyatlari. An’anaviylik. Og’zakilik. Jamoalik. Variantlilik va versiyalilik. Anonimlik. Folklor va jismoniy mehnatdagi kollektivlik. Anonimka va anonimlikning farqi. Turkiy xalqlar mifologiyasi. Ardisura Anaxita haqidagi mif. Kayumars va Jamshid haqidagi miflar. Xalq ishonchlarida totemizm, fetishizm va animizm. Afsona va rivoyatlar. Kosmogonik, toponomik, afsonalar. «Etti og’a-ini», «Oq bo’z ot», «Ko’k bo’z ot» afsonalari. To’maris. Afsona va rivoyat farqi. Po’lkan shoirning o’zbek dostonchiligidagi o’rni. Po’lkan shoirning badiiy mahorati. «Alpomish» dostoni va uning tarjimalari xususida. Alpomish dostoni rus tilida. Dostonning turkcha tarjimasi haqida mulohazalar. Miflar. Mifologiya tushunchalari. Totem. Fetish. Anim. Mifologiya-miflarni o’rganuvchi soha. Ot totemi haqida. Fetishizm va animizmning xalq urf-odatlaridagi o’rni. Maqollar. Maqol va paremiya. Maqol va irsoli masal. Topishmoqlar. Topishmoqlar hayotni badiiy idrok etish shakli sifatida. Marosim folklori. Milliy urf-odatlarimiz va marosim folklori. Mavsumiy marosim folklori va oilaviy-maishiy marosim folklori. Dostonlar. Tasnif va tahlil. O’zbek dostonchilik maktablari. Latifalar. Afandi latifalari. Aldarko’sa, Kalo’g’lon va o’zbek latifalari.

Seminar mashg’ulotlari (18 soat)

O’zbek maqollarining tasnifi. Dostonlarda turkumlik. «Alpomish» dostonining variant va versiyalari. Xalq baxshisining badiiy mahorati. Dostonlar-ma’naviyatimiz gultoji. Xalq kitoblari: «Bobo Ravshan» qissasi. «Ibrohim Adham» qissasining ma’rifiy-estetik ahamiyati. Marsiyalarning hududlarga ko’ra farqlanishi. «Alpomish» dostonidagi maqol va matallar. Ertaklarda hayot falsafasi.

Mustaqil ish (43 soat)

Amaliy mashg’ulotlarga tayyorlanish. Seminar mavzulariga tayyorlanish. Folklor va badiiy adabiyot munosabatlari. Jangovar ot obrazining tarixiy asoslari va badiiy talqini. Maqollar badiiyati. Topishmoqlar - bolalar folklorining janri sifatida. Alisher Navoiy ijodida folklorizm «Alpomish» dostonidagi ayollar obrazi. «Kuntu g’mish» dostonida qahramon ruhiyati talqini. To’y marosimlari va

ommaviy axborot vositalari. Chorvachilik bilan bog'liq qo'shiqlar. Lirik qo'shiqlar. Aytishuvlar. Termalar, xalq qo'shiqlarini yig'ish va nashr etish. Allalar poetikasi. «Alpomish» sahnada. «Go'ro'g'li» dostonining turkiy variantlari («Goroglu», «Ko'ro'g'li»). Mashhur o'zbek baxshilari. Askiya va me'yor. «Alpomish» dostoni xorijda.

2-ilova

O'zbek xalq og'zaki ijodi fanidan o'tiladigan mavzular va ular bo'yicha mashg'ulot turlariga ajratilgan soatlarning taqsimoti

t.r	Fanning bo'limi va mavzusi, ma'ruza mazmuni	s o a t l a r				
		jami	ma'ruza	amaliy	Labora toriya	semi nar
1	KIRISH Xalq og'zaki poetik ijodi haqida umumiy ma'lumot Xalq og'zaki poetik ijodining o'ziga xos xususiyatlari	5	2	-	-	2
2	Qadimgi davr folklori Xalq afsonalar	4	2	-	-	2
3	Maqol va matallar	6	2	2	-	2
4	Topishmoqlar	4	2	2	-	-
5	Askiya va so'z o'yinlari Latifalar	4	2	2	-	1
6	Xalq qo'shiqlari	6	2	2	-	2
7	O'zbek xalq ertaklari	4	2	2	-	-
8	Xalq dostonlari	4	2	-	-	2
9	“Alpomish” dostoni	4	2	2	-	1
10	“Go'ri'g'li” dostonlar turkumi	6	2	2	-	2
11	Bolalar folklori	6	2	2	-	2
12	O'zbek marosim folklori	4	2	-	-	2
	Jami:	58	24	16	-	18

3-ilova

O'zbek xalq og'zaki ijodi fanidan talabalar mustaqil ta'limining mazmuni va hajmi

Ishchi o'quv dasturlarining mustaqil ta'limga oid bo'lim va mavzulari	Mustaqil ta'limga o'ld topshiriq va tavsiyalar	Bajarilish muddati	Hajmi (soatda) 49 soat
1	2	3	4
KIRISH Xalq og'zaki poetik ijodi haqida umumiy ma'lumot Xalq og'zaki poetik ijodining o'ziga xos xususiyatlari	1. O'tilgan mavzu bo'yicha mavjud adabiyotlardan kons-pekt yozish. 2.Seminar mashg'ulotlariga tayyorlanish. 3.Amaliy mashg'ulotlarga tayorlanish.	mart	5
Qadimgi davr folklori Xalq afsonalari		mart	4
Maqol va matallar		mart	4
Topishmoqlar		Aprel	4
Askiya va so'z o'yinlari Latifalar		Aprel	4
Xalq qo'shiqlari		aprel	4
O'zbek xalq ertaklari		aprel	4
Xalq dostonlari		may	4
"Alpomish" dostoni		May	4
"Go'ri'g'li" dostonlar turkumi		may	4
Bolalar folklori		iyun	4
O'zbek marosim folklori		iyun	4

O'quv yuklamasi soati

№	Mashg'ulot turi	Ajratilgan soat		
		1-semestr	2-semestr	jami
1	Ma'ruza	-	24	20
2	Amaliyot	-	16	16
3	Laborotoriya	-	-	-
4	Ceminar	-	18	18
5	Mustaqil ish	-	42	42
	Jami:	-	100	100

Baholash turlari bo'yicha ballar taqsimoti 2-SEMESTR

№	fanlar nomi	soatlar			joriy baholash (35 ball)						oraliq baholash (35 ball)						yakuniy (50 ball)
					amaliy			mustaqil ish			maʼruza			mustaqil ish			
		maʼruza	amaliy	mustaqil ish	soni	bali	jami ball	soni	bali	jami ball	soni	bali	jami ball	soni	bali	jami ball	bali
1	Oʻzbek xalq ogʻzaki ijodi	20	31	49	1	25	25	1	10	10	1	25	25	1	10	10	30 ogʻzak i

**Xalq og'zaki ijodi fanidan
REYTING REJASI
2012-2013 o'quv yili 2- yarim yillik
Filologiya ta'lim yo'nalishi 1-kurs**

Ma'ruza -24 soat
Amaliy mashg'ulot -16 soat
Seminar mashg'ulot -18 soat
Mustaqil ta'lim - 42 soat
Maksimal ball - 100
Saralash bali -55

Reyting nazoratlari soni	Mavzular tartib raqami	muddati	Reyting ball			Nazorat shakli	
			O`quv soat	Mustaqil ish	jami	O`quv ishi	
Joriy baholash (35 ball)							
1	1-10	13.05.2013	31	25	35	ogzaki	
Oraliq baholash (40 ball)							
1	1-10	20.05.2013	20	24	35	og`zaki	
Yakuniy nazorat (15 ball)							
1	1-10	1.06.2013		-	30	yozma	

Fan bo'yicha reyting tizimi

Ma'lumki reyting tizimi talabalarning fanni muntazam tizimli ravishda , ya'ni belgilangan muddatlarda va hajmda o'zlashtirishni tashkil etishga bir tomonda qaratilgan bolsa , o'qituvchining baholashga xolisligini ta'minlashga qaratilgan.

Bu tizimda talabalarning bilimlarini nazorat qilish joriy, oraliq va yakuniy baholash og'zaki, test va yozma tarzda amalgam oshiriladi.

Joriy va oraliq baholashlar soni fanning umumiy o'quv soatlar hajmidan kelib chiqib belgilanadi. 2010-2011 o'quv yilgi o'quv dasturida 1- kurs talabalari xalq og'zaki ijodi fanidan umumiy hajmi 105 soat bo'lgan , ya'ni 20 soat ma'ruza , 16 soat amaliy, 15 soat seminar hamda 49 soat mustaqil talim hajmida bo'lgan dars miqdori ajratilgan. Joriy baholashlar har bir seminar va amaliy mashg'ulotlarda 100 ballik tizim asosida baholanadi. Oraliq baholash ham shu tarzda amalgam oshiriladi.

ADU talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi O'zbekiston respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligining 2010-yil 29-avgustdagi 333- sonli buyrug'i asosida tashkil etilib , reyting tizimi 100 balli tizimda amalgam oshirilib, quyidagi nazorat turlarini o'z ichiga oladi:

Joriy nazorat: $35=25+10$ (m.i)

Oraliq nazorat: $35=25+10$ (m.i) Jami: 100

Yakuniy nazorat: 30

Talabaning umumiy reyting bali semestrda fanga ajratilgan umumiy o'quv yuklamasi (soatlarda)ni fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi (ballarda) ga ko'paytiriladi:

$$R^1 = \frac{V * O^1}{100}$$

V - semestrda fanga ajratilgan umumiy o'quv yuklamasi (soatlarda)

O¹ - fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi (ballarda)

Joriy nazorat , amaliy , seminar mashg'ulotlarida baholash 100 balli tizim asosida amalga oshiriladi. Har bir talabaning bilimi mashg'ulotlarda quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

Baholash turlari bo'yicha ball qo'yish mezonlari

Dars qoldirmagan, avvalgi nazorat turlarini to'la topshirgan, vazifalarni to'la bajargan, darsda faol qatnashib, mavzuni reja asosida ijodiy yoritgan, adabiy va ilmiy atamalarni izohlay olgan va ular bilan bog'liq tushunchalarni ang'lay olgan, nazariy ma'lumotlarni badiiy materialga tatbiq qila olgan, mavzuga oid badiiy matndan yod bilgan, xulosa va qaror qabul qila olgan, ijodiy fikrlay olgan, mustaqil mushohada yurita olgan, olgan bilimlarini amalda qo'llay olgan, mohiyatini tushungan talabalarga _____ 86-100 %

Dars qoldirmagan, avvalgi nazorat turlarini to'la topshirgan, vazifalarni to'la bajargan, darsda faol qatnashib, mavzuga tegishli ilmiy yoki adabiy atamalarni izohlay olgan, biroq mavzuga oid atamalarni va ular bilan bog'liq ta'riflarni bilgan, mustaqil mushohada yurita olgan, olgan bilimlarini amalda qo'llay olgan, mohiyatini tushungan, mavzuga oid matndan qisman yod bilgan talabalarga _____ 71-85 %

Dars qoldirmagan, avvalgi nazorat turlarini to'la topshirgan, vazifalarni bajargan, mavzuni reja asosida yoritgan, lekin o'quv materialiga ijodiy yondashishga qiynalgan, mavzuga doir adabiy yoki ilmiy atamalarni izohlashda qiynalgan, badiiy matndan chala yod bilgan, mohiyatini tushungan darsda sust qatnashgan talabalarga _____

55-70

%

Ko'p dars qoldiradigan, avvalgi nazorat turlarini topshirmagan, uy vazifalarini bajarmaydigan, aniq tasavvurga ega bo'lmagan, fanni bilmagan talabalarga _____

0-54

%

I. JORIY NAZORAT uchun

Joriy baholash jarayonida talabaning quyidagi mavzular bo'yicha bilimlari e'tiborga olinadi:

Joriy nazorat mavzulari:

1. Xalq og'zaki poetik ijodi haqida umumiy ma'lumot. 2. Xalq og'zaki poetik ijodining o'ziga xos xususiyatlari. 3. Qadimgi davr folklori .Xalq afsonalari. 4. Maqol va matallar. 5. Topishmoqlar. 6. Askiya va so'z o'yinlari. 7. Latifalar. 8. Xalq qo'shiqlari. 8. O'zbek xalq ertaklari.9.. Xalq dostonlari. 10. "Alpomish" dostoni. 11. "Go'ri'g'li" dostonlar turkumi. 12. Bolalar folklori. 13. O'zbek marosim folklori.

1. Agar talaba barcha amaliy va seminar mashg'ulotlariga muntazam va faol qatnashib, yuqoridagi mavzular boyicha to'la tushunchaga ega bolsa, tushunchalarini izohlay olsa, mavzular bo'yicha savol va topshiriqlarni uzluksiz ravishda daftariga qayd qilib borsa belgilangan ballning **86-100 %** miqdorida, ya'ni **22-25 ball** bilan baholanadi.
2. Agar talaba barcha amaliy va seminar mashg'ulotlariga muntazam qatnashib, yuqoridagi mavzular boyicha umumiy tushunchaga ega bolsa, biroq tushunchalarini izohlashg bir oz qiynalsa, mavzular bo'yicha savol va topshiriqlarni daftariga qayd qilib borsa belgilangan ballning **86-100 %** miqdorida, ya'ni **19-21 ball** bilan baholanadi.
3. Agar talaba yuqoridagi mavzular haqida qisman tasavvurga ega bo'lsa, dars qoldirmagan, avvalgi nazorat turlarini to'la topshirgan, vazifalarni bajargan, mavzuni reja asosida yoritgan, lekin o'quv materialiga ijodiy yondashishga qiynalgan, mavzuga doir adabiy yoki ilmiy atamalarni izohlashda qiynalgan, badiiy

matndan chala yod bilgan, darsda sust qatnashgan, mavzular bo'yicha savol va topshiriqlarni daftariga qayd qilib borishda ayrim xatoliklarga yo'l qo'ygan talabalarga belgilangan ballning **55-70 %** miqdorida, ya'ni **15-18 ball** bilan baholanadi.

4. Muntazam ravishda dars qoldargan, yuqoridagi mavzular bo'yicha tasavvurga ega bo'lmagan, daftar yuritmagan talaba belgilangan ballning **0-54 %** miqdorida, ya'ni **0-14 ball** bilan baholanadi va fanni o'zlashtirmagan hisoblanadi.

MUSTAQIL ISH uchun

Talabalarga mustaqil ish uchun quyidagi mavzular doirasida topshiriqlar beriladi:

1. Xalq og'zaki poetik ijodi haqida umumiy ma'lumot. 2. Xalq og'zaki poetik ijodining o'ziga xos xususiyatlari. 3. Qadimgi davr folklori .Xalq afsonalari. 4. Maqol va matallar. 5. Topishmoqlar. 6. Askiya va so'z o'yinlari. 7. Latifalar. 8. Xalq qo'shiqlari. 9. O'zbek xalq ertaklari. 10. Xalq dostonlari. 11. "Alpomish" dostoni.12. "Go'ri'g'li" dostonlar turkumi. 13. Bolalar folklori. 14. O'zbek marosim folklori.

1. Talaba berilgan topshiriq asosida qiyosiy fikr bildirgan tegishli xulosa chiqargan bo'lsa belgilangan ballning **86-100 %** miqdorida, ya'ni **9-10 ball** bilan baholanadi.
2. Talaba berilgan topshiriq asosida nazariy savollarga to'liq javob bergan, ammo to'liq tahlil qila olmagan bo'lsa belgilangan ballning **71-85 %** miqdorida, ya'ni **7-8 ball** bilan baholanadi.
3. Talaba berilgan topshiriq asosida nazariy savollarga javob bergan ammo mustaqil fikrlay olmagan bo'lsa belgilangan ballning **56-70 %** miqdorida, ya'ni **5-6 ball** bilan baholanadi.

Talaba berilgan topshiriq asosida nazariy savollarga qisman javob bergan, misollar keltira olmagan bo'lsa belgilangan ballning **0-55 %** miqdorida, ya'ni **0-6 ball** bilan baholanadi.

II. ORALIQ NAZORAT uchun

1. Agar talaba "Folklor" termini haqida, xalq og'zaki badiiy ijodi tarixi va uning asosiy janrlari, boshqa xalqlar folklorining mushtarakligi, Xalq og'zaki poetik ijodining asosiy xususiyatlari: kollektivlik, og'zakilik, variantlilik, ommaviylik, an'anaviylik, anonimlik, Qadimgi davr folklorlari, O'rta Osiyo xalqlari qadimgi folklorlari, Turkiy xalqlar mifologiyasi, Mif (asotir) atamasi, Miflar jamiyat tafakkurining badiiy in'ikosi, "Avesto"ning mifologik asoslari, O'rxun-enasoy bitiklarida folklor mativlari, Turkiy kitobiy doston va nasriy asarlarda folklor an'analari, Totemizim, fetishizm, antimizim tushunchalari, Afsona va rivoyatlar, Qahramonlik afsonalari, "To'maris" va "Shiroq", Afsonalarda Vatan tuyg'usi, rasm-rusumlar, geografik nomalar, tarixiy voqealarning izohlanishi. Qirg'iz, Guldursun, Hazorasp, Dalvarzon tepa afsonalari, maqolning janr xususiyatlari, badiiy xususiyatlari, topishmoqlarning ma'rifiy, estetik va tarbiyaviy ahamiyati, janr xususiyatlari, badiiy xususiyatlari, askiya janrining o'ziga xos belgilari, so'z o'yinlari, latifaning voqeaband, hajman kichik, yumoristik

xarakterdagi hajviy janr ekanligi, xalq qo`shiqlari-o`zbek folklorining qadimiy va keng tarqalgan janrlardan biri, yaratilish davri, ijro o`rni va turi, marosim va marosimga aloqasiz qo`shiqlar, qo`shiqlarning janr xususiyatlari, tasnifi, badiiy xususiyatlari, ma`rifiy va tarbiyaviy ahamiyati, ertakning hayotiy va hayoliy uydirmalar asosiga qurilganligi, didaktik g`oya tashuvchi og`zaki hikoya tushinchasi, o`zbek og`zaki prozasining yetakchi janri, Doston o`zbek folklorining keng tarqalgan va yirik janri, tematikasi, g`oyaviy mazmuni, obrazlar sistemasi, syujet va kompozitsiyasi, "Alpomish"-qadimiy xalq qahramonlik eposi sifatida, variantlari va versiyalar, doston haqidagi munozaralar, nashrlaridagi farqlari, islom dini ta`siri, badiiy xususiyatlari, o`zbek xalq og`zaki ijodida tutgan o`rni va ahamiyati, "Go`ro`g`lining tug`ilishi va bolaligi", "Yunus pari", "Misqol pari", "Ravshan", "Avazxon" dostonlarining g`oyaviy-badiiy xususiyatlari, Bolalar folklori, "Marosim folklori" ning bajarilish o`rni va vazifalari, turlari, "Sust xotin", "Choy momo", "Loy tutish", "Shohmoylar", Mavsum folklorining marosim folkloridan farqi kabi masalalarni har tomonlama tushinib, mohiyatini anglab yetsa, tasavvurlarini tushuntirib bera olsa, dars qoldirmagan, avvalgi nazorat turlarini to`la topshirgan, vazifalarni to`la bajargan, darsda faol qatnashib, mavzuni reja asosida ijodiy yoritgan, adabiy va ilmiy atamalarni izohlay olgan va ular bilan bog`liq tushunchalarni anlay olgan, nazariy ma`lumotlarni badiiy materialga tatbiq qila olgan bo`lsa, mavzuga oid badiiy matnlardan yod bilsa belgilangan ballning **86-100 %** miqdorida, ya`ni **22-25ball** bilan baholanadi.

2. Agar talaba "Folklor" termini haqida, xalq og`zaki badiiy ijodi tarixi va uning asosiy janrlari, asosiy xususiyatlari: kollektivlik, og`zakilik, variantlilik, ommaviylik, an`anaviylik, anonimlik, O`rta Osiyo xalqlari qadimgi folklorlari, Turkiy xalqlar mifologiyasi, Mif (asotir) atamasi, "Avesto"ning mifologik asoslari, O`rxun-enasoy bitiklarida folklor mativlari, Totemizim, fetishizm, antimizm tushunchalari, Afsona va rivoyatlar, Qahramonlik afsonalari, "To`maris" va "Shiroq", Afsonalarda Vatan tuyg`usi, rasm-rusumlar, geografik nomalar, tarixiy voqealarning izohlanishi, maqolning janr xususiyatlari, badiiy xususiyatlari, topishmoqlarning ma`rifiy, estetik va tarbiyaviy ahamiyati, janr xususiyatlari, badiiy xususiyatlari, askiya janri, so`z o`yinlari, latifaning voqeaband, hajman kichik, yumoristik xarakterdagi hajviy janr ekanligi, xalq qo`shiqlari, yaratilish davri, ijro o`rni va turi, marosim va marosimga aloqasiz qo`shiqlar, janr xususiyatlari, tasnifi, badiiy xususiyatlari, ahamiyati, ertakning hayotiy va hayoliy uydirmalar asosiga qurilganligi, didaktik g`oya tashuvchi og`zaki hikoya tushinchasi, doston keng tarqalgan va yirik janr, tematikasi, g`oyaviy mazmuni, obrazlar sistemasi, syujet va kompozitsiyasi, "Alpomish" dostoni variantlari va versiyalar, badiiy xususiyatlari, o`rni va ahamiyati, "Go`ro`g`lining tug`ilishi va bolaligi", "Yunus pari", "Misqol pari", "Ravshan", "Avazxon" dostonlari, Bolalar folklori, "Marosim folklori" ning bajarilish o`rni va vazifalari, turlari, "Sust xotin", "Choy momo", "Loy tutish", "Shohmoylar", mavsum folklorining marosim folkloridan farqi kabi masalalar haqida umumiy tasavvurga ega bo`lsa, tasavvurlarini tushuntirib bera olsa, dars qoldirmagan, avvalgi nazorat turlarini to`la topshirgan, vazifalarni to`la bajargan, darsda faol qatnashib, mavzuga tegishli ilmiy yoki adabiy atamalarni izohlay olgan, biroq mavzuga oid atamalarni va ular

bilan bog'liq ta'riflarni chala bilgan, mavzuga oid matndan qisman yod bilgan talabalarga belgilangan ballning **71-85 %** miqdorida, ya'ni **19-21 ball** bilan baholanadi.

3. Agar talaba Folklor termini, janrlari, asosiy xususiyatlari, O'rta Osiyo xalqlari qadimgi folklorlari, Turkiy xalqlar mifologiyasi, Mif, Totemizm, fetishizm, antimizm tushunchalari, Afsona va rivoyatlar, "To'maris" va "Shiroq", maqol, topishmoq, askiya, so'z o'yinlari, latifa, xalq qo'shiqlari, ertak, didaktik g'oya tashuvchi og'zaki hikoya, doston, "Alpomish" dostoni, "Go'ro'g'lining tug'ilishi va bolaligi", "Yunus pari", "Misqol pari", "Ravshan", "Avazxon" dostonlari, Bolalar folklori, "Marosim folklori", "Sust xotin", "Choy momo", "Loy tutish", "Shohmoylar", mavsum folklorining marosim folkloridan farqi kabi masalalar haqida qisman tasavvurga ega bo'lsa, dars qoldirmagan, avvalgi nazorat turlarini to'la topshirgan, vazifalarni bajargan, mavzuni reja asosida yoritgan, lekin o'quv materialiga ijodiy yondashishga qiynalgan, mavzuga doir adabiy yoki ilmiy atamalarni izohlashda qiynalgan, badiiy matndan chala yod bilgan, darsda sust qatnashgan talabalarga belgilangan ballning **55-70 %** miqdorida, ya'ni **15-18 ball** bilan baholanadi.

4. Agar talaba yuqoridagi mavzularni umuman o'zlashtirmagan, ko'p dars qoldirgan, avvalgi nazorat turlarini topshirmagan, uy vazifalarini bajarmagan bo'lsa belgilangan ballning **0-54 %** miqdorida, ya'ni **0-14 ball** bilan baholanadi.

MUSTAQIL ISH uchun

Talabalarga mustaqil ish uchun quyidagi mavzular doirasida topshiriqlar beriladi:

1. Xalq og'zaki poetik ijodi haqida umumiy ma'lumot.
 2. Xalq og'zaki poetik ijodining o'ziga xos xususiyatlari.
 3. Qadimgi davr folklori .Xalq afsonalari.
 4. Maqol va matallar.
 5. Topishmoqlar.
 6. Askiya va so'z o'yinlari.
 7. Latifalar.
 8. Xalq qo'shiqlari.
 9. O'zbek xalq ertaklari.
 10. Xalq dostonlari.
 11. "Alpomish" dostoni.
 12. "Go'ri'g'li" dostonlar turkumi.
 13. Bolalar folklori.
 14. O'zbek marosim folklori.
4. Talaba berilgan topshiriq asosida qiyosiy fikr bildirgan tegishli xulosa chiqargan bo'lsa belgilangan ballning **86-100 %** miqdorida, ya'ni **9-10 ball** bilan baholanadi.
5. Talaba berilgan topshiriq asosida nazariy savollarga to'liq javob bergan, ammo to'liq tahlil qila olmagan bo'lsa belgilangan ballning **71-85 %** miqdorida, ya'ni **7-8 ball** bilan baholanadi.
6. Talaba berilgan topshiriq asosida nazariy savollarga javob bergan ammo mustaqil fikr lay olmagan bo'lsa belgilangan ballning **56-70 %** miqdorida, ya'ni **5-6 ball** bilan baholanadi.
7. Talaba berilgan topshiriq asosida nazariy savollarga qisman javob bergan, misollar keltira olmagan bo'lsa belgilangan ballning **0-55 %** miqdorida, ya'ni **0-6 ball** bilan baholanadi.

III. YAKUNIY NAZORAT uchun

Izoh: yakuniy nazoratga faqat joriy va oraliq nazoratlardan o'tgan talabalar qo'yiladi.

Talabalarning o'zbek xalq og'zaki ijodi fani bo'yicha olgan bilimlari quyidagi savollar asosida tuzilgan bir necha variant asosida baholanadi:

- 1.Folklor atamasi qanday ma'noni anglatadi ?
- 2.Xalq og'zaki badiiy ijodi nima?
- 3.Folklorning boshqa fanlar bilan aloqasi.
- 4.Folklorshunos olimlar aloqa so'zlang.
- 5.Folklorshunoslikning shakllanishi va taraqqiyoti.
- 6.Folklorning ijtimoiy mohiyati.
- 7.Folklrning o'ziga xos belgilari.
- 8.Andijonlik folklorshunos olimlar.
- 9.Baxshi atamasi aloqa
- 10.Mifologiya nima?
- 11."Avesto"kitobi va folklor.
- 12.Tush va timsol.
- 13.Folklor janrlari aloqa.
- 14.Folklordagi kichik janrlar.
- 15."Avesto"dagi timsollar
- 16.Maqlol va matallar.
- 17.Mifologik obrazlar
- 18.Maqqollar tasnifi.
- 19."Devonu lug'otit turk" asari aloqa.
- 20.Qiziqchilik va masxarabozlik.
- 21.Topishmoqlar va tezaytishlar.
- 22.Topishmoqlardagi badiiy vositalar.
- 23.Og'zaki dramalar aloqa.
- 24.Qo'qon qiziqchilik maktabi.
- 25.Folklorda satira va yumor.
- 26.Folklorning lirik janrlari.
- 27.Folklorning epik janrlari.
- 28.Latifa va loflar aloqa
- 29.Latifada obrazlilik va voqelik.
- 30.Latifalarni o'rgangan olimlar.
- 31.Qo'shiq termini aloqa.
- 32.Qo'shiqlar tasnifi.
- 33.Mavsum va marosim Qo'shiqlari.
- 34.Hunarmandchilik Qo'shiqlari.
- 35.Dehqonchilik bilan bog'liq Qo'shiqlar
- 36.Chorvachilik bilan bog'liq Qo'shiqlar
- 37.Lirik Qo'shiqlar aloqa.
- 38.To'y marosimlari bilan bog'liq Qo'shiqlar.
- 39.Xalq afsun-duolari aloqa.

- 40.Doston termini aloqa.
- 41.Xalq dostonlari tasnifi.
- 42.Dotonchilik maktablari aloqa.
- 43.Doston kuylash tartibi.
- 44.Qahramonlik dostonlari.
- 45.Romantik dostonlar.
- 46.Kitobiy dostonlar.
- 47.Tarixiy dostonlar.
- 48.Jangnoma dostonlar.
- 49."Alpomish " dostonini o'rganagan olimlar.
- 50.Xalq baxshilari aloqa.
- 51."Alpomish" dostoni timsollari, g'oyasi.
- 52.Dostonlar kompozitsiyasi.
- 53.Ertak atamasi.
- 54.Dostonlarda makon va zamon.
- 55.Ertaklar tasnifi.
- 56.Go'ro'qli turkumi dostonlari aloqa.
- 57.Folklor va yozma adabiyot
- 58.O'zbek realistik prozasida folklor.
- 59.Bolalar folklori.

1. Agar talaba o'ziga berilgan variant savollarining barchasiga to'la va atroflicha javob bera olsa, o'z tushunchalarini izohlay olsa, belgilangan ballning **86-100 %** miqdorida, ya'ni **25-30 ball** bilan baholanadi.
2. Agar talaba o'ziga berilgan variant savollarining barchasiga umumiy tushunchaga ega bolgan holda javob bera olsa, biroq tushunchalarini izohlashga bir oz qiynalsa belgilangan ballning **70-85 %** miqdorida, ya'ni **21-24 ball** bilan baholanadi.
3. Agar talaba o'ziga berilgan variant savollariga qisman tasavvurga ega bo'lgan holda qoniqarli tarzda javob bersa, lekin o'quv materialiga ijodiy yondashishga qiynalsa, mavzuga doir adabiy yoki ilmiy atamalarni izohlashda qiynalsa, ayrim xatoliklarga yo'l qo'ysa belgilangan ballning **55-70 %** miqdorida, ya'ni **16-20 ball** bilan baholanadi.
4. Agar talaba o'ziga berilgan variant savollariga tasavvurga ega bo'lmasa, savollarga javob bermasa belgilangan ballning **0-54 %** miqdorida, ya'ni **0-15 ball** bilan baholanadi va fanni o'zlashtirmagan hisoblanadi.

Izoh: Fanlardan o'tkaziladigan yakuniy nazorat ishiga faqat 55% dan yuqori ball to'plagan talabalar qo'yiladi.

**O'qitishda ta'limning kompyuter axborotlashtirish va boshqa
zamonaviy texnologiyalarning qo'llanilishi hamda informatsiyon-uslubiy
ta'minoti**

“O‘zbek xalq og‘zaki ijodi” faniga oid darslik va o‘quv qo‘llanmalari, dissertatsiya va monografiyalar, internet ma‘lumotlari, jumladan, literatura.uz , islom.uz kabi saytlaridagi ma‘lumotlar dasturning informatsion-metodik ta‘minotini tashkil etadi.

Dasturdagi mavzularni o‘tishda ta‘limning zamonaviy metodlaridan keng foydalanish, o‘quv jarayonini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish samarali natija beradi. Bu borada zamonviy zamonaviy pedagogik texnologiyalarning “Bumerang”, “Fikrlar hujumi”, “Tarozi” texnologiyasining “Munozarali dars”, “Debat” metodlari, shuningdek “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi” faniga oid slaytlar, korgazmalardan foydalanish, didaktik o‘yin usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Darslik va o‘quv qo‘llanmalar ro‘yxati

Asosiy

1. K.Imomov, N.Mirzaev, B.Sarimsoqov, O.Safarov. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. - T.: O‘qituvchi, 1990.
2. Jirmunskiy V.M., Zarifov X.Z. Uzbekskiy narodnyy geroicheskiy epos. -M.: GIXL, 1947.
3. O‘zbek folklor ocherklari. -T.: “Fan” 1987

Qo‘shimcha

1. Oq olma, qizil olma. -T.: 1972. G‘ofur G‘ulom nashriyoti
2. Gulyor. Farg‘ona qo‘shiqlari. -T.: 1962. G‘ofur G‘ulom nashriyoti
3. Latifalar.-T.: 1985. G‘ofur G‘ulom nashriyoti
4. Oltin beshik, -T.: 1985. G‘ofur G‘ulom nashriyoti
5. O‘zbek xalq ertaklari.-1989. G‘ofur G‘ulom nashriyoti
6. O‘zbek xalq maqollari.-T.: “Fan”, 1988
7. Topishmoqlar. -T.: 1983. G‘ofur G‘ulom nashriyoti
8. Alpomish. Doston.-T.: 2000. G‘ofur G‘ulom nashriyoti
9. Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi. -T.: 1972. G‘ofur G‘ulom nashriyoti
- 10.Ravshan. T.: 1976. G‘ofur G‘ulom nashriyoti
- 11.Kuntug‘mish. -T.: 1976. G‘ofur G‘ulom nashriyoti
- 12.Sarimsoqov B. O‘zbekmarosim folklori.-T.: “Fan” 1986.
- 13.Alaviya Muzayana. O‘zbek xalq marosim qo‘shiqlari -T.: “fan” 1974
- 14.Imomov K. O‘zbek xalq og‘zaki prozasi. -T.: “fan” 1981.
- 15.Jalolov G‘. O‘zbek xalq ertaklari poetikasi, -T.: “Fan” 1976.
- 16.Yo‘ldosheva F. O‘zbek materiallarida Nasriddin afandi obrazi. -T.: “fan” 1979.
- 17.Saidov M. O‘zbek xalq dostonchiligida badiiy mahorat. -T.: “Fan” 1969.
- 18.Madaev O. “Alpomish” bilan suhbat. -T.: “Ma‘naviyat” 2000.
- 19.Yo‘ldoshev Q. “Alpomish talqinlari” -T.: “Ma‘naviyat” 2001.
- 20.Muhammadiy R. Askiya. -T.: G‘ofur G‘ulom nashriyoti.1962.
- 21.Husainova Z. O‘zbek topishmoqlari, -T.: “Fan” 1966.
- 22.O‘gal B. Turk mifologiyasi. - Anqara. 1992.

23. Mamasoli Jumaboev O'zbek va chet el bolalar adabiyoti. -T.: "Manfviyat", 2001.
24. Jo'raev M. "Oy oldida bir yulduz" -T.: "Fan" 2000.
25. Murodov M. Erashev A. "Alpomishnoma" - T.: Sharq matbaa-nashriyot konsterni 2001
26. S.Mirzayeva. O'zbek xalq romanik dostonlari poetikasi. -T.: "Fan" 2004.
27. S.Mirzayeva. O'zbek xalq afsun-duolarining janr xususiyatlari va badiiyati. -T.: "Istiqlol". 2006.
28. J.Eshonqul. Folklor va obraz. Qarshi "Nasaf". 2004.

II BO`LIM

- **« XALQ OG`ZAKI POETIK IJODI » FANIDAN
TA`LIM TEXNOLOGIYASINING KONSEPTUAL
ASOSLARI**
- **«XALQ OG`ZAKI POETIK IJODI» FANIDAN
MA`RUZA, AMALIY VA SEMINAR
MASHG`ULOTLARIDA O`QISH
TEXNOLOGIYASI**

« XALQ OG`ZAKI POETIK IJODI » fani bo'yicha ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlarida ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqishning konseptual asoslari

Ta'lim texnologiyasi insoniylik tamoyillariga tayanadi. Falsafa, pedagogika va psixologiyada bu yo'nalishning o'ziga xosligi talabaning individualligiga alohida e'tibor berish orqali namoyon bo'ladi.

Shulardan kelib chiqqan xolda, «Xalq og'zaki poetik ijodi» kursining ta'lim texnologiyalarini loyihalashtirishda quyidagi asosiy konseptual yondashuvlarga e'tibor berish kerak.

Ta'limning shaxsga yo'naltirilganligi. Oz mohiyatiga ko'ra bu yo'nalish ta'lim jarayonidagi barcha ishtirokchilarning to'laqonli rivojlanishini ko'zda tutadi. Bu esa Davlat ta'lim standarti talablariga rioya qilgan xolda o'quvchining intellektual rivojlanishi darajasiga yunaltilib kolmay, uning ruxiy-kasbiy va shaxsiy xususiyatlarini xisobga olishni xam anglatadi.

- **Tizimli yondashuv.** Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini uzida mujassam qilishi zarur. Jarayonning mantiqiylik, undagi kislmlarning uzaro alokadorligi, yaxlitligi.

- **Amaliy yondashuv.** Shaxsda ish yuritish xususiyatlarini shakllantirishga ta'lim jarayonini yunaltirish, o'quvchi faoliyatini faollashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha layokati va imkoniyatlarini, sinchkovligi va tashabbuskorligini ishga solishni shart qilib kuyadi.

- **Dialogik yondashuv.** Ta'lim jarayonidagi ishtirokchi sub'ektlarning psixologik birligi va uzaro xamkorligini yaratish zaruratini belgilaydi. Natijada esa, shaxsning ijodiy faolligi kuchayadi.

- **Xamkorlikdagi ta'limni tashkil etish.** Demokratiya, tenglik, sub'ektlar munosabatida ukituvchi va o'quvchining tengligi, maqsadini va faoliyat mazmunini ,bhufkbrlf aniqlashni kuzda tutadi.

- **Muammoli yondashuv.** Ta'lim jarayonini muammoli holatlar orqali namoyish kili shorqali o'quvchi bilan birgalikdagi xamkorlikni faollashtirish usullaridan biridir. Bu jarayonda ilmiy bilishning ob'ektiv ziddiyatlarini aniqlash va ularni hal qilishning dialektik, tafakkurni rivojlantirish va ularni Amaliy faoliyatda ijodiy ravishda qo'llash ta'minlanadi.

- **Axborot berishning eng Yangi vosita va usullaridan foydalanish,** ya'ni o'quv jarayoniga kompyuter va axborot texnologiyalarini jalb qilish.

Yukoridagi konseptual yondashuv va «Xalq og'zaki poetik ijodi» fanining tarkibi, mazmuni, o'quv axborot xajmidan kelib chikkan xolda o'qitishning kuyidagi usul va vositalari tanlab olindi:

- **O'qitish usullari va texnikasi :** mulokot, muammoli usul, urgatuvchi uyinlar, «akliy xujum», insert, «birgalikda urganamiz», pinbord, ma'ruza (kirish ma'ruzasi, vizual ma'ruza, tematik, ma'ruza-konfrknsiya, aniq holatlarni yechish, avvaldan rejalashtirilgan xatoli, sharxlovchi, yakuniy ma'ruzalar).

- **O'qitishni tashkil qilish shakllari:** frontal, kollektiv, guruhiiy, dialog, polilog va uzaro xamkorlikka asoslangan.

- **O'qitish vositalari:** odatdagi o'qitish vositalari(darslik, ma'ruza matni, tayanch konspekti)dan tashkari grafik organayzerlar, kompyuter va axborot texnologiyalari.

- **Uzaro aloka vositalari:** nazorat natijalarining tahlili asosida o'qitishning diagnostikasi(tashxisi).

- **Boshkarishning usul va vositalari.** O'quv mashg'ulotini texnologik karta kurinishida rejalashtirish o'quv mashg'ulotining bosqichlarini belgilab, kuyilgan maqsadga erishishda o'quvchi va ukituvchining xamkorlikdagi faoliyatini talabalarning auditoriyadan tashkari mustaqil ishlarini aniqlab beradi.

- **Monitoring va baholash.** O'quv mashg'uloti va butun kurs davomida o'qitish natijalarini kuzatib borish, o'quvchi faoliyatini xar bir mashg'ulot va yil davomida reyting asosida baholash.

Ma'ruza mashg'ulotini tashkil etishning shakl va xususiyatlari:

№	Ma'ruza shakllari	Uziga xos tavsiflovchi xususiyatlari
1	Kirish ma'ruzasi	Fan tugrisida yaxlit tasavvur xamda ma'lum yunalishlar beradi. Pedagogik vazifasi: o'quvchini ushbu fanning vazifalari va maqsadi Bilan tanishtirish, kasbiy tayyorgarlik tizimida uning urn iva rolini belgilash, kursning kiskacha sharxini berish, fanning yutuklari va taniqli olimlar nomlari Bilan tanishtirib, kelajakdagi izlanishlarning yunalishini belgilash, tavsiya qilingan o'quv-uslubiy adabiyotlar tahlilini berish, xisobot va baholashning muddatlari va shakllarini belgilash.
2	Ma'ruza-axborot	Ma'ruzaning odatdagi an'anaviy turi. Pedagogik vazifasi: o'quv ma'lumotlarini bayon kili shva tushuntirish.
3	Sharxlovchi ma'ruza	Bayon kilinayotgan nazariy fikrlarning uzagini, ilmiy tushunchalar va butun kurs yoki bulimlarning konseptual asosini tashkil etadi. Pedagogik vazifasi: ilimiy bilimlarni tizimlashtirishni amalga oshirish, fanlarning uzaro alokadorligini ochish.
4	Muammoli ma'ruza	Yangi bilimlar kuyilgan savol, masala, holatning muammoliligi orqali beriladi. Bunda o'quvchining ukituvchi Bilan birgalikdagi bilish jarayoni ilmiy izlanishga yakinlashdi. Pedagogik vazifasi: yangi o'quv axborotining mazmunini ochish, muammoni kuyish va uning yechimini topishni tashkil kilish, Hozirgi zamon karashlarini tahlil kilish.
5	Vizual ma'ruza	Ma'ruzaning mazkur shakli vizual materiallarni namoyish etish xamda ularga aniq va kiska sharxlar berishga karatilgan. Pedagogik vazifasi: yangi o'quv ma'lumotlarini o'qitishning texnik vositalari va audio, videotexnika yordamida berish.
6	Binar(ikki kishilik) ma'ruza	Bu ma'ruza ikki ukituvchining yoki ikkita ilmiy maktab namoyandasining, ukituvchi-talabaning dialogidan iborat. Pedagogik vazifasi: yangi o'quv ma'lumotlarining mazmunini yoritish.
7	Avvaldan rejalashtirilgan xatoli ma'ruza	Xatolarni izlashga muljallangan mazmuni va uslubiyatida, ma'ruza oxirida tinglovchilar tashxisi utkaziladi va qilingan xatolar tekshiriladi. Pedagogik vazifasi: yangi m aterillar mazmunini yoritish, berilgan ma'lumotni doimiy nazorat kilishga urgatish.
8	Ma'ruza-konferensiya	Avvaldan kuyilgan muammo va dokladlar tizimi(5-10 minut) dan iborat ilmiy-amaliy dars sifatida o'quv dasturi chegarasida utiladi. Dokladlar birgalikda muammoni xar tomonlama yoritishga karatilishi kerak. Mashg'ulot oxirida ukituvchi mustaqil ishlar va talabalarning ma'ruzalariga yakun yasab, tuldirib, aniqlashtirib xulosa kiladi. Pedagogik vazifasi: Yangi o'quv ma'lumotning mazmunini yoritish.
9	Maslaxat ma'ruza	Turli ssenariylar yordamida utishi mumkin. Masalan, 1) «savol-javob» - ma'ruzachi tomonidan butun kurs bo'yicha yoki aloxida bulim bo'yicha savollarga javob beriladi; 2) «savol-javob-diskussiya»- izlanishga imkon beradi. Pedagogik vazifasi: Yangi o'quv ma'lumotni uzlashtirishga karatilgan.

1. «Xalq og`zaki poetik ijodi» fanining dolzarbligi va ahamiyati .

Umumiy o`rta va o`rta maxsus ta`lim bo`g`inlarida “Ona tili” va “Xalq og`zaki poetik ijodi” fanlarining o`qitish maqsadi, usuli va mazmuni tamoman yangilangan va yangi maqsadlarga yo`naltirilgan. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 343-qarori bilan Oliy ta`lim DTS lari Asosiy qoidalarini tasdiqlandi; yo`nalish va mutaxassislik DTS lari ma`qullandi. Shuning uchun oldimizda turgan muhim vazifalardan biri oliy ta`limning bakalavriat bo`g`inida o`zbek filologiyasi bo`yicha tayanch oliy ma`lumot berish uchun “Xalq og`zaki poetik ijodi” kursining maqsad, usul va mazmunini yangilash, mukammallashtirish, bo`g`inlar hamda bosqichlararo uzluksizlik va davomiylikni ta`minlashdir. Ushbu qo`llanma mana shu vazifaga xizmat qilmog`i lozim.

“Xalq og`zaki poetik ijodi“ fani bo`lajak mutaxassisni Xalq og`zaki poetik ijodi me`yorlari, qonuniyatlari bilan qurollantiradi. Tilshunosligimizda shakllangan zotiy tahlil usuli ona tilimizning ichki imkoniyatlarini ochib beradi va har bir til hodisasi umumiylik, mohiyat, imkoniyat, sabab (UMIS) va xususiylik (yakka), hodisa, voqelik, oqibat (YaHVO) dialektikasi nuqtai nazaridan tahlil etilishi kerakligini uqtiradi. Shuning uchun bu bosqichda “Xalq og`zaki poetik ijodi “ UMIS va YaHVO (lison-me`yor-nutq) hodisalarining izchil farqlanishi va dialektik birligiga tayanadi. Bu esa talabalardan dialektikani, dialektik tafakkur va tahlilni chuqur bilishni taqozo qiladi.

Xalq og`zaki poetik ijodi fanidan o`tiladigan mavzular bo`yicha mashg`ulot turlariga ajratilgan soatlarning taqsimoti

t.r	Fanning bo`limi va mavzusi, ma`ruza mazmuni	s o a t l a r				
		jami	ma`ruza	amaliy	Labora toriya	semi nar
1	KIRISH Xalq og`zaki poetik ijodi haqida umumiy ma`lumot Xalq og`zaki poetik ijodining o`ziga xos xususiyatlari	5	2	-	-	2
2	Qadimgi davr folklori Xalq afsonalar	4	2	-	-	2
3	Maqol va matallar	6	2	2	-	2
4	Topishmoqlar	4	2	2	-	-
5	Askiya va so`z o`yinlari Latifalar	4	2	2	-	2
6	Xalq qo`shiqlari	6	2	2	-	2
7	O`zbek xalq ertaklari	4	2	2	-	-
8	Xalq dostonlari	4	1	-	-	2
9	“Alpomish” dostoni	4	2	2	-	2
10	“Go`ri`g`li” dostonlar turkumi	6	2	2	-	2
11	Bolalar folklori	6	2	2	-	2
12	O`zbek marosim folklori	4	2	-	-	2
	Jami:	58	24	16	-	18

“TASDIQLAYMAN”

Kafedra mudiri _____ f.f.d. S.Mirzaeva
 “ _____ ” _____ 2012-2013 yil

DASTUR BAJARILISHINING TAQVIMIY ISH REJASI

Fakultet FILOLOGIYA **Kurs 1. Akademik guruh** A,B

Fanning nomi: Xalq og‘zaki poetik ijodi

Ma’ruza o‘qiydi: f.f.d. S.Mirzaeva

Maslahat va amaliy mashg‘ulotlarni olib boradi: assistent N.Shermatova

№	Mashg‘u- lot turi	Mavzular	Ajra tilgan soat	Bajarilgani haqida ma’lumot		O‘qi tuvchi imzosi
				Oy va kun	Soat soni	
1	ma’ruza	Xalq og‘zaki poetik ijodi xaqida umumiy ma’lumot.Xalq og‘zaki poetik ijodining o‘ziga xos xususiyatlari	2			
2	ma’ruza	Qadimgi davr folklori Xalq afsonalari	2			
3	ma’ruza	Maqol va matallar	2			
4	ma’ruza	Topishmoqlar	2			
5	ma’ruza	Askiya va so‘z o‘yinlari Latifalar	2			
6	ma’ruza	Xalq qo‘shiqlari	2			
7	ma’ruza	O‘zbek xalq ertaklari	2			
8	ma’ruza	Xalq dostonlari	2			
9	ma’ruza	"Alpomish" dostoni	2			
10	ma’ruza	"Go‘ro‘g‘li" dostonlar turkumi	2			
11	ma’ruza	Bolalar folklori	2			
12	ma’ruza	O‘zbek marosim folklori	2			
		Jami	24			

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

TILSHUNOSLIK KAFEDRASI

«Xalq og`zaki ijodi» fanidan

ma'ruza matnlari

(Bakalavr yo`nalishi kunduzgi bo`lim
I bosqich talabalari uchun)



Andijon - 2012

«O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi» kursidan tayyorlangan ma’ruza matnlari Andijon davlat universiteti «O‘zbek adabiyoti» kafedrasining___sonli yig‘ilishida tasdiqlangan.

Tuzuvchi: f.f.d. S.Mirzaeva

Taqrizchi: f.f.n. B.Rahmonov

KIRISH

Folklor asarlari o'zining hayotiyligi, ijtimoiy tabiati, g'oyaviy mohiyati hamda o'ziga xos badiiy xususiyatlari bilan ajralib turishi. Xalqning mehnati urf-odati, turmush sharoiti, orzu-istagi, kurash va g'alabalari uning temasi va g'oyaviy mazmunida aks etganligi.

Madaniy-ma'naviy merosi boy xalqning istiqboli porloq, xalqaro nufuzi yuksak bo'ladi. Asrlar mobaynida xalqning hayotiy kuzatishlari, turmush tajribalari asosida, olamni poklik, adolat va hayotsevarlik nigohi bilan ko'rish ishtiyoqida yaratilgan ma'naviy qadriyatlarimiz o'zining mustaqillikka erishgan mamlakatimiz bugungi hayotida har bir insonning qalbiga harorat, ongiga teranlik bag'ishlashi tabiiy. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi ma'naviyatimizning ana shunday sarchashmalaridan hisoblanadi.

O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi ajdodlarimiz badiiy salohiyatining asrlar mobaynidagi taraqqiyoti davomida shakllangan qudratli ma'naviyat xazinasidir. Zukko ajdodlarimizning voqelikka bo'lgan mifologik qarashlari tafakkur taraqqiyoti davomida badiiy-estetik hodisaga aylanib, voqelikni so'z vositasida poetik ifodalash natijasida xilma-xil janrlardan tarkib topgan folklor an'analari shakllangan. Folklor an'analari asrlar davomida xalq badiiy salohiyati sarchashmasidan oziqlanib, rivojlanib kelgan.

Bu ma'naviy qadriyatlarimizni jahonga tanitishda o'zbek folklorshunoslar ulkan ishlarni amalga oshirdi va oshirmoqdalar. Shuning uchun mamlakatimiz Prezidenti I. A. Karimov ilmu fan sohasida O'zbekistonda yaratilgan "jahon darajasidagi ilmiy maktablar" haqida so'zlay turib, "o'zbek tili, adabiyoti va folklorining tarixiy va hozirgi rivojlanishining har tomonlama tadqiq qilish" maktablarini ham faxr bilan qayd etadi.

Folklor asarlarining xalqchilik xususiyati, ularning hayotiyligi va qaysi bir dunyoqarashini himoya qilishi bilan bog'langanligi. Bu xususiyat, asosan, folklor asarlarida mavjud bo'lgan bosh g'oyaning mohiyatidan kelib chiqishi. Folklor asarlari o'ziga xos badiiy qolip - andozaga ham egaligi. Ayniqsa, ertak va

dostonlarda mavjud syujet va kompozitsiya hikoya qilish uslubi xarakterli bo'lib, har ikki janrga xos syujet voqealari doimo o'ziga xos boshlanma va tugallanmaga ega bo'lishi xususida. Bunday xususiyat yozma adabiyotda uchramasligi.

Xalq og'zaki ijodining o'z ijodiy metodi mavjudligi. Uni shartli ravishda romantizm tipidagi ijodiy metod deyish mumkinligi, chunki folklor asarlarida fantastika, badiiy uydirmalar, hayotiy asos bo'lishi, yo'g'rilgan xayoliy voqea va hodisalar hayotni tasvirlashning o'ziga xos uslubi sifatida namoyon bo'lganligi.

Mavzu: Folklorning o'ziga xos xususiyatlari.

Reja

1. Xalq og'zaki ijodining ijtimoiy mohiyati.
2. Folklorning o'ziga xos belgilari.
3. Variantlilik, og'zakilik xususiyatlari.
4. Anonimlik va kollektivlik xususiyatlari.
5. Og'zaki ijod va yozma adabiyot.

Folklor asarlari o'zining hayotiyliigi, ijtimoiy tabiati, g'oyaviy mohiyati hamda o'ziga xos badiiy xususiyatlari bilan ajralib turadi. Xalqning mehnati, urf-odati, turmush sharoiti, orzu-istagi, kurash va g'alabalari uning temasi va g'oyaviy mazmunida aks etadi. Hatto fantastik uydirmalar asos bo'lgan asarlarda ham voqea-hodisalar xalq tushunchalari va dunyoqarashi bilan uzviy bog'langan. Folklor asarlarining xalqchilik xususiyati ularning hayotiyliigi va qaysi bir dunyoqarashni himoya qilishi bilan bog'lanadi. Bu xususiyat, asosan, folklor asarlarida mavjud bo'lgan bosh g'oyaning progressiv mohiyatidan kelib chiqadi. Folklor asarlari o'ziga xos badiiy qolip-andozaga ham ega. Ayniqsa, ertak va dostonlarda mavjud syujet va kompozitsiya hikoya qilish uslubi xarakterli bo'lib, har ikki janrga xos syujet voqelari doimo o'ziga xos boshlanma va tugallanmaga ega bo'ladi. Bunday xususiyat yozma adabiyotda uchramaydi. Bir holatdan ikkinchi holatga o'tishda doimiy barqaror momentlar, voqealarning uch marta takrorlanishi kabi kompozitsiya elementlari mavjud, qahramonlar xarakterini ochishda psixologik tasvir nihoyatda kam. Xalq og'zaki ijodining o'z ijodiy metodi mavjud. Uni shartli ravishda romantizm tipidagi ijodiy metod deyish mumkin. Chunki folklor asarlarida fantastika, badiiy uydirmalar, hayotiy asosga bo'lgan yo'g'rilgan xayoliy voqea va hodisalar hayotni tasvirlashning o'ziga xos uslubi sifatida namoyon bo'ladi.

Xalq og'zaki poetik ijodining asosiy xususiyati ijodiy jarayon-yaratuvchilik va ijrochilik jarayonining kollektivlik xarakteriga egaligidir. Uning og'zakilik, variantlilik, ommaviylik, traditsionlik, anonimlik kabi belgilarini kollektivlik tomonidan yaratilgan poetika elementlari, an'anaviy uslub vositalari asosida yuzaga

keladi. U muayyan eshituvchilar guruhiga mo'ljallangan bo'ladi va kollektiv tomonidan e'tirof etilgandagina ijtimoiy va tarixiy ahamiyat kasb etadi. Folklor namunalari og'zaki yaratilib, og'zaki tarqalar, ommaviy repertuardan keng o'rin olar ekan, bunga poetik formalarning barqarorligi, tekstdan tekstga o'tuvchi umumiy o'rinlarning mustahkamligi, o'xshash syujetlarning ko'pligi imkoniyat yaratadi. Xalq og'zaki poetik ijodining kollektivlik xarakteri individual ijodchilar faoliyatini inkor etmaydi. Iste'dodli ijodkorlar folklor namunalarini saqlab qolishi va keng ommalashtirish bilan birga og'zaki an'analari doirasida uni yanada mukammallashtiradi, yangilarini yaratadilar. Biroq bunda qat'iy va barqarorlashgan kollektivlik an'analari yetakchilik qiladi. Folklor janrlari g'oyaviy-tematik va badiiy xususiyatlari bilangina emas, balki ijro usullari (yakka ijrochilik, kollektiv ijrochilik sozli, sozsiz kabi) jihatidan ham farq qiladilar.

Variantlilik kollektivlik tufayli yuzaga keladi. Folklor asarlari makondan makonga, zamondan zamonga o'tib borishi natijasida ularning biroz farqli variantlari paydo bo'ladi. Masalan, bir ertakni eshitgan odam uni boshqa joyga borib, yoki bir necha oy, yildan so'ng aynan eshitganidek hikoya qila olmaydi. Ayrim qisqartirish va kengaytirishlar, nomlardagi o'zgarishlar bilan voqealarni o'z dunyoqarashiga moslab ham o'zgartirish mumkin. Ayrim so'z san'atkorlari o'zlari eshitgan ertaklarning g'oyasini saqlagan holda voqealarni yangilashlari mumkin. Bundan tashqari ba'zi dostonlarning to'la matnlari saqlanib qolmasdan, ularning mazmuni ertaklar kabi shakl olishi mumkin.

Yozma adabiyot og'zaki adabiyot zaminida shakllanganligini isbotlovchi dalillar juda ham ko'p. Yozma adabiyot shakllana boshlagan davrdan shu bugungi kunga qadar ham u yozma adabiyotning boyishiga rivojlanishiga hissa qo'shib keladi.

Bugungi kunda o'zbek folklorshunosligining nazariy ufqlari g'oyatda kengaygan, xalq ijodi namunalarini to'plash, nashr etish va folklor amaliyotida jiddiy yutuqlarga erishilayotgan ekan, bunda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti Folklor bo'limining ilmiy tadqiqotchilik faoliyati muhim o'rin tutadi. Bo'limning tashkiliy negizlari o'zbek folkloristikasining asoschisi H.T.Zarifov tashabbusi va bevosita ishtiroki bilan 1928 yilda tashkil etilgan

O'zbekiston Respublikasi maorif xalq komissarligi ilmiy sho'rosining o'zbeklarni o'rganish qo'mitasi huzuridagi Etnografiya, folklor va arxeologiya bo'yicha ilmiy tekshirish kabinetidan boshlanadi.¹

Tayanch so'z va iboralar

1. Folklorning ijtimoiy mohiyati.
2. Folklorning o'ziga xos belgilari. Og'zakilik, variantlilik, anonimlik.
3. Og'zaki ijod va yozma adabiyot.

Adabiyotlar:

1. K. Imomov, T.Mirzaev, B.Sarimsoqov, O.Safarov. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. T., O'qituvchi, 1990 y.
2. Jirmunskiy V.M., Zarifov X.Z. Uzbekskiy narodnyy geroicheskiy epos. -M.: GIXL, 1947.
3. O'zbek folklor ocherklari. T., Fan, 1987
4. D.O'raeva. Motam marosim folklori. T., «Fan», 2005 y.
5. O'zbek xalq afsun-duolarining janr xususiyatlari va badiiyati. T., «Istiqlol», 2006 y

Savol va topshiriqlar.

1. Folklor atamasi qanday ma'noni anglatadi ?
2. Xalq og'zaki badiiy ijodi nima?
3. Folklorning boshqa fanlar bilan aloqasi.
4. Folklorshunos olimlar aloqa so'zlang.
5. Folklorshunoslikning shakllanishi va taraqqiyoti.
6. Folklorning ijtimoiy mohiyati.
7. .Folklrning o'ziga xos belgilari.
8. Andijonlik folklorshunos olimlar.

¹ Тўра Мирзаев. Фольклор бўлими. Ўзбек тили ва адабиёти. Тошкент. 2004 йил 1-сон, 3-бет.

Mavzu: Qadimgi davr folklori.

Reja

1. Miflar ibtidoiy jamiyat tafakkurining badiiy in'ikosi sifatida.
2. "Avesto"-qimmatbaho manba. Turkiy yodnomalar.
3. Tush va timsol.
4. Musulmon mifologiyasi asoslari.
5. Musulmon mifologiyasining tarbiyaviy ahamiyati xususida.

Insoniyatning qadimgi avlodlari hayotiy –tabiiy voqea-hodisalarning sabablarini bilish borasida ham bilimga ega emas edilar. Shu boisdan, ular o'zlarining taxminlari asosida tabiat va jamiyat voqealarini sharhlaydilar. Shu asosda turli mifologik obrazlarni yaratganlar. Eng avval kichik hajmdagi naql va miflar, hayol og'ushiga olib kiruvchi ertak va afsonalar yaratildi, mehnat jarayonini ifodalovchi qo'shiqlarning namunalari paydo bo'ldi.

Qadimgi davr folklorlarining asl namunalari bizga qadar saqlanib qolmagan. Turli davrlarda ular turlicha o'zgarishlarga yuz tutgan bo'lishlari kerak. O'rta Osiyo xalqlarining qadimgi folklorlarining ba'zi namunalari ayrim tarixiy, ilmiy asarlarda, yodnomalarda qisman saqlanib qolgan. Milliy qadriyatlar umuminsoniy qadriyatlar bilan qancha ko'p uyg'unlashgan bo'lsa, ularning taraqqiy etishiga shuncha ko'p va keng imkoniyatlar ochiladi. Bu hayotiy haqiqatdir. Shu boisdan, biz qadimgi turkiy va forsiy mifologiya namunalari o'rganishdan oldin aynan mana shunday xarakterdagi asarlar dastlab qaerda paydo bo'lganligi, ularning mazmun va mohiyati ularda ilgari surilgan umuminsoniy g'oyalar bilan ham tanishmog'imiz kerak.

Miflar, afsonalar va qahramonlar to'g'risidagi afsonalar xalq og'zaki ijodiyoti madaniyatining eng qadimgi va uzoq tarixga ega bo'lgan sohalaridir. Tarix qa'ridan necha-necha ming yilliklardan bizning davrimizga qadar yetib kelgan miflar, afsona va rivoyatlar, maqol va qo'shiqlar, o'tmishning shunchaki bir aks-sadosi emas, balki xalq ko'nglidagi qayg'u-hasrat, shodlikning yo'ldoshi, uning bilim qomusi, uning diniy va falsafiy kitobidir. Qadimgi Yunonistonda xudolar va pahlavonlar haqidagi afsonalar miflar deb atalgan. Markaziy Osiyo xalqlari og'zaki ijodiyotining eng qadimgi turlaridan biri miflardir. Yaxshilik bilan yomonlik nur bilan zulmat baxt

bilan baxtsizlik o'rtasidagi kurash va bu kurashda ezgulikning yovuzlik ustidan g'alaba qozonishi haqidagi g'oya dunyoning boshqa xalqlarida bo'lganidek, bizning miflar uchun ham xarakterlidir. Sharqda yaratilgan miflarning namunalari "Avesto" kitobi orqali yetib kelgan. "Avesto" da ikki yaratuvchi kuch-yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi uzoq muddatli kurash tasvirlangan. Qadimiy obida "Avesto" da qayd etilishicha, yaxshilik olamiga Axuramazda yomonlik olamiga esa Ahriman boshchilik qiladi. Baxt va baxtsizlik hayot va momot shu qarama-qarshi kuchlar o'rtasidagi kurash va uning oqibatlariga bog'liq. Yaxshilik va yomonlik kuchlari o'rtasidagi kurash va uning jangu jadallari, ezgulik uchun kurashadigan Mitra, Anaxita, Qayumars, Jamshid, Gershasp obrazlarida va baxtsizlik timsoli bo'lgan Axriman, Dev, Ajdar, Jinlar bilan bog'liq miflarda o'z ifodasini topgan.

"Avesto" da aks etgan asosiy falsafiy g'oyalar e'tiqodning yetakchi tushunchalari tarixiy shaxs Zardushtning nomi bilan bog'liq. Uning ismiga nisbatan din ham shunday nom bilan, ya'ni zardushtiylik deb ataladi. Manbalarda yozilishicha, Zardusht taxminan miloddan avval 570 yillarda tug'ilgan va 77 yoshida ibodat qilayotgan chog'ida dushman kohinlaridan biri tomondan orqasidan xanjar sanchib o'ldirilgan.

Zardushtiylar dinining qonun-qoidolari "Avesto" da bayon etilgan. "Avesto" kitobi miloddan bir necha asrlar ilgari yuzaga kelgan. Manbalarning ko'rsatishicha, "Avesto" 12 ming oshlangan mol terisiga oltin harflar bilan bitilgan. Abu Rayhon Beruniyning "O'tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida bu haqda shunday deyilgan: "Doro ibn Doro xazinasida 12 ming qoramol terisiga tillo bilan bitilgan bir nushasi bor edi." O'ziga xos qomusiy bilimlar majmuasi bo'lgan "Avesto" bir qancha kitoblarga bo'lingan bo'lib, har qaysi ichki kitob yana bir necha boblarga bo'lingan. Masalan, uchinchi kitob "Yasna" deb atalgan bo'lib, u 72 bobdan iborat. Buning 28-bobidan 53-bobigacha bo'lgan qismlarida Zardushtiylik dini asoschisi Zardushtning o'ziga nisbat berilgan. Uning 17-bobi Gotlar-gimnlar deb atalgan. "Avesto" ning 22-bobidan iborat bo'lgan Vendidot degan qismi Axuramazda bilan Zardushtning savol-javob shaklida yozilgan. Turkiy xalqlarning mif va afsonalaridan namunalari

“O‘g‘iznoma”, “Kitobi Doda Qo‘rqud”, “Chistoni Elibek” kabi manbalar orqali yetib kelgan.

Tush hodisasi bilan bog‘liq mifologik, an‘anaviy-diniy qarashlarning badiiy ifodasi o‘zbek folklorida sezilarli darajada saqlanib qolgan. Qolaversa, xalq og‘zaki ijodida diniy, xususan, islomiy qatlamning badiiy ifodalarini ilmda xolis o‘rganishga mustaqillik sharofati tufayli keng imkoniyatlar ochildi. Umuman, mustaqillik folklorshunoslik taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab berdi.

Tush turkiy xalqlar og‘zaki ijodida muhim o‘rin tutadi. Tush manzarasi bo‘lmagan ertak va dostonlarimiz kamdan-kam uchraydiki, uni o‘rganmasdan turib, xalq ijodi namunalari zamiridagi ma‘no-mohiyatini to‘liq anglab yetolmaymiz. Ertak va dostonlarimizda tush jarayoni shunchaki o‘tkinchi va ma‘nisiz holat emas, inson ruhiyatining bir qismi, inson ichki dunyosining timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. Tush – insonni o‘tmish va kelajakdan ogoh etadi, unut kechmalarni qayta esga soladi. Ruhiy ahvolning qay darajadaligidan darak beradi. Inson ruhiy dunyosi nihoyatda murakkab sirli jarayon ekanligini ko‘rsatadi. Uni tadqiq qilish inson haqidagi bilimimizni oshirishga xizmat qiladi.¹

Ma‘lumki, xalq rivoyatlarini tasnif qilishda bir necha mezonlar asosga olinishi mumkin. Rivoyatlarni muayyan belgilarga ko‘ra guruhlantirishda ularni ijtimoiy-siyosiy, oilaviy-maishiy, g‘oyaviy-tematik va badiiy-strukturaviy jihatdan tiplarga ajratish maqsadga muvofiqdir. Xalq rivoyatlarini tasniflashda, xususan tarixiy rivoyatning ichki tiplari va mavzu qatlamlarini aniqlash maqsadida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarni kuzatganimizda, bu borada bir nechta tamoyillar ko‘zga tashlanadi: O‘zbek xalq tarixiy rivoyatlarini tasnif qilishga o‘tishdan avval folklorshunoslarning ana shunday qarashlariga munosabat bildirish eng maqbul nazariy mezonlarni aniqlashda muhim amaliy ahamiyatga ega. Shulardan birinchisi, tarixiy rivoyatlarni joy nomlari to‘g‘risidagi rivoyatlar bilan aralashtirib yuborish yoki ularni toponimik rivoyatlarning ichki tiplardan biri sifatida baholash an‘anasidir.

¹ Жаббор Эшонкул. Туш ва талқин. Ўзбек тили ва адабиёти. Тошкент. 1998 йил 2-сон, 40-б.

Ibtidoiy jamoa davridayoq ajdodlarimiz tushga alohida e'tibor bilan qarab, tush nima, degan savolga turli davrlarda turlicha javob berishgan. Bu fikr-mulohazalar bir-birini takrorlashdan keskin inkor darajasigacha borib yetgan. Zero, sirli tushning o'zi kabi u haqda bildirilayotgan fikrlar ham poyonsiz va turli –tumandir. "Tush"- turkiycha qadimiy bir so'z. Tushning arabcha "ro'yo"dir. "Tush" so'zining sinonimi sifatida "ro'yo" tilimizda hanuzgacha ishlatilib kelinmoqda. Mahmud Qoshg'ariy "Devonu lug'otit turk" asarida tush bir necha yil ma'no anglatishini yozganki, "Qutadg'u bilig"dagi qarashlar ham shunga mos keladi. Ibtidoiy insonlar kundalik hayot va kelajagini tushsiz tasavvur eta olmagan. Xalqimizning madaniy hayotida tush va uning ta'birlari alohida o'rin tutadi. Qadim asotirlardan biriga ko'ra, dunyo tangrining tushida yaratilgan. O'g'uzxon, Qoraxon, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi ko'plab tarixiy shaxslar ham tushni jo'n, mubham holat deb hisoblamasdan, unga kuchli bir ruhiyatshunos sifatida jiddiy yondoshganlar. Ilonni ezgulik timsoli sifida tushunish bilan bog'liq mifologik qarashlar turkiy xalqlar orasida turli irim-sirim va inonchlarni yuzaga keltirgan. Qirg'izlar e'tiqodicha, oq ilon muqaddaslashtirilgan, uni o'ldirish katta gunoh hisoblangan. Agar oq ilon uyga kirsa, uning ustiga sut sepib, uydan chiqib ketishini kutib turganlar. O'zbeklar esa bunday ilonning ustiga oq un sepib erkalashgan. Uning iltifot ko'rsatishini so'rab murojaat qilishgan. Afsonalarga ko'ra, ilon bir zamonlar chiroyli qiz bo'lgan emish. A.Qodirovning qayd qilishicha, Xuf vodiysida yashovchi tojiklar olachipor tusli ilonlarni musulmon deb bilganlar. Hatto Tojikistondagi Shahartuz degan joyda ilon mozori ham bor deyдилar.

Mifologik obrazlar yozma adabiyot vakillari tomonidan qayta ishlangan tarzda kitoblarga kritildi. Turkiy musulmon mifologiyasining asoslari muqaddas kitob Qur'on orqali yetib kelgan. Bir qator shoirlar Qur'onga asoslanib, diniy xarakterdagi hikoyatlarni she'riy usulda ham bayon qilganlar. Bular qatoriga Huvaydoning "Rohati dil" kitobini ham kiritish mumkin. Musulmon mifologiyasi

yunon mifologiyasidan anchagina farqlanadi. Musulmon mifologiyasida asosiy e'tibor kishilarning tarbiyasiga qaratilgandir.

Adabiyotlar:

1. K. Imomov, T.Mirzaev, B.Sarimsoqov, O.Safarov. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. T., O'qituvchi, 1990 y.
2. Jirmunskiy V.M., Zarifov X.Z. Uzbekskiy narodnyy geroicheskiy epos. -M.: GIXL, 1947.
3. O'zbek folklor ocherklari. T., Fan, 1987
4. D.O'raeva. Motam marosim folklori. T., «Fan», 2005 y.
5. O'zbek xalq afsun-duolarining janr xususiyatlari va badiiyati. T., «Istiqlol», 2006 y

Savol va topshiriqlar.

1. Mifologiya nima?
2. "Avesto" kitobi va folklor.
3. Tush va timsol.
4. "Avesto" dagi timsollar haqida gapiring.
5. Mifologik obrazlar deganda nimani tushunasiz?

3-Mavzu: Maqol va matallar.

Reja

- 1.Folklorning kichik janrlari haqida.
- 2.Maqollar janr xususiyatlari.
- 3.Maqollarning g'oyaviy-tematik xususiyatlari.
- 4.Matallarning janr xususiyatlari, maqollardan farqi, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari.
- 5.Urf-odatlar bilan bog'liq maqollar

Folklorda bir qator kichik janrlar bor: maqollar, matallar, topishmoqlar va askiyalar. Bulardan biz maqol haqida to'xtalib o'tamiz.

Maqol xalq og'zaki ijodining ixcham shaklga, ammo chuqur mazmunga ega bo'lgan janrlaridan biri bo'lib, u xalqning ko'p asrlik hayotiy kuzatishlari, ijtimoiy-

iqtisodiy, siyosiy va madaniy tajribalari asosida vujudga kelgan. Maqallar o'zlarining ijtimoiy-g'oyaviy funksiyalariga ko'ra, asosan keng xalq ommasining, ayrim hollarda esa ba'zi ijtimoiy tabaqa yoki guruhlarining dunyoqarashini ifodalaydi. Shu boisdan ham maqallarning tematik ko'lam juda ham keng bo'lib, bu ko'lamni juz'iy hayotiy voqelik doirasi bilan chegaralab bo'lmaydi; ijtimoiy borliqning hech bir sohasi yo'qki, u maqallarda aks etmagan bo'lsin.

Maqollar ko'p asrlik hayotiy tajribalar asosida yuzaga kelganligi o'ziga xos tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Chunki har bir maqol kishilarning uzoq yillar mobaynida hayotiy tajribalari hamda turmush sharoitlarida tnecha martalab sinovlardan o'tadi. Har bir maqolning xalq orasida tarqalishi ham uning yaratilishi kabi sekinlik bilan amalga oshadi. Chunki muayyan maqolni qabul qilib oluvchi jug'rofiy muhit uni o'z sharoitida qaytadan sinovdan o'tkazib olgandan keyingina o'z mulkiga aylantiradi.

Maqollar fikrni lo'nda, aniq va obrazli bayon etishda nutqimiz uchun zaruriy vosita hisoblanadi. Shuning uchun ham V.G.Belinskiy xalq maqol va matallarini "poeziyaning mohiyati" deb hisoblagan edi.

Maqollarda o'z ifodasini topgan izchil sinfiy poeziya beqiyos mantiqiy o'tkirlik haqida hayratlanib u shunday yozgan edi: "Juda soz, juda yaxshi! Ana shulardan yozuvchilarimiz o'rgansalar ekan, bir jumla bilan chilparchin qilib tashlaydi-ya."

Tarixiy manbalarda ham, xalq orasida ham xalqimizning oforistik ijodi turli-tuman atamalar bilan nomlanib keladi, maqol, matal, naql, masal, zarbulmasal, hikmatli so'z, matoyixlar so'zi va boshqalar ana shunday atamalardandir. Bu terminlar ko'pchilik hollarda hozirgacha ham umuman aforistik ijodga nisbatan aralash ishlatilib, birining o'rniga ikkinchisi qo'llanib kelmoqda. ammo ularni qo'llashda ma'lum chegaralar belgilash, aniqlik kiritish zarurga o'xshaydi.

Maqol termini arabcha "qavlun"(aytmoq, gapirmoq) so'zidan olingan bo'lib, o'zbek tilida u xalq donoligining namunasi bo'lmish aforistik janrlardan birining atamasiga aylangan va ma'qul aytilgan so'z, gap yoki ibora ma'nolarini anglatadi. Bundan ko'rinadiki, janr atamasi bilan uning poetik tabiati o'rtasida bevosita

semantik aloqadorlik mavjud ekan. Ko‘pgina tekshiruvchilar maqoldan matalning farqini ko‘rsatishga, ularning chegaralarini belgilashga uringanlar. Shulardan biri XIX asrning ulkan tadqiqotchisi V.Daldir. U o‘zining mashhur “Poslovitsy russkogo naroda” to‘plamining kirish qismida shunday yozgan edi: “Matal xalqning ta’rificha, g‘uncha, maqol esa, meva; bu ta’rif juda ham to‘g‘ri”. Uning fikricha, maqol to‘liq, tugal mazmun, hukm anglatuvchi gap bo‘lsa, matal ko‘chma ma’no ifodalovchi ibora; u maqolning yarmidir.

“Matal” so‘zi turkiya xalqlar orasida turlicha ma’nolarda qo‘llaniladi. U topishmoq, hikmatli so‘z, ertak, masal, umuman hikoya qilish, naql qilish, sifatida o‘zbek folklorshunosligida naremalarning bir turini ifodalash jihatidan differensiyallashib bormoqda. shuning uchun ham u turli tug‘atlarda turlicha izohlangan. Xullas, maqol mustaqil folklor janri sifatida qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, bu xususiyatlar uni boshqa aforistik janrlardan, xususan, matallardan keskin farqlab turadi.

Farqlar esa quyidagilardan iborat:

1. Maqol hamma vaqt aniq, tugal fikr anglatadi, bu fikr esa qat’iy, lo‘nda xulosa sifatida ifodalanadi.
2. Maqol uchun ma’lum bir fikrni mantiqiy izchillikda va qat’iy qutbiylikda ifodalash xarakterlidir. Qaysi bir maqolni olmang, u voqelikni mudom yo keskin salbiy nuqtai nazardan baholaydi.
3. Maqol asosida ibratomuz tugal fikr yotsa, matal asosida chiroyli, obrazli, ammo tugal bo‘lmagan ifoda yotadi. Binobarin, matal, ixcham, bir komponentli kompozitsiyaga ega bo‘ladi.
4. Maqollar o‘z ham ko‘chma ma’nolarda qo‘llana olish imkoniyatiga egadir. Bu xususiyat maqollarning tematik doirasini, qo‘llanish chegarasini kengaytiradi.
5. Matal nutqda ko‘rsatish vositasida bo‘lsa, maqol dalillash, isbotlash vositasi sifatida qo‘llaniladi.

Aksariyat xalq-maqollarida insonni kamol toptiruvchi, uning turmushini farovonlashtiruvchi asosiy vosita mehnat ekanligi lo‘nda ifodalanadi va ularda

tekinxo‘rlik, bekorchilik hamda dangasalik keskin qoralanadi. Masalan, “Bekorchidan xudo bezor” maqoli fikrimizning tasdig‘idir. Maqol tarixan ancha qadimiy bo‘lganligi uchun ham unda dangasa, ishyoqmasdan oddiy insonlarga emas, hatto maqol yaratilgan davr idnologiyasiga ko‘ra butun mavjudotning yaratuvchisi xudo ham bezor degan mazmun anglashiladi.

Masalan shoira Oydin Xojieva o‘z she‘rlarida vatanparvarlik, insoniylik, adolat, ahillik, do‘stlik tuyg‘ularini ifodalash uchun xalq maqollaridan unumli foydalanadi:

Yolg‘on-yashiqqlarga o‘t ketdi bugun.

Kuragiga urib qasam ichganga,

Boyluk deb iymondan kechganga,

Sichqonning ini bo‘ldi ming tanga.

Ba‘zan shoira xalq maqollarini keltirishdan oldin unga bog‘lik bo‘lgan voqelik haqida so‘z yuritadi:

Yurtni malomatga ko‘ymoq yomondir, O‘tmas

pichoq bilan so‘ymoq yomondir. Bir kuygan

qatiqni puflab ichar-ku, O‘z qavmidan tili kuygan

yomondir.

Bir bandning o‘zida birdan ortiq makol va hikmatli iboralarning keltirilishi, muallifning fikrini yorqinroq ochishga, o‘zbek xalqigagina xos bo‘lgan milliy urf-odat va an‘analarni tasvirlashga xizmat kiladi.

Ba‘zan stilistik talabga ko‘ra yoki poetik nutk texnikasi extiyojiga muvofiq maqol bir oz shaklan o‘zgartirilgan xolda satrlar mazmuniga singdirib yuboriladi:

Ro‘zg‘oringga qut kirib,

Pichog‘ing moy bo‘ldimi?

Yovg‘oningga tot kirib,

Endi umring o‘n beshi

Yorishib oy bo‘ldimi?

Bu parchada “Oyning o‘n beshi qorong‘u bo‘lsa, o‘n beshi yorug‘” degan maqolning bir oz o‘zgargan shakli kelyapti.

Quyidagi satrlarda esa, "Oyni etak bilan yopib bo‘lmaydi", "Duo bilan el ko‘karar", "Egilgan boshni qilich kesmas" kabi maqollarning mazmuni she‘r misralariga singdirib yuborilgan:

Oyni etak bilan yopgan kim bo‘ldi,

**El yarasiga tuz sepgan kim bo‘ldi? Yurtning
duosidan unib o‘sgan yurt Undan duoyibad
topgan kim bo‘ldi?**

Xalq maqollarida ona-Vatanga muhabbat va vatanparvarlik mavzui yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Chunki mehnatkash xalq hamma vaqt o‘z vatanini sevgan, uni ardoqlagan va vatan dushmanlariga, unga xiyonat qiluvchilarga, chet el boisqinchilariga qarshi keskin kurash olib borgan.

Urf-odatlar bilan bog‘liq maqollar

Xalq maqollarining yaratilishida urf-odatlarning ham o‘ziga xos o‘rni bor. Qaysi xalq maqollarini olmaylik, ularda o‘sha xalq urf-odatlari, an‘analari saqlanib qolganini ko‘ramiz. Xususan, o‘zbek va qirg‘iz xalqlari paremiologik xazinasida urf-odatlar, an‘analar asosida vujudga kelgan maqollar ko‘pchilikni tashkil etadi. Lekin ular o‘rtasidagi o‘xshashlik, farqlilikni tashkil etadi.

O‘zbek va qirg‘iz xalq folklordagi maqollar muqoyasasi orqali qiyosiy-tipologik o‘rganishning genetik, kontakt, tarixiy tipologik aloqadorlik kabi tiplarini aniqlash prinsiplariga tayanamiz. Bunday aniqlik orqali esa har bir milliy paremiologik boylik tarkibidagi sof milliy va baynalmilal qatlamining o‘ziga xos jihatlari tavsiflanadi.

O‘zbek xalqida:

**To‘yga borsang, bugun bor,
Bugun borsang, o‘rin bor.**

Qirg‘iz xalqida:

Toygo borsayo murun bar,

Murun barsay orun bar.

Ma'lumki, o'zbek va qirg'iz xalqlari to'ylari ko'pchilik bilan o'tkaziladi, mehmonlar keti uzilmaydi, biri kelib, biri ketadi, shunday holda ba'zan mehmonlarni joylashtirishda xijolatchilik ham yuzaga keladi. Ushbu maqolda bunday vaziyat yuzaga kelmasligi uchun "erta bor" ishlikka maslahat berilmoqda. O'zbek va qirg'iz xalqlarining urf-odatlarini asosida yuzaga kelgan ikki xalq maqollaridagi xukmlar, xulosalar, obrazlar, mazmun va sintaktik tuzilishlari aynan o'xshash. Bunday ko'rinish yoki hol ikki xalq maqollari orasida genetik birlik izlari yaxshi saqlanganini ko'rsatadi. Aynan o'xshash, genetik birlikdagi maqollarga juda ko'plab misollar keltirishimiz mumkin:

O'zbek xalqida: **To'y siltovi bilan to'y bitar.**

Qirg'iz xalqida: **Toy sho'ltoosu menen ton bitet.**

O'zbek xalqida: **Qiz – qo'noq.**

Qirg'iz xalqida: **Kez – konok.**

Urf-odatlarga oid ikki xalq maqollarida poetik mazmun, poetik va sintaktik struktura bir xil bo'lgani holda poetik obrazda bir oz farqlanish bo'lgan maqollar ham uchraydi. Bu hol esa o'zbek va qirg'iz xalq maqollarining kontakt aloqadorligi oqibatida ikki xalq orasida tarqalgan maqollarni aniqlashning bosh mezoni hisoblanadi.

O'zbek xalqida: **Kelinni kelganda ko'r,**

Sepini yoyganda ko'r.

Qirg'iz xalqida: **Kelindi kelgande kor,**

Kempirdi olgonda kor.

O'zbek xalq maqolida faqat "kelin", uning "sep"i to'g'risida so'z yuritilmoqda. Chunki, o'zbek xalqining nikoh to'yida kelin kelgandagi shodlik, quvonch, tantana, yangi qadam qo'yib kirib kelayotgan kelinni kutib olishdagi o'zgacha

rasm-rusmlar, urf-odatlar har qanday insonni hayajonlantiradi, havas va mehr uygʻotadi. Kelin kelgan xonadonga kelin sepi yoyilganda, yana ham boʻlakcha tarovat baxsh etadi. Chiroyli kelin liboslari kiyilib, kelin kelgan xonadon egalariga “Kelin salomlar” aytiladi.

Qirgʻiz xalq maqolida “kelin” va “kampir” poetik obrazlari qoʻllanilgan. Uning ikkinchi komponentida “kampirni oʻlganda koʻr” deyilgan. Chunki, kampir – yoshini yashagan, orzu-havasini koʻrib, qizdan xizmat, oʻgʻildan hurmat koʻrgan onaxon, qirgʻiz xalqida mavjud urf-odatlarga koʻra bunday keksa onaxonlar oʻlmaslaridan oldin oʻzlari uchun “oʻlimlik” tayyorlashdagi yaʼni, motam kuni koʻpchilikka ulashish uchun “kampirning sepi”. Hayoti davomida yaxshi yashagan, hurmat-eʼtiborli, obroʻli, moʻʼtabar onaxonlar toʻplagan “kampir sepi”ni olishni xalq xohlagan. Shu joyda yani bir eʼtiborli milliy odatlardan biri bunday onaxonlar hayotligida kiygan kiyim-kechaklari, tutgan buyumlari qarindoshlari, mahalla-koʻyi, tanishlari tomonidan talashib-tortishib olib kiyilgan, qoʻllangan. Chunki, shu onaxondek boʻlib yuraylik degan “irim” qilishgan (uning aksi boʻlib, ayol yosh ketsa, taqdiri qiyin oʻtgan boʻlsa, kasalmam boʻlib yashagan boʻlsa, bunday insonlarning kiyim-kechaklari olovga yoqib yuborilgan. Bunday urf-odatlar ayni paytda uchramaydi).

Bu kabi kontakt aloqadorlik tufayli yaratilgan maqollarda poetik obrazlarda farqlanish boʻlganligini kuzatishimiz mumkin. Chunki bu ikki xalq qadim zamonlardan yonma-yon, koʻp joylarda aralash holda yashab keladi. Ular oʻrtasida qon-qarindoshlik munosabatlari chuqur ildiz otgan, har ikki xalq marosimlari, urf-odatlari, turmush-tarzi bir-biridan farqlanmaydi. Mana shunday iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayot birligi ikki xalq folklori, xususan maqollar oʻrtasida ham koʻplab oʻxshash qatlamni yuzaga keltirgan. Uzoq yillardan davom etib kelayotgan koʻp tomonlama muloqot oʻzbeklarda yaratilgan maqollarning oʻzbeklar oʻrtasida tarqalishiga, ularning har ikki xalq paremiologik xazinasidan mustahkam oʻrin olishig sabab boʻlgan.

Oʻzbek va qirgʻiz xalq maqollarini qiyosiy oʻrganish, turli jihatlardan tadqiq etish bu ikki xalqning turmush tarzi, dunyoqarashi, dunyo va inson haqidagi dono

xukmlarini, ularning tasavvurlari, e'tiqodi, falsafiy va badiiy tafakkuri o'rtasidagi mushtaraklik hamda farqli jihatlarni ochishga imkon beradi.

Xalq maqollaridan namunalar.

1. "Bulbul chamanni sevar, odam Vatanni".
2. "Ona yurtning omon bo'lsa, rangi-ro'ying samon bo'lmas".
3. "Vatan gadosi-kafan gadosi".
4. "Vatangado bo'lguncha, kafangado bo'l".
5. "Begona tuproq-devona tuproq".
6. "Bir odam ko'prik solar, ming odam undan o'tar".
7. "Baland nom baland tomdan ulug'".
8. "Badfe'lining beti qora".
9. "Ikki suyuk bir ko'ngilga sig'mas".
10. "Bevafoda hayo yo'q".
11. "Mehnat qilgan elda aziz".
12. "Mehnat, mehnatning tagi rohat".
13. "Odob-bozorda sotilmas".
14. "Insofli oshini yer, insofsiz-boshini".
15. "Zolimning joyi-jahannam".
16. "Boyga boy boqar, suv soyga oqar".
17. "O't ko'p bo'lsa, ho'kiz semirar, o'lik ko'p bo'lsa-mulla".
18. "Adovat emas, adolat yengar".
19. "Insofli-insofsizdan o'tkir".
20. "Daraxtning bo'shini qurt yer".
21. "Mehmon kelar eshikdan, rizqi kelar teshikdan".
22. "Ot yomoni-yo'rg'a, odam yomoni-mulla".
23. "Holvani hakim yer, kaltakni-etim".
24. "Qoziga bersang-suyar, bermasang so'yar".
25. "Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo'lar chiroylik".
26. "Mehnat qilsang, rohat ko'rasan".
27. "Beli og'rimaganning non yeyishini ko'r".

28. “Gap desang-qop qop, ish desang-Samarqanddan top”.

Adabiyotlar:

1. K. Imomov, T.Mirzaev, B.Sarimsoqov, O.Safarov. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. T., O‘qituvchi, 1990 y.
2. Jirmunskiy V.M., Zarifov X.Z. Uzbekskiy narodnyy geroicheskiy epos. -M.: GIXL, 1947.
3. O‘zbek folklor ocherklari. T., Fan, 1987
4. D.O‘raeva. Motam marosim folklori. T., «Fan», 2005 y.
5. O‘zbek xalq afsun-duolarining janr xususiyatlari va badiiyati. T., «Istiqlol», 2006 y

Savol va topshiriqlar.

1. Maqollarni tasnif qiling.
2. Maqol va matalning farqi nimada?
3. Odob-ahloq haqidagi maqollarga misollar keltiring va izohlang.

4-Mavzu: Topishmoqlar. Tez aytishlar. qiziqchilik. Masxarabozlik.

Reja

1. Topishmoqlarning janriy g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari.
2. Tez aytishlar, ularning ahamiyatlari.
3. Qiziqchilik-folklorning qadimiy janrlaridan biri.
4. Masxarabozlik, ularning fosh etuvchilik xususiyatlari.

Topishmoq xalqning hayotini, turmush madaniyatini, urf-odatlarini, predmetlarning badiiy estetik tomonlarini o‘zida aks ettiruvchi folklorning eng qadimiy, eng kichik va ixcham mustaqil janridir. Xalq ijodida salmoqli o‘rin tutgan folklorning bu ommaviy janri turmush bilan chambarchas bog‘liq holda vujudga kelgan bo‘lib, uning asosiy manbai borliqda mavjud bo‘lgan hamma narsalardir.

Folklorning aksariyat janrlari qatori topishmoqning ham yuzaga kelishida ajdodlarimizning turmush tarzi bilan bogʻlik real hayotiy vokelik birlamchi asos boʻlgan boʻlsa-da, janr takomilida qadimgi mifologik tasavvurlar, soʻz magiyasi va soʻz tabusiga aloqador inonch-eʼtiqodlar hamda marosimlar muhim rol oʻynagan. Topishmoqlarning genetik ildizlari qadimgi ritual marosimlar va magik qarashlar bilan aloqadorligi koʻpgina folklorshunoslar tomonidan eʼtirof etilgan.¹

Topishmoqlarning qadimiy inonch-eʼtiqodlar bilan bogʻliq jihatlari allaqachonlar unutilib ketgan boʻlsa-da, jahonning ayrim xalqlari turmush tarzida oʻzining magik vosita sifatidagi xususiyatlarini yaqin-yaqinlargacha saqlab kelganligi maʼlum. Masalan, udmurdlarda har faslning maʼlum bir muddatida: kuzgi oʻrim-yigʻim nihoyasiga yetganda, erta koʻklamda, ayniqsa, diniy-mavsumiy marosimlar oʻtadigan paytda ramziy maʼnoda topishmoq aytish odati mavjud boʻlgan. Buning uchun ular oʻz uylarida «topishmoq aytish kechalari»ni uyushtirishgan. Udmurd folklorining yirik tadqiqotchilaridan biri K.P.Gerd tomonidan XX asrning 20-yillarida toʻplangan materiallar shundan guvohlik beradiki, udmurdlar kuz kelib tabiat ramziy maʼnoda «uyquga ketgach», to ilk koʻklam boshlanguniga qadar navbati bilan kechalari topishmoq aytib chiqishar ekan. «Ular topishmoq aytish orqali tabiatning bahorda yana qaytadan «uyqudan uygʻonishi»ga koʻmaklashish kerak, deb oʻylaganlar. Topishmoq aytish va uning javobini bilagʻonlik bilan topish ov baroridan olishi, hosilning moʻl boʻlishi va yilning barakali kelishini taʼminlaydi, deb tasavvur qilganlar. Shuning uchun udmurdlarda topishmoq aytishish shunchaki koʻngilli vaqt oʻtkazish emas, balki tabiatga sirli yoʻsinda taʼsir koʻrsatish vositasi deb qaralgan»².

Serhosillik gʻoyasi bilan bogʻliq bunday topishmoq aytish udumi boshqa xalqlarning mavsumiy marosimlar tizimida ham mavjud boʻlgan. Ayrim rus qishloqlarida XX asrning oʻrtalarigacha yozda, ayniqsa, dala ishlari qizgʻin kechayotgan vaqtda hatto kechasiyam topishmoq aytish manʼ etilgan boʻlib,

¹ Соколов Ю.М.Русский фольклор.М,1938.С.217.

²Русское народное поэтическое творчество.С.181.

keksalar faqat kuzda va qishda quyosh botganidan keyingina topishmoq aytilsa xosiyatli bo'ladi deb bilishgan.

Topishmoq aytish udumining mavsumiy xarakter kasb etganligi va yilning ma'lum vaqtlaridagina o'tkazilishining tarixiy asoslari qadimgi xind kohinlarining kalendar marosimlariga borib taqaladi.

Chunki T.Ya.Yelizarenkova va V.N.Toporovlarning ta'kidlashlaricha, qadimgi topishmoqlar muayyan magiya yoki ritual marosimlarning verbal partiturasini, ya'ni so'z bilan ifodalangan talqini vazifasini bajargan. Jumladan, miloddan avvalgi XV-XI asrlarda yashagan qadimgi xind koxinlari tomonidan har yili yangi yil oqshomi kechasi o'tkazilgan topishmoq aytish marosimi bunga misol bo'la oladi. Ramziy mohiyat kasb etgan bunday topishmoq aytish marosimi **bradmodya**, ya'ni «braxman haqida mulohaza» deb yuritilgan. Bu marosimda veda sharafiga qurbonlik qilingan va ishtirokchilar bir-birlariga ramziy ma'noda topishmoq aytganlar.

Qadimgi xind mifologiyasi talqinicha, yil tugayotgan kechasi olamning hayotiy qudrati sunib, xaos kosmos ustidan g'olib chiqar va yil o'z nihoyasiga yetar emish. Shuning uchun ham qadimda xindlar kosmos, ya'ni borliqning qayta bunyod etilishi - yil yangilanishi uchun o'ziga xos ritual marosim utkazish zarur deb bilganlar. Hindlarning yangi yilda topishmoq aytishish udumi qo'ni-qo'shnilarning bir-biriga turli-tuman hadya-sovg'alarni berish udumi bilan bog'liq holda o'tkazilgan.

Veda ta'limotining mohiyatini anglatuvchi mifologik qarashlarni targ'ib etish asosida o'tkazilgan yangi yil marosimidagi qurbonlik chog'ida aytilgan topishmoqlar va ularning javoblarida qadimgi xind mifologiyasidagi olamning yaratilishiga oid asotiriy tasavvurlar, tangri Purushi tanasining turli qismlaridan olamdagi moddiy mavjudlikning vujudga kelishi, xususan, uning og'zidan Braxman koxinlarining paydo bo'lganligi tug'risidagi e'tiqodiy inonchlar o'z ifodasini topgan. Boshqacha qilib aytganda, eng qadimgi topishmoqlar oddiy so'z o'yini yoki shunchaki vaqtni xushchaqchqlik bilan o'tkazish vositasi emas,

balki «mifologik katexizis», ya'ni muayyan diniy-mifologik qarashlarni savol-javob tarzida ifodalash usuli vazifasini bajargan.

Topishmoqlarning bir qator rasm-rusumlar bilan aloqadorligi izlarini, xususan, topishmoq aytish bilan boliq tabu (taqiq)larni o'zbek folklorida ham ko'ramiz. Bizningcha, o'zbek dostonchilik maktablarining o'ziga xos xususiyatlaridan biri — ustoz baxshining o'z shogirdi badixaguylik san'ati, hozirjavoblik mahoratini qay darajada egallaganligini, uning aql-idroki, faxm-farosati, epik bilimi va fikrni metaforali nutq vositasida ifodalay olish iqtidorini sinab ko'rish maqsadida savol-javob aytishuvlarining genetik ildizlari ham qadimgi Sharqda, xususan, veda mifopoetik ta'limotida keng tarqalgan an'analarga borib taqalsa, ajab emas.

O'zbek xalq og'zaki ijodida topishmok aytish alohida marosim shaklida uchramasa-da, ertaklarimizda epik shart sifatida aytilgan topishmoqlarning javobini topishiga qarab talabgorlarni sinovdan o'tkazish hamda shu orqali bo'lajak kuyovni tanlash motivi ham uchraydi. Binobarin, «ertak va nikoh to'yi marosimi fikrni «o'zgacha» ifodalash, ya'ni «jumboqni, sirli» nutqning hozirgi kungacha yetib kelgan topishmoqlarga nisbatan ancha soddaroq shaklini saqlab qolgan bo'lib, bu hali muayyan badiiy struktura, qofiya va boshqa poetik belgilarga ega bo'lgan janr emas, balki shunchaki «sirli» nutq namunasi bo'lgan. Epik asarlar hamda marosim tarkibida saqlanib qolgan bunday jumboq namunalari «metaforik nutq»ning qadimiy shakliga mansub bo'lganligi uchun funksional jihatdan ham hozirgi topishmoqlardan farqlanib turadi: marosimda uylanayotgan kuyov yigit (yoki uning jo'rasi)ga topishmoq berilgan va javobni topish yoki topa olmasligiga qarab uning topqirligi, xayotga tayyorligi, akl-farosati, donoligi sinab ko'riladi». Masalan, «Axlantoz» ertagida podshoning qizi malika Sohibjamol talabgorlar oldiga «Kimki mening topishmog'imning javobini topsa, o'sha yigitga turmushga chiqaman» deb shart qo'ydi. Hech bir talabgor malikaning topishmoqlariga javob berolmaydi va faqat bir kambag'al yigitgina buning uddasidan chiqadi. Sohibjamol yigitga quyidagicha topishmoq bilan murojaat qiladi:

Uzoq yerda o‘t kuyar-o,

Ani toping, Axlantoz.

Sassiq soyda it hurar-o,

Ani toping. Axlantoz.

Chorbog‘imda juft chinor-o,

Ani toping, Axlantoz.

Eshigimda qo‘sh munguz-o,

Ani toping, Axlantoz.

Qora tolim butoqsiz-o,

Ani toping, Axlantoz.

Oqqina qo‘zim suyaksiz-o,

Ani toping, Axlantoz.

Bunday topishmoqli savol-javoblarning boshqa bir ko‘rinishi Barchinning Alpomishga jumboq qo‘yishi tarzida dostonning Polkan shoir variantida ham saqlanib qolgan.

Insoniyat taraqqiyotining muayyan bosqichiga kelib esa, topishmoqning to‘y oldi sinov udumi sifatidagi ritual-magik funksiyasi o‘z kuchini yo‘qotgach, bu qadimiy an‘ana alohida motiv sifatida epik syujetlar tarkibiga singib ketgan.

O‘zbek to‘y marosim folklorida topishmoq janri o‘zining qadimiy ijro o‘rni va funksional xususiyatlarini sakdab kolmagan bulsa-da, tuy marosimlardagi so‘zamollik musobaqalari, motam marosimidagi yig‘i-yo‘qlovlar va bir qancha udumlar tarkibidagi savol-javobga asoslangan ramziy aytishuvlar topishmoq janri genezisida marosim folklori muhim rol o‘ynaganligini ko‘rsatadi. Xususan, topishmok, usulidagi savol-javobli aytashuv yoki nutqning metaforik shakli nikoh to‘yi marosimi tizimidagi turli udumlar tarkibida mavjudligini tasdiqlaydigan ko‘plab materiallar yozib olingan.

An'anaga ko'ra, kuyov tomondan qiznikiga sovchilikka ketgan kishi qaytib kelganda, ish bitgan yoki bitmaganligini ochiqchasiga so'ramasdan, «Bo'rimi, tulki?» deb savol beradilar. Agar qiz taraf qudalashishga moyillik bildirgan bo'lsa, sovchi «bo'ri» deb javob qaytaradi, mabodo ish bimagan bo'lsa, «tulki» deydi. Bu holat «Alpomish» dostonida ham o'z ifodasini toptan. Qorajon Barchinning qo'lini surash uchun ketgan enasi Surxayil kampirni kutib yotganida, «qarasa enasi kelayapti, enasini ko'rib, Qorajon: «Qalay, qalay, ena: Bo'ri bo'lib kelayapsanmi, tulki bo'lib kelatsanmi? - deda. Enasi aytdi: - Bolam, men borgan yerda ham tulki bo'lamanmi, bo'ri bo'lib kelayotibman, seni uylantirib, bu ko'ylaklarni quda-avdalikka kiyib kelayotibman»¹.

Topishmoqlar motam marosimi tizimida xam ritual-ramziy ahamiyatga ega uzv sifatida faol ishtirok ztgan. Buni Buxoro viloyatining Olot tumanida qayd etilgan «Xotin yotdi» marosimi misolida dalillash mumkin. Mayit dafn etilgan kuni oqshomga qarab marhumning yaqin qarindosh ayollari, oila a'zolari, qo'ni-qo'shni momolar yig'ilishib, jasad chiqarilgan uyda uxlaydilar. «Xotin yotdi» deb ataladigan bu marosimda marhumning Munkar-Nakir bilan bo'lib o'gadigan savol-javobdan bexavotir o'gib olishiga yordamlashish, unga ruhan ko'maklashish maqsadida turli xil topishmoqli aytimlar, savol-javob asnosiga qurilgan she'riy aytim-qushiklar ijro etilgan. Marhum ruhiga chiroq yoqilgach, momolar u dunyoda bo'lib o'tadigan savol-javoblar mohiyatini o'zida aks ettirgan quyidagi qo'shiqni aytishgan:

Boshingda nima bor deganda,

Toju davlat degaysiz,

Ko'zginangda nima bor deganda,

Nuri Muhammad degaysiz.

Kiftingda nima bor deganda,

¹ Алпомиш. Ўзбек халк ижоди. Тошкент, 1979. 41-бет.

Farishtayi maloyika degaysiz.

Og‘zingda nima bor deganda,

Kalimai shahodat degaysiz.

Ko‘lingda nima bor deganda,

Xayru sahovat degaysiz.

Kulog‘ingda nima bor deganda,

Sapoti janoza degaysiz.¹

Xalq qarashlariga ko‘ra, marhum o‘zga olam vakiliga aylanishdan avval muayyan sinovlardan o‘tishi, mifologik personajlar bilan uchrashishi, ularning so‘roqlariga javob berishi va bu dunyoda qilgan savob va gunoh ishlari tarozida tortib ko‘rilishi kerak. Shundan keyingina uning narigi dunyodagi o‘rni va makomi - jannat yoki do‘zaxga kirishi, yo bo‘lmasa arosat azobida qolishi belgilanadi, deb tasavvur qilinadi. Jahon xalqlari folklorida o‘zga olam ostonasiga qadam qo‘ygan qahramonning u dunyo vakili hisoblangan mifologik kuchlar bilan uchrashib, muayyan savol- javoblardan iborat sinov shartlarini bajarishi motivi ko‘p uchraydi. «Lekin keyinchalik insonlarning ibtidoiy-magik tasavvur-tushunchalari kengayishi va o‘zgarishi tufayli faqat o‘lim hodisasi emas, boshka tabiat va jamiyat hodisalari ham shartli ravishda yashirin nutq asosida ifodalana boshlagach, topishmoqlarning motam marosimi bilan bevosita bog‘liqligi yuqola borib, u mustaqil janr sifatida taraqqiy topa boshlagan».

Davrlar o‘tishi bilan topishmoqlarning funksional yo‘nalishida o‘zgarish ro‘y bergan. Qadimgi marosimlarda yoshlarning bilimdonligi aql-idroki va topqirligini sinab ko‘rish vositasi, to‘y marosimlari «ramziy bellashuv» usuli sifatida keng qo‘llanilgan topishmoqlar keyinchalik ma’lum ma’noda so‘z o‘yinining bir ko‘rinishiga aylanib borgan. Arxaik rituallarda to‘q oldi sinovi udumlaridan biri

¹ Ўраева Д.С. Ўзбек мотам маросими. Тошкент, 2005. 145 - 146-бетлар.

sifati an'anaviylashgan «metaforik nutq» namunalarining rivojlanishi natijasida topishmoq janrining hozirgi badiiy shakli yuzaga kelgan.

Topishmoqda atrofimizni qurshab olgan hamma narsa-koinot, tabiat hodisalari, hayvonot olami, inson va uning mehnat faoliyati aks etgan. Topishmoq qadim-qadimdan jonli va jonsiz mavjudot, narsa va predmetlarni bir-biriga solishtirish, taqqoslash, o'xshatish orqali borliqni, undagi mavjud narsalarni ko'proq bilishga, anglashga, fikr qilishga katta yordam bergan. Shu jihatlari bilan topishmoq alohida bir mustaqillikka ega janr hisoblanadi.

Topishmoq janri o'zbeklarda topishmoq, topmacha, topar cho'pchak, top-top, jumboq, matal, masala kabi bir necha terminlar bilan yuritiladi. Tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, janrning kengroq tarqalgan atamasi ko'pchilik turkiy xalqlarda yo topmoq so'zidan, yoki yummoq so'zidan olingan.

Topishmoq termini, hatto shu janrga mansub asarning tekstida ham uchraydi: "Top-top topishmoq, tanga yopishmoq". (kiyim). Topishmoq termini top o'zagiga, -ish-moq affiklarining qo'shilishi orqali yasalgan, -ish affiksi bilan yasalgan topish so'zi harakatning ikki yoki bir necha shaxs tomonidan birgalikda bajarilishini, biroq narsani birgalikda izlash, qidirish kerakligini bildiradi.

Unga –moq infinitiv affiksi qo'shilishi bilan o'sha harakat nomi yuzaga kelgan, keyinchalik bu so'z folklorda mustaqil bir janr atamasi sifatida qo'llanila boshlangan va ko'pchilik turkiy xalqlarning o'z til xususiyatiga mos ravishda ilmiy va adabiyot termin sifatida ommalashgan. Binobarin, hozir tilimizda keng ommalashgan topishmoq atamasi o'zbek folkloristikasida ham yagona termin sifatida qabul qilingan.

O'zbeklarda matal termini topishmoq, ertak, maqol va ruscha pogovorka o'rnida qo'llaniladi. Ba'zi joylarda topishmoqni faqat matal termini bilan ishlatadilar. Bu termin topishmoq tekstida ham uchraydi:

**Matalim matti,
Qulog'i qatti,
Qozonga solsam,**

Tikrayib yotdi. (Chuchvara)

**Tom ustida piyola,
Ichi to‘la gul-lola,
Imo qilib chaqirsam,
Uyaladi qiz bola. (oy va yulduz)**

**G‘oq-g‘oq-g‘oq,
Dumog‘im choq.
Suvda suzib yuraman,
Ko‘p kayflar suraman. (G‘oz)
“Sandiqchada mixcha”. (tish)
“Er tagida qizil qalpoq”(lavlagi)
“Kichkina qozon, oshi totli” (yong‘oq)
“Yoyilma tuzak” (adir, yer)
“Yaratganga yopishgan” (ism)
“O‘ra, tevaragi sho‘ra” (og‘iz, mo‘ylov, soqol)
“Er tagida yog‘li qamchi” (ilon)
“Daraxt ustida langar” (anjir)**

**Katta xotin uy poylaydi,
Kichkina xotin yo‘qlovga ketadi. (Qulf, kalit)**

**Oq sigir turib ketdi,
Qora sigir yotib qoldi. (Qor, yer)
Gulsiz bo‘llar mevasi
Shirin-shakar donasi. (Anjir)
Kichkinadir o‘zi,
Yiltir-yiltir ko‘zi. (Yulduz)
Erta ketar laylixon,
Kechda kelar laylixon,**

Turli-turli bog‘chalardan

Yig‘ilib kelar laylixon.

(Sigir)

U yoqqa o‘tar lop-lop,

Bu yoqqa o‘tar lop-lop

Qozonchasini qoplab,

Kerki, cho‘tini soplab.

(Shamol)

Bir otim bor ovushgina,

Piyodaga kovushgina.

(Eshak)

Joni bor jondan,

Suv ichar qo‘ldan,

Ko‘zlari nurdan, Terisi puldan.

(Baliq)

Topishmoqda metafora, metonimiya, mubolag‘a, sifatlash, o‘xshatish, alliteratsiya, takror va juft so‘zlarning ishlatilishi kabi badiiy vosita va usullar juda keng o‘rinni egallaydi. Ular topishmoqning badiiyligini, obrazlilikni oshirishga xizmat qiladilar. Topishmoqdagi asosiy badiiy vositalardan biri metafora hisoblanadi.

“Metafora-predmetlar o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslangan poetik ko‘chim”dir. Topishmoqlarning metaforik xususiyati ularning asosiy badiiy belgisi bo‘lib, ulardagi obrazlilik shu vosita orqali ro‘yobga chiqadi. Ba‘zan bir topishmoqning o‘zida ikki narsa metaforalashda: “Chelak, chelak ustida mo‘ri” topishmog‘ida jumboqlangan narsaning biri-og‘iz, ko‘chimi-qchelak. Ikkinchisi-burun, ko‘chimi-mo‘ri. Topishmoq ikki qismdan-jumboq va javobdan iborat bo‘lganligi uchun ham metaforik ko‘imning ma‘nosi topishmoq javobida reallashadi. Demak, javob-jumboqlangan narsa-topishmoqning ichidagi yashirin ma‘nosidir. Bu javob mana shu o‘xshailgan ko‘chma narsaning asl otidan iborat. O‘zbek topishmoqlaridan eng ko‘p qo‘llaniladigan badiiy tasvir vositalaridan biri jonlantirish hisoblanadi. Topishmoqlarda turli-tuman predmetlar jonlantirib, harakatga keltirilib ifodalanadi. Masalan: “Sari bobom ichkari, soqollari tashqari” (sabzi), “Onasi bitta, bolasi mingta”(oy, yulduzlar).

Ba'zi topishmoqlarda narsalarni jonlantirishda topishmoq aytuvchining shaxsiy ishtiroki bilan jumboqlash hollari ham uchraydi. Masalan: "Sandiqchamni ochdim-yopdim, sochlari tashqarida qoldi" (ko'z, kipriklar), "Bir tepdim chuk etdi, yer tagiga kirib ketdi"(ketmon). Jonlantirish topishmoqning yaratilishidan tortib undagi jumboqni yechimida ham muhim vosita, qolaversa, janrning poetik tabiatini, janr tarkibida obrazlilikning mohiyatini bajaruvchi usul sifatida katta o'rin egallaydi. Topishmoqlarning umri uzoq, shu sababli u bundan keyin ham yashayveradi.

Tez aytishlar asosan bolalarni to'g'ri va tez talaffuz qilishga o'rgatadi. Bir xil tovushlarni, ayniqsa, undoshlarning har bir so'zda keltirilish, u yoki bu boladagi ayrim talaffuz kamchiliklarini bartaraf etishga yordam beradi. mashqlar natijasida bolaning tili ravon, nutqi aniq va tushunarli bo'ladi.

Tez aytishlar yoki so'z o'yinlari o'zbek xalq og'zaki badiiy ijodining kichik janrlaridan biri bo'lib, ayrim nutq tovushlarining ko'p qaytarilish yoki tovushlarnig so'z va iboralar tarkibida murakkab joylashishiga asoslangan. Tez aytishlar ham deyarli hamma xalqlarning og'zaki ijodlarida uchraydi. Tez aytishda ma'lum fonemalar (ko'pincha jarangli undoshlar) takrorlanadi. Aksariyat tez aytishlar talaffuzi bir-biridan katta farq qiladigan fonemalar asosida jumladan, **"Sh"**, **"R"**, **"L"** undoshlari asosida tuziladi. Masalan: "O'sh o'sh pashshasi, pes pashsha", "Lola aralaydi, Sora allalaydi". Bu, birinchi turkumga kirgan tez aytishlar yordamida kichik yoshdagi bolaning yuqoridagi undoshlarni to'g'ri talaffuz qilishi, ularni boshqalari bilan almashtirib yuborishi ma'lum bo'ladi. Agar bola tilida "shirinlik" bo'lsa, u shunday talaffuz qilishi mumkin: "Os passasi pes pasa". Tez aytishlar hajmi jihatdan kichik bir jumladan iborat yoki katta-bir necha jumladan iborat bo'lishi mumkin.

1. **"G'ani g'ildirakni, g'ildiratib g'izillatdi".**
2. **"Tyanshan tog'ining tagida Toshmat tog'aning traktori tirillab turibdi" .**
3. **"Oq chaynakka-oq qopqoq, ko'k chaynakka ko'k qopqoq".**

Folklorning yana shunday janrlari borki, ular ko'rsatish uchun mo'ljallangan. Bu-og'zaki dramaturgiyadir. Og'zaki dramaturgiya xalq teatrining asosi hisoblanadi.

Xalq teatri aktyorlari va og‘zaki dramaturgiya ijodkorlarini qiziqchilar, masxarabozlar, qo‘g‘irchoqbozlar deb yuritiladi, ularning tomoshasi esa, qiziqchilik, masxarabozlik, qo‘g‘irchoq o‘yin deb ataladi. Xalq teatri zam o‘ziga xos yuksak san‘at bo‘lib, uning ijrochi va ijodkorlari ustoz masxarabozlar rahbarligida muayyan professional ta‘lim olishlari zarur.

Masxaraboz va qiziqchilar folklorning boshqa ijodkor va ijrochilardan (masalan, dostonchilardan) farq qilib, ma‘lum bir to‘p yoki kasabalarga uyushgan bo‘ladilar. Yirik shaharlar va qishloqlarda shunday to‘p yoki kasabalarni boshqa san‘atkorlar-hofizlar, muzikachilar, dorbozlar, askiyabozlar bilan birgalikda tashkil etadilar. Kasabaning o‘zj rahbari, sostavi kassasi bo‘ladi. Ularning boshqalar uchun tushunarsiz maxfiy tili-abdol tili mavjud. Folklor ijodkorlari va ijrochilarning shaxsiyati, ijod va ijro sharoitlarida aytish kuylash, ko‘rsatish va boshqarish tartiblari, aytuvchilikdagi umumiylik va o‘ziga xosliklar, ustoz va shogirdlar munosabatlari kabi qator masalalar doimo tekshiruvchilarning diqqat markazida bo‘lishi zarur. Professional ijodkor va ijrochilar-baxshilar, xalfalar, qiziqchilar, masxarabozlar, qo‘g‘irchoqbozlar, askiyachilar, dorbozlar, do‘mbirachilar, badiiy havaskorlik kollektivlari va folklor ansambllarining qatnashchilari bugungi kunda ham xalq madaniy-maishiy hayotida muhim rol o‘ynamoqdalar. Ular joylarda o‘zlarining jozibali san‘atlari bilan mahalliy xalqning ma‘naviy-estetik ehtiyojlarini qondirishda munosib hissa qo‘shmoqdalar.

Adabiyotlar:

1. K. Imomov, T.Mirzaev, B.Sarimsoqov, O.Safarov. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. T., O‘qituvchi, 1990 y.
2. Jirmunskiy V.M., Zarifov X.Z. Uzbekskiy narodnyy geroicheskiy epos. -M.: GIXL, 1947.
3. O‘zbek folklor ocherklari. T., Fan, 1987
4. D.O‘raeva. Motam marosim folklori. T., «Fan», 2005 y.
5. O‘zbek xalq afsun-duolarining janr xususiyatlari va badiiyati. T., «Istiqlol», 2006 y

Savol va topshiriqlar.

1. Qiziqchilik va masxarabozlik haqida ma'lumotlar bering.
2. Topishmoqlar va tezaytishlar haqida ma'lumotlar bering.
3. Topishmoqlardagi badiiy vositalar haqida ma'lumotlar bering.
4. Og'zaki dramalar aloqalari haqida ma'lumotlar bering.

5-mavzu: Askiya, og'zaki dramalar, latifalar, loflar.

Reja

1. Askiyaning o'ziga xos xususiyatlari.
2. Og'zaki dramalar, g'oyaviy-tematik xususiyatlari.
3. Latifalar, ularning ahamiyati.
4. Loflar haqida.

O'zbek folklori janrlari orasida faqat diolog asosiga qurilgan janr ham borki, u askiya nomi bilan yuritiladi. Mazkur janr o'z ijro xarakteriga ega bo'lib, u og'zaki dramaturgiya turiga mansubdir. Biroq, ijrochilarning grim va maskalar kiymasligi, maxsus sahnalarda ijro etilmasligi bilan og'zaki dramaturgiyaning boshqa janrlaridan farqlanib turadi. Askiya so'zning ko'chma ma'nolariga tayangan holda voqelikni keskin hajv yoki yumoristik xarakterda aks ettiradi. Shuning uchun ham askiyachi (askiyaboz)lar xalq orasida so'zga chechanligi bilan tan olingan shaxslar hisoblanadilar.

Askiya janr sifatida uzoq tarixga ega bo'lib, uning qadimgi namunalari bizga qadar yetib kelmagan. U asosan xalq sayil va bayramlarida, to'y yoki boshqa xildagi katta yig'inlarida ijro etiladi. Ijro paytida askiyabozlar o'zaro taraflashib oladilar va so'zning nozik ko'chma, ramziy ma'nolariga tayangan holda jamiyatdagi turli yaramas illatlarni fosh etadilar, nuqsonlar ustidan kuladilar. Askiyaning asosan ikki xil shakli mavjud: a) erkin askiya. Bunda askiyachilar uchun mavzu chegaralanmaydi va ular o'zaro erkin bahslashadilar. Askiyaning bu shakli ko'proq endi boshlovchi askiyabozlar yoki askiyabozlar bo'lmagan, ammo so'zga chechan kishilar o'rtasida o'tkaziladi. B) payrovlar. Payrovlar askiyaning yuksak taraqqiy etgan mukammallashgan shakli hisoblanib, hamma vaqt professional askiyachilar tomonidan ijro etiladi. Payrovlar belgilangan mavzu

doirasidagina o'tkazilib, askiyachidan keng bilim, boy tajriba, so'z sehrini nozik bilag'onlik va kuchli hozirjavoblik talab etadi.

Agar epik turda voqelik asosan so'zlab berish yoki qo'llab berish orqali ifodalansa, lirik turga mansub janrlarda esa kuylash orqali hissiy kechinmalar ifodalansa, folklor janrlarining ayrimlarida ana shu voqelik bevosita namoyish etish orqali ko'rsatiladi. Bunday janrlar turkumi o'zbek folklorshunosligida "og'zaki dramaturgiya" atamasi bilan yuritiladi. Og'zaki dramaturgiyada ijodkor ham, ojrochi ham, repertuarni saqlovchi ham masxaraboz, qiziqchi va qo'g'irchoqbozlarning o'zidir. Binobarin, ular ham aktyor, ham dramaturg, ham rejissyor shaxsiyatlarini o'zlarida mujassamlashtiruvchi ijodkorlardir.

Og'zaki dramaturgiya quyidagicha janrlardan tashkil topgan: a) muqallid(muqallid-satira, muqallid parodiya; muqallid-pantomima); b) tanqid. O'zbek og'zaki dramaturgiyasi juda qadimiy an'analarga ega bo'lib, o'tmishda u asosan xalq teatrlari shaklida tashkil topgan edi. bu narsa o'zbeklar o'rtasida asrimizning boshlaridayoq zamonaviy milliy teatrlar tashkil topishida katta rol o'ynaydi.

Masxaraboz va qiziqchilar, qo'g'irchoq teatrlari asosan mushtarak an'analar doirasida faoliyat ko'rsatgan bo'lsa-da, biroq ijro, obraz yaratish usullari jihatidan bu teatrlarning lokal tafovutlari ham yo'q emas edi. asosan sovet hokimiyati yillarida tashkil topgan professional o'zbek komediya hamda qo'g'irchoq teatrlariga xalq o'rtasida yashab kelgan masxarabozlik, qiziqchilik hamda qo'g'irchoq teatrlarining eng yaxshi an'alarini o'zlashtirib, rivojlantirib, kamol topmoqda. xalq san'atlari jamiyatdagi kamchilikka ega va tanqidga molik masalalarni tanlab olib, og'zaki dramalarda ularni namoyish etganlar. Xalq teatri uchun ko'cha, hovli, dala, bozor maydoni, guldon atrofi sahna vazifasini o'tagan. Og'zaki dramalar masxarabozlik tamoshalariga yaqin turadilar. Ammo ularning ikkisi bir narsa emas. o'zbek xalq og'zaki dramasi ob'ektiv hayotiy voqealiklarning ayrim tomonlarini satirik va yumoristik shakllarda aks ettiradi. Og'zaki dramalarda ko'proq boy va xizmatkor, er va xotin, xalfa va shogird, qozi

va davogar, tabib va bemor sahnalari namoyish etilgan. Og‘zaki dramalar yumoristik va satirik xarakterga ega.

Xalq latifalari o‘zbek folklori janrlari sirasida muhim o‘rin egallaydi. Latifa epizodik syujetga egaligi, voqeaning kutilmaganda boshlanib, kutilmaganda kulguli tugashi, ikki yoki uch shaxsning dialogidan iborat ortiqcha tasviriyligidan xoliligi bilan alohida ajralib turadi. O‘zbek xalq latifalari qahramoni tarixan anonim xarakterda bo‘lgan. Keyinchalik boshqa xalqlar og‘zaki ijodining ta‘sirida xalq latifalariga Aldar ko‘sa, Mushfiqiy, o‘zbek xalqining ajoyib farzandi, isyonkor shoir Mashrab kabilar asosiy personaj sifatida kirib keldi. prof.H.T.Zarifov haqli ko‘rsatishicha, XIX asrdan boshlab azarbayjon folklori orqali turk folklorining ta‘sirida Xo‘ja Nasriddin obrazi o‘zbek latifalarida yetakchi tip sifatida mustahkam o‘rin egalladi.

Latifa so‘zi arabcha lutf, latif so‘zlaridan olingan bo‘lib, nozik nafis ma’nolarini anglatadi. Latifalar xalq orasida keng tarqalgan bo‘lib, xalq og‘zaki prozasining voqeaband, hajman kichik, yumoristik xarakterdagi hajviy janrlaridan hisoblanadi. Latifalar juda qadimiy bo‘lishiga qaramay, ularning Nasriddin nomi bilan bog‘lanishi nisbatan keyingi davrlarga xosdir. Fikrning ixcham, lo‘nda ifodalanishi va favqulodda chuqur mazmun bilan tugallanishi, ba‘zan beg‘araz, ba‘zida achchiq kulgi uyg‘otish latifalarning muhim belgisi hisoblanadi. Ularda mo‘‘jaz, shingil hayotiy voqea bayoni qisqa beriladi, so‘ngra afandi so‘hbatdosh bilan savol-javobli bahsga kirishadi:

Afandi suvga ketayotgan o‘g‘lining yuziga bir tarsaki urib, ko‘zani sindirma, dedi.

-Bu nimasi, -dedi xotini-ko‘zani sindirmasdan turib necha urasiz bolani?

Afandi javob beradi:

-Sindirgandan keyin urishning nima foydasi bor, hozir ehtiyot shart-da.

Afandi uyiga qorni ochib kelib xotiniga:

-Xotin, bir oz suzma bilan non olib kel. Suzma ko‘p yaxshi narsa, ishtahani ochadi, me‘dani baquvvat qiladi –dedi.

-Suzma kecha tamom bo‘lgani, -javob berdi xotini

-Tamom bo'lgani yaxshi bo'libdi-dedi Afandi-suzma tishga va qoringa zarar qiladi.

-Bu so'zlaringizning qaysi biriga ishonay? –dedi xotini. –Bo'lsa-avvalgisiga, bo'lmasa-keyingisiga javob berdi.

Afandi.

Latifalarning qahramoni xalqning uyidagi, orzusidagi shaxs. U hammaga yoqadi. Hamma ayta olmaydigan, aytishga qo'rqadigan gaplarni u aytadi, jamiyatda nima yoki kim tanqidga loyiq bo'lsa, u, Afandiga duch keladi. Boshqacha qilib aytganda, Afandi hammani yengadi. U latifa yaratuvchilarning o'chlarini boplab oladi. odamlar kulib, mazza qilib, kayifiyatlari ko'tariladi.

Lof-kichik epik janrlar sirasiga mansub bo'lib, u asosan o'ta mubolag'ali tasvir orqali hajviy va yumoristik kafiyat uyg'otishga asoslanadi. Doston, ertak, latifa kabi janrlar tarkibida ko'plab lovlarning uchrashi uning mustaqil janr sifatida ancha qadimiy tarixga egaligi bilan izohlanadi.

Loy bir-biridan qolishmaydigan ikki qismdan iborat epizodik syujetga ega bo'lib, bu syujet askiyalardagidek ikki lofchi o'rtasidagi dialog shaklida bayon qilinadi. Har ikki qism ham mubolag'aning bir-biriga nisbatan kuchayib borishiga asoslanadi va shu orqali tomonlarning o'zaro musobaqada yutib chiqishga imkon tug'iladi. Loflarda mubolag'a fikrlardan tashqari tanqidiy qarashlar o'z ifodasini topgan. Loflar turli davrlarda shu davrning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarida kelib chiqib yaratiladi.

Adabiyotlar:

1. K. Imomov, T.Mirzaev, B.Sarimsoqov, O.Safarov. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. T., O'qituvchi, 1990 y.
2. Jirmunskiy V.M., Zarifov X.Z. Uzbekskiy narodnyy geroicheskiy epos. -M.: GIXL, 1947.
3. O'zbek folklor ocherklari. T., Fan, 1987
4. D.O'raeva. Motam marosim folklori. T., «Fan», 2005 y.
5. O'zbek xalq afsun-duolarining janr xususiyatlari va badiiyati. T., «Istiqlol», 2006 y

Savol va topshiriqlar.

1. Qo‘qon qiziqchilik maktabi haqida nimalarni bilasiz?
2. Folklorda satira va yumor.

6-Mavzu: O‘zbek xalq qo‘shiqlarining janr xususiyatlari va turlari.

Reja

1. Qo‘shiqlar va inson ruhiyati.
2. Qo‘shiqlar-xalq og‘zaki ijodining keng tarqalgan janri.
3. Qo‘shiqlarning shakl va mazmun jihatidan turlari.
4. Qo‘shiqlarning tuzilishi.

Insoniyat azal-azaldan o‘zi bilan sodir bo‘layotgan turli ruhiy holatlarni boshqalarga ifoda etishda ma’noli ta’sirchan so‘zlardan foydalanishga harakat qilganligi shubhasizdir. Kishi o‘z tashvishlari, alamlari bilan band bo‘lganligida bu haqda beixtiyor ko‘p o‘ylaydi. Hattoki o‘zi bilan o‘zi so‘zlashadi. Ana shu so‘zlarni ma’lum bir tartibga soladi. Ularning yig‘indisidan tashkil topgan matnni qayta-qayta takrorlaydi. Natijada, dastlabki qo‘shiqlar paydo bo‘ladi. Keyingi davrlarda esa ko‘pincha tayyor matnlar, ya’ni qo‘shiqlardan o‘zining ruhiy holati, kayfiyatiga moslarini ajratib olib kuylagan. Shuningdek, eskilari qatoriga o‘zi ham yangi qo‘shiqlar qo‘shib borgan. Ehtimol, Mahmud Qoshqariy qo‘shiqlar “Qo‘shug‘” deb ataganida mana shu fikrlardan kelib chiqqan bo‘lishi ham mumkin. Zanjirli kompozitsiyaga ega bo‘lgan qo‘shiqlar uch-to‘rt , ba’zan undan ortiq to‘rtliklardan tashkil topadi. Bunday qo‘shiqlar o‘ziga xos shartli syujetga, izchil badiiy mantiq oqimiga ega bo‘ladi. Ularda lirik qahramonning ruhiy holati, hattixarakati va tuyg‘ulari yetakchilik qiladi. Shunga qarab bu xildagi qo‘shiqlar muayyan shartli nomlar bilan yuritiladi. Shu tariqa xalq qo‘shiqlarining ikkinchi kompozitsion sathi – zanjirli kompozitsiyasi yuzaga keladi. “Oq ilon, oppoq ilon”, “Daryodan oqib kelodi”, “Qarg‘alar”, “Sunbula”, “Beqasam to‘nlar kiyib”, “Olma

pishganda keling” kabilar zanjirli kompozitsiya asosiga qurilgan qo‘shiqlarni tashkil etadi.¹

«**Mehnat** qo‘shiqlarining **kompozitsiyasi**» deb nomlangan va unda mehnat qo‘shiqlari atamasining turli-tuman mehnat turlari bilan bog‘liq holda ijro etiladigan janrlarning jamlovchi atama ekanligi, o‘zbek xalq og‘zaki ijodida esa inson mehnat faoliyatining uchta yirik sohasi – chorvachilik, dehqonchilik va hunarmandchilik bilan bog‘liq qo‘shiq janrlari saqlanib qolganligi yoritilgan.

Chorvachilik bilan bog‘liq qo‘shiqlarda mol, qo‘y va echkilarni sog‘ish paytida aytiladiganlari saqlanib qolgan. Ular ilmiy adabiyotlarda sog‘im qo‘shiqlar deb yuritiladi. Bu xildagi qo‘shiqlarning mavzu doirasi, obrazlar tizimi, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari ancha ko‘p o‘rganilgan².

Sigir sog‘ish paytida ijro etiladigan «Xo‘sh-xo‘sh» qo‘shiqlari sog‘ilayotgan hayvonni tinch ushlab turish, uni iydrib ko‘proq sut sog‘ib olishga xizmat qiladi. Bu qo‘shiqlar mustaqil to‘rtliklardan iborat bo‘lib, birinchi kompozitsion sathdagi birinchi, ikkinchi va uchinchi kompozitsion tiplar asosida yaratilgan.

Qo‘ylarni sog‘ish paytida ijro etiladigan «Turey-turey» qo‘shiqlari ham alohida-alohida to‘rtliklardan iborat bo‘lib, ularning barchasi birinchi kompozitsion sathdagi ikkinchi va uchinchi kompozitsion tiplarga mansubdir.

Echkilarni sog‘ish paytida ijro etilgan «Churey-churey» qo‘shiqlari ikki xil band tuzilishiga ega. Ko‘pchilik mustaqil to‘rtliklardan tashkil topgan qo‘shiqlar birinchi kompozitsion sathdagi ikkinchi kompozitsion tipga mansub bo‘lsalar, olti misradan tashkil topgan bandlarda dastlab to‘rtta mustaqil tezis keltirilsa, beshinchi misra antitezis, oltinchi misra sintez vazifasini o‘taydi.

Sog‘im qo‘shiqlarida sog‘ilayotgan hayvonni tinchitish asosiy mavzu bo‘lsa ham, ba’zan ularda sevgi, sevimli yorga sog‘inch motivlari ham kuylanadi. Ishda bu masalalar ko‘plab misollar tahlili asosida keng yoritilgan.

¹ Раҳматилла Носиров. Халқ қўшиқларининг занжирли композицияси. Ўзбек тили ва адабиёти. Тошкент. 2002 йил 3-сон, 33-б.

² Очиллов К. Соғим қўшиқлари ҳақида. Ўзбек тили ва адабиёти. -1972. Б72-75.

Bunday qo'shiqlardan bizga qadar qo'sh haydash, yetilgan hosilni o'rib olish, uni yanchish paytida ijro etilgan qo'shiqlargina yetib kelgan.

Qo'sh qo'shiqlarda hayvonlarni qo'sh tortishga da'vat etish, ayni paytda o'z ahvolini bayon etish, og'ir turmushdan shikoyat qilish, sevgi mojarolarini ifodalash motivlari kuylangan. Qo'sh qo'shiqlari mustaqil to'rtliklardan iborat bo'lib, ular asosan tezis-tezis-antitezis va sintez tarzidagi ikkinchi kompozitsion tipga mansub qo'shiqlardir.

O'rim qo'shiqlari dam mehnat qo'shiqlarining kattagina qismini tashkil etadi. Ular asosan 5-8 xijoli barmoq, vazniga mansub bo'lib, $a+a+a+a$, $a+a+b+b$, $a+a+b+a$ shaklida kofiyalangan.

Dehqon mehnatining samarasi xirmon ko'targanda ma'lum bo'ladi. Xalq o'rtasida yanchiq qo'shiqlari «mayda», «galagov qo'shiqlari» yoki «Xo'n-mayda» singari atamalar yuritilib kelingan bo'lib, ular dehqon faoliyatining shu pallasida ijro etiladi.

Xo'p-mayda qo'shiqlari kompozitsiya jihatidan alohida to'rtliklar sathiga mansub bo'lib, har bir to'rtlikning ikki misrasi mustaqil tezis, uchinchi misrasi antitezis va to'rtinchi misrasi sintezdan tashkil topgan. To'rtlikning bunday kompozitsiyasi ijrochiga turli xildagi his-tuyg'uni ifodalash, voqelikning rang-barang qirralarini aks ettirishga imkon beradi. Shuning uchun ho'p-mayda qo'shiqlarining mavzu qamrovi keng, motivlar ifodasi rang-barangdir.

Yanchiq qo'shiqlarining ayrimlarida dehqonning og'ir mehnat va turmush qiyinchiliklaridan nolishi, soliq yig'uvchilarning insofsizligidan zorlanishi, ularga yomonlik tilashi kabi motivlar tezis+sintez+tezis+sintez shaklidagi uchinchi tipdagi kompozitsiya vositasida ifodalangan.

O'zbek xalq mehnat qo'shiqlari ichida hunarmandchilik bog'liq qo'shiqlar o'rin egallaydi. Mehnatning bu turi chorvachilik, dehqonchilik kabi mehnat turlariga nisbatan keyinroq yuzaga kelgan. U dastlab dehqonchilik, ovchilik va chorvachilik uchun ish qurollari yasash bog'liq xolda shakllangan. Keyinchalik kishilarning maishiy hayoti rivojlandi, xar bir ypyg' yoki qabila o'z mudofaasi uchun jang qurollari yasaydi, shu birga, kiyim-kechak va san'at

mahsulotlari tayyorlay boshladi. Hunarmandlar o'zlari tayyorlagan mahsulotlarni bozorlarga olib chiqib sota boshladilar. Shu tariqa hunarmandchilik alohida mehnat sohasi sifatida inson hayotida mustahkam o'rnashib qoldi.

Hunarmandchilikning tarmog'i ko'p, lekin bu soha aloqador qo'shiqlardan o'zbek xalq mehnat qo'shiqlarining urchuq, charx yigirish, kashta, do'ppi tikish, o'rmak o'rish, to'n va tikish bog'liq janrlarigina saqlanib kolgan.

Urchuq biror matoni to'qish uchun zarur bo'lgan ipni mustahkam eshishda qo'llaniladigan asbob. Qo'l mehnatiga asoslangan bu ish uzoq vaqt talab etadigan zerikarli jarayon bo'lib, ip yigiruvchi ayollar ish paytini ko'ngilli o'tkazish, mashaqqatli mehnatni yengillatish, o'zlarini ovutish maqsadida maxsus to'rtliklar shaklida qo'shiqlar to'qiganlar.

Hunarmandchilikka mansub qo'shiqlar ichida charx yigirish paytida ijro etilgan qo'shiqlar alohida o'rin egallaydi. Mohiyat e'tibori charx urchuqdan keyin yuzaga kelgan ip yigiruvchi asbob bo'lib, uning ish unumi ancha yuqori.

Charx qo'shiqlari ham mehnat jarayonini yengillashtirish, charx yigirayotganlarning quvonch-orzularini, og'ir turmushdan shikoyatlarini ifodalovchi alohida to'rtliklardan iborat bo'lib, ular tezis+tezis+antitezis+sintez shaklidagi ikkinchi, tezis+sintez+tezis+ sintez shaklida uchinchi kompozitsion tiplar asosida yaratilgan.

Gilam, sholcha to'qish paytida ijro etiladigan o'rmak qo'shiqlari ham o'zbeklar o'rtasida keng tarqalgan. Bu mehnat turi ham og'ir va zerikarli bo'lib, to'quvchilar ish paytida o'zlarini ovutish uchun turli mavzulardagi mustaqil to'rtliklar yaratganlar. Bu to'rtliklar esa asosan tezis+ tezis+ antitezis+ sintez shaklidagi ikkinchi tip kompozitsiya asosida yaratilgan.

Kashtachilik O'rta Osiyo xalqlarida, xususan, o'zbeklarda uzoq tarixga ega. Chimildiq, sochiqlar, parda va joynamozlar, zar chopon va do'ppilarga tikilgan bezaklar, gullar, hayratomuz shakllar nozikligi, simmetrik aniqligi va ramziy ma'nolar anglatishi barchani o'ziga maftun etadi. O'zbeklarda kashta tikish

an'anasining qadimiyligi shu izohlanadiki, hozirgacha kashtaning sanama, bosma, jamalak, yo'rma kabi turlari yuzaga kelgan. Ularning har biri kashtachidan alohida mehnat, iqtidor talab etadi.

To'n va tikish paytida aytiladigan xalq qo'shiqlari ham alohida to'rtliklar shaklida bo'lib, ular ikkinchi va birinchi kompozitsion tiplar asosida yaratilgan.

Qo'shiqlar-o'zbek folklorining qadimiy va keng tarqalgan janrlardan biri. Chunki ertaklarni, ayniqsa dostonlarni har kuni istalgan joyda ijro etilmaydi. Qo'shiqlarni esa har qanday auditoriyada, yakka shaxsning o'zi aynan o'zi uchun ham ijro etishi mumkin. Shu boisdan, uni eng keng tarqalgan janr sifatida ko'rsata olamiz. Bugungi kunda ham xalq qo'shiqlari o'zining ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Bilamizki, zamonaviy muzika asboblari jo'rligida, zamonaviy kuylarda ham xalqimizning bir necha yuz yillar muqaddam yaratilgan qo'shiqlari ijro etilmoqda.

O'zbek xalq og'zaki ijodida qo'shiqlar salmoqli o'rin egallaydi. Qo'shiq-turkiy qo'shmoq fe'lining o'zagidan yasalgan bo'lib, misraga misrani qo'shib kuylash, aytish ma'nolarini anglatadi va bu atama ikki ma'noda qo'llanadi. Keng ma'noda u og'zaki lirika turini anglatadi va bu ma'no, ya'ni she'riyat, qasida, qo'shiq ma'nolari Mahmud Qoshqariyning "Devonu lug'otit turk" asarida ham aytib o'tilgan. Tor ma'noda qo'shiq atamasi og'zaki lirik turga mansub mustaqil janrni anglatadi. Qo'shiqning mustaqil janr atamasi esa asarda ifodalangan mazmunga, qo'shiqning ijro o'rni, tarzi va vazifasiga qarab turli sifatlovchilar bilan birgalikda nomlanadi. Masalan, qo'shiq mehnat jarayonida bo'lsa mehnat qo'shiqlari, yoki qo'shiqda ishq-muhabbat kuylansa lirik qo'shiqlar deb yuritiladi. qo'shiqlar ko'proq barmoq vaznida yaratiladi, ayrimlari aruz vaznida ham uchraydi.

O'zbek xalq qo'shiqlari janr mansubiyati, yaratilish davri, ijro o'rni va turi kabilar jihatidan xilma-xillik kasb etadi. Bu jihatdan xalq qo'shiqlari marosim va marosimga aloqasiz qo'shiqlarga bo'linadi. To'y va boshqa marosimlarda ijro etiladigan yoki motam yig'ilari marosim qo'shiqlarini tashkil etadi.

Marosimga aloqasiz qo'shiqlarga mehnat va lirik qo'shiqlar mansub. Quyida o'zbek xalqining mehnat va lirik qo'shiqlari haqida so'z yuritiladi.

1. Mehnat qo'shiqlari quyidagi guruhlariga ajratiladi:

A) dehqonchilik bilan bog'liq qo'shiqlar (qo'sh, yanchiq, o'rim, yorg'ichoq qo'shiqlari)

B) Chorvachilik bilan aloqador qo'shiqlar (xo'sh-xo'shlar, turey- turey)

V) Hunarmandchilik bilan bog'liq qo'shiqlar (bo'zchi, charx, o'rmak, kashta qo'shiqlari).

2. Lirik qo'shiqlar.

Sevgi, vafo, hijron va sog'inch, alam va o'kinch, kishilar qalbidagi o'tli dard tufayli vujudga kelgan, faqat kuylash uchun yaratilgan mustaqil to'rtliklar **lirik qo'shiq** deyiladi.

Kelin salom qo'shiqlari.

Qashqa vohasida yashovchi xalqlar og'zidan yozib olingan turli mavzulardagi qo'shiqlar orasida "kelin salom"larp maxsus o'rganilmagan. "Kelin salom" qo'shiqlarining ba'zi namunalari o'zbek folklorshunosligi to'plamlariga kiritilgan. O'zbek xalq qo'shiqlarini maxsus tekshirgan M.Alaviya "O'zbek xalq qo'shiqlari", "O'zbek xalq marosim qo'shiqlari" kitoblarida xalq qo'shiqlarining yaratilishi, tarqalishi, turlari, badiiy xususiyatlarini tahlil qilgan. Shuningdek, H.Zaripov, M.Murodov, T.Mirzaev, Ch.Hamroev, B.Sarimsoqov, H.Ismoilov, A.Qahhorov, K.Ochilov, A.Ergashev kabi folkloshunos olimlar qator yillar davomida to'plagan manbalarida ko'plab kelin salom qo'shiqlarini yozib olgan bo'lsada, ular ilmiy jihatdan maxsus tadqiq etilmagan. Ular to'rt, ko'p hollarda ikki, ba'zan uch misradan tashkil topib, oxirgi misraga kelin salom qo'shib aytiladi. Kelin salom qo'shiqlarini yozib olish va uni tadqiq etish dolzarb mavzulardan hisoblanadi. Kelin to'yi deganda, ikki qalbning bir-biri bilan mehr iplari bilan bog'lanishi tushuniladi. Sho'x kuylar, quvnoq yallalar, laparlar, o'lanlar, kelin salomlar, yor-yorlar, do'stlar qutlovi kishilarda ko'tarinki, shodon kayfiyat uyg'otadi.¹

¹Камол Очилов. Келин салом қўшиқлари. Ўзбек тили ва адабиёти. Тошкент. 2008 йил 1-сон, 67-б.

O‘sh viloyatida o‘zbek nikoh to‘ylarida “kelin salom”.

Janubiy Qirg‘iziston O‘sh, O‘zgan shahri, Arovon, Novqat, Qorasuv viloyatlari o‘zbek nikoh to‘ylarida “kelin tushirish”, “yuz ochdi” marosimi bilan bog‘liq holda “kelin salom” o‘zining ijro o‘rni va vazifasiga ko‘ra bir necha turlarga bo‘linadi:

1. Nikoh to‘yi kuni o‘tkaziladigan “kelin tushirish” marosimi bilan bog‘liq “kelin salom”;
2. Nikoh to‘yining ertasi kuni qilinadigan “yuz ochdi” marosimi bilan bog‘liq holda “kelin salom”;
3. “Yuz ochdi” marosimining ertasi kuni tong saharda beriladigan “kelin salom”lar¹

Farg‘ona vodiysi o‘zbek to‘y marosim folklorida yor-yor janrining ijro o‘rni.

Farg‘ona vodiysi o‘zbek to‘y marosim folklorida “Qiz qochar” yoki “qiz bekitar” marosimida qiz o‘z ota-onasi hamda tug‘ilgan uyi bilan xayrlashuv chog‘ida ijro etiladigan yor-yorlar matnida ota-ona va qizning ruhiy xolati ifoda etiladi:

Uzoqqa qiz bermanglar-o,

Rangi sariq, yor-yor-ey, rangi sariq.

Onasining ko‘zlari,

Misli ariq, yor-yor-ey, misli ariq.

Oq miltiq, qora miltiq,

Otgan otam, yor-yor-ey, otgan otam.

O‘z qizini yot qilib-o, sotgan otam.

O‘z qizini o‘rniga bodom eksin,

Bodom shoxi singanda bolam, desin.²

To‘y qo‘shiqlarida duo mazmunining ifodalanishi.

To‘y qo‘shiqlarida ko‘proq kelin-kuyovni olqishlab, ular haqiga duo qilinadi:

Oq o‘tovlar qurilgan ayvoninga, yor-yor.

O‘g‘il-qizing o‘ynasin to‘rt yoningda, yor-yor.

¹ Оқибатхон Исмонова. Ўш вилоятида ўзбек никоҳ тўйларида “келин салом”. Ўзбек тили ва адабиёти. Тошкент. 1998 йил 3-сон, 38-б.

² Оқибатхон Исмонова. Фарғона водийси ўзбек тўй маросим фольклорида ёр-ёр жанрининг ижро ўрни. Ўзбек тили ва адабиёти. Тошкент. 2006 йил 4-сон, 68-б.

Kuyov-qayliq ikkisi unib-o‘ssin, yor-yor.

To‘qqiz qizu, to‘qqiz o‘g‘il xudo bersin, yor-yor.

Yig‘lama qiz, yig‘lama, yo‘ling bo‘lsin, yor-yor.

Qo‘lga olib suyguday, o‘g‘ling bo‘lsin, yor-yor.

Oylar o‘tib oldingda o‘g‘ling bo‘lsin, yor-yor.

Parizodga o‘xshagan qizing bo‘lsin, yor-yor.¹

O‘zbek xalq “yor-yor”larining janr xususiyatlari. O‘zbek xalq “yor-yor”larining musiqaga munosabatiga kelganda, shuni alohida aytish kerakki, odatda yor-yorlar doira jo‘rligida ijro etiladi. Keyinchalik ayrim joylarda yor-yor ijrosi paytida tor, bo‘lomon, garmon kabi cholg‘ularning jo‘r bo‘lishi ham kuzatilgan. Bu narsa asosan Xorazm yor-yorlari uchun xos bo‘lib, u o‘zga joylarda uchramaydi.²

Insoniyat tarixi kashfiyotlar tarixidir. Mangu vaqtni osmon jismlari harakati va tabiat hodisalari holatiga qarab lahza, daqiqa, kun, fasllar, yillar, asrlarga taqsimlash ham insonning ana shunday eng buyuk kashfiyotlaridan biri bo‘lgan. Bu kashfiyot tufayli asrlar davomida ovchilik, termachilik, chorvachilik, dehqonchilik rivojlandi. Xalqning asriy tajriba va bilimlari avlodlardan-avlodlarga yetib keldi. Zamirida mifologik dunyoqarash yotgan ibtidoiy dinlardan to xalqaro dinlargacha bo‘lgan ta’limotlar qaror topdi. Oilaviy, mahalliy, milliy, xalqaro urf-odatlar, irimlar, marosimlar, bayramlar paydo bo‘ldi va insoniyatning beqiyos ma’naviy qadriyatlariga aylandi.³

Har bir xalqning milliy o‘ziga xosligini ko‘rsatadigan an‘ana va marosimlari, urf-odat va bayramlari bor. Asrlar bo‘yi yaratilib, zukko xalqning yuksak ijodiy salohiyati tufayli sayqallanib kelgan ana shunday an‘analar aslida o‘sha millatning o‘zligini, milliy qiyofasini belgilaydi. Ikki azim daryo oralig‘ida shu muborak zamin-ona diyorimiz O‘zbekistonda o‘ziga xos qadimiy madaniyatni bunyod etgan zukko ajdodlarimizning yaratuvchilik, yasharish, yangilanish bilan bog‘liq eng ezgu va hayotbaxsh g‘oyalarini o‘zida

¹ Феруза Хайитова. Тўй қўшиқларида дуо мазмунининг ифодаланиши. Ўзбек тили ва адабиёти. Тошкент. 1998 йил 4-сон, 64-б.

² Шахло Баротова. Ўзбек халқ “ёр-ёр”ларининг жанр хусусиятлари. Ўзбек тили ва адабиёти. Тошкент. 1998 йил 2-сон, 46-б.

³ Жўраев М. Наврўз байрами. Т. Фан. 2009 й. 3-б.

mujassamlashtirgan navro‘z bayrami ham ana shunday betakror va muhtasham badiiy qadriyatlardan hisoblanadi.¹ Zero “Ko‘klam nafasi ufurib, mayin shabadalar esa boshlashi, tabiat uyg‘onib, kurtaklarning ochilishi bilan inson vujudiga yangi kuch, yangi g‘ayrat kirgandek, uning tomiriga, uning qon-qoniga hayot va bahor nafasi yugurgandek bo‘ladi, yuragimizni, butun borlig‘imizni yaxshilik va yaratuvchilikka undaydi”²

Qadimgi tarixga ega bo‘lgan o‘zbek xalq qo‘shiqlari folklorning eng ko‘p tarqalgan, keng ommalashgan, suyumli va faol janrlaridan bo‘lib, xalqning bilimi, tajribasi, ma‘naviy qadriyatlari xazinasi sanaladi. Prezidentimizning alla qo‘shiqlari haqida: “Ona allasi faqat chaqaloq orom olishi uchun aytilmaydi, balki uning vositasida bolaning ko‘ngil dunyosiga milliy ruh kiradi. Ona tilidagi mehr-muhabbat, nasliy tuyg‘ular va orzular go‘dakning jismu jonida ildiz qoldiradi”, - deya bildirgan fikrlari qo‘shiqlarimizning ta’sir kuchi va tarbiyaviy mohiyatiga berilgan yuksak bahodir.

Lirik qo‘shiqlar odatda xalq o‘rtasida matnni yaxshi biluvchi, hofizasi kuchli, yoqimli ovozga ega bo‘lgan shaxslar tomonidan ijro etiladi. Bunday ijrochilar xalq o‘rtasida qo‘shiqchi, ashulachi yoki xofiz deb yuritiladi, lirik qo‘shiqni istalgan shaxs, istalgan joy yoki vaziyatda ijro etish mumkin.

O‘zbek lirik qo‘shiqlarida ishq-muhabbat mavzui yetakchi o‘rin egallaydi. Ushbu mavzuda yaratilgan qo‘shiqlarda chin muhabbatni ulug‘lash, yorga sadoqatli bo‘lish, mahbubaga intizorlik mavzui kuylanadi.

Havoni bulut bosdi,

Oyni ko‘rmasam bo‘lmas.

Yuraklarni g‘am bosdi,

Yorni ko‘rmasam bo‘lmas.

Xalq qo‘shiqlarining bir guruhida hayotni hajviy yo‘l bilan tasvirlash ko‘zga ko‘rinadi. Bunday qo‘shiqlarda boylar, ularning erka farzandlari haqida kulguli misralar uchraydi.

¹ Жўраев М.Наврўз байрами.Т.Фан.2009 й.14-б.

² И.Каримов.Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари- олий қадрият.14-том.Т.2006 й.

**Boylar g‘ashlab keladi,
Oti kishnab keladi.
Sho‘ring qurg‘ur kambag‘al
Boshini qashlab keladi.
Oq kaptarim don yeydi,
Ko‘k kaptarim non yeydi.
Boyning erka qizlari,
Betini yuvmay non yeydi.**

Qo‘shiqlar o‘zining tuzilishiga ko‘ra ham originaldir. Bu shunda ko‘rinadiki, ular o‘sha yaratuvchining kayfiyati va undan kelib chiqib, qo‘shiqdan anglashiladigan mazmundan kelib chiqib, ixcham misralardan tashkil topgan bo‘lib, to‘rtliklardan iborat bo‘lishi yoki alam, iztirob ko‘proq ifodalangan holatlarda g‘azallarga yaqin tuzilishga ega bo‘lib, qo‘shaloq misralardan iborat bo‘lishi mumkin. Masalan:

**Eshik oldi gul hovuz,
Gul tergani kelganmiz
Gulni bahona qilib,
Yor ko‘rgani kelganmiz.**

Ketdi yorim naylayin, bellarni mahkam bog‘layin, yorga o‘rgangan ko‘ngil yolg‘iz turolmas naylayin.

Qo‘shiqlar asosan to‘rtliklardan iborat bo‘lib, ularning mundarijasi xilma-xildir. Biz to‘rtlik deb atagan qo‘shiq o‘zbek xalqi ichida eng ko‘p tarqalgan, ma’lum bir ohangda yoki kuy jo‘rligida aytiladigan vazn va qofiyaga ega bo‘lgan xalq poeziyasidir.

Qo‘shiqlar vazni asosan, yetti, sakkiz, to‘qqiz, o‘n bir hijoli bo‘lib, qofiyalar turlichadir. Birinchi, ikkinchi va uchinchi misralar qofiyadosh bo‘lib kelgan qo‘shiqlar ham uchraydi.

**Qaysi chamandin esib keldi sabo, yor-yor
Kim damidan tushti o‘t jonim aro, yor-yor**

Bunday qofiyalanish qo‘shiqning har bir turida ham uchraydi. Ikki hijoli qo‘shiqlarda birinchi misra ikkinchisi, uchinchi bilan to‘rtinchi qofiyadosh bo‘lib keladi. Yana qo‘shiqlarda yuqoridagi uch misra qofiyadosh bo‘lib, oxirgi misra davom etayotgan to‘rtliklarning to‘rtinchi misrasida takrorlanib keladi.

Suv bo‘yida turgan yigit

Qoshu ko‘zini suzgan yigit

Bilak uzugimni olgan yigit

Endi bergil bilak uzugimni

Qo‘shiqlar o‘zining mazmuniga mos shakllarni oladi. quvnoq qo‘shiqlar ko‘proq to‘rtliklardan iborat bo‘lib, 7,9 bo‘g‘inli misralardan tashkil topadi. Aksincha bo‘lgan holatlarda yuqorida ko‘rilganidek, baytlarga yaqin shakllar ko‘proq ko‘zga tashlanadi.

“Yo ramazon” qo‘shiqlari haqida ba’zi mulohazalar.

Xalq orasida turli-tuman mavsumiy ish harakatlar, bayramlar, oylar va yil fasllari bilan bog‘liq qo‘shiqlar keng tarqalgan. Taqvim bilan bog‘liq o‘zbek marosim folklori quyidagi janrlarni o‘z ichiga oladi:

a) qamariy yil bilan bog‘liq folklor janrlari: Barot keldi, ramazon, Safar qochdi va boshqalar.

b) shamsiy yil bilan bog‘liq folklor janrlari: Qozon to‘ldi, Sumalak, Birinchi qush, Boychechak va boshqalar.

v) muchal bilan bog‘liq folklor janrlari: muchal to‘yi folklori.

Manbalarda qayd qilinishicha, Ramazon musulmon malakatlarida ro‘za tutiladigan oy bo‘lib, qamariy yil hisobida to‘qqizinchi oyning arabcha nomidir. Ramazon oyi barcha musulmonlar uchun aziz va muqaddasdir. Bu oy davomida mariatga ko‘ra musulmonlar ro‘za tutadilar. O‘n to‘rt asrdan buyon bashariyat olamini hidoyat sari da’vat etib kelayotgan “Qur’oni karim” ham ushbu oyda nozil bo‘lgan.¹

¹ Манзура Пирматова. “Ё рамазон” қўшиқлари ҳақида баъзи мулоҳазалар. Ўзбек тили ва адабиёти. Тошкент. 1998 йил 5-сон, 33-б.

Qo‘shiqlar inson ruhiy holatlarini osonroq, ko‘proq ifodalagani, doston kuylash singari maxsus tayyorgarligini va auditoriyani talab qilmagani uchun ham mehnat jarayoniga yaqin turadilar.

Adabiyotlar:

1. K. Imomov, T.Mirzaev, B.Sarimsoqov, O.Safarov. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. T., O‘qituvchi, 1990 y.
2. Jirmunskiy V.M., Zarifov X.Z. Uzbekskiy narodnyy geroicheskiy epos. -M.: GIXL, 1947.
3. O‘zbek folklor ocherklari. T., Fan, 1987
4. D.O‘raeva. Motam marosim folklori. T., «Fan», 2005 y.
5. O‘zbek xalq afsun-duolarining janr xususiyatlari va badiiyati. T., «Istiqlol», 2006 y

Savol va topshiriqlar.

1. Qo‘shiq atamasining kelib chiqishi haqida nimalarni bilasiz?
2. Marosimlar bilan bog‘liq qo‘shiqlarga misollar keltiring.
3. Qo‘shiqlar nima sababdan ko‘proq barmoq vaznida yoziladi?

7-Mavzu: O‘zbek xalq ertaklari.

Reja

1. Ertaklarning janr xususiyatlari, tasnifi.
2. Hayvonlar haqidagi ertaklar.
3. Sehrli-fantastik ertaklar.
4. Hayotiy maishiy ertaklar.

Hayot haqiqati bilan bog‘liq bo‘lib, hayotiy va hayotiy uydirmalar asosiga ko‘rilgan, didaktik g‘oya tashuvchi og‘zaki hikoyalar **ertak** deyiladi.

Ertak-o‘zbek og‘zaki prozasining yetakchi janrlaridan biri bo‘lib, ularda xalqning ulug‘vor g‘oyalari, dunyoqarashi, ruhiy kechinmalari, sotsial-ahloqiy ideallari o‘ziga xos yo‘sinda badiiy aks etadi. Binobarin, ertaklar hech vaqt bekorchi, ertak narsalar emas, ular hamma vaqt muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadilar.

Ertak janrining oʻziga xos xususiyatlarini belgilashda rus va qardosh xalqlar folklorshunoslari eʼtiborli fikrlarni ilgari suradilar. Ulugʻ proletar yozuvchisi M.Gorkiy ertak va uning gʻoyaviy-badiiy tabiati haqida fikr yuritib, ertak asosida uydirma yotajakligiga ishora qiladi: “Ertaklarda eng avval uydirma, hodisalarni oldindan koʻra biluvchi tafakkurimizning ajoyib xususiyati ibratlidir. Ertak oʻzining tarixiyliigi va voqelikni aks ettirish prinsiplari bilan ajralib turadi. Ertaklarning yuzaga kelishi real voqelikni hissiy qabul qilish va uni aks ettirishdan boshlangan. Ertak syujetini tashkil etuvchi epik motivlar asosida ibtidoiy jamoa tuzumiga oid tartiblardan tortib feodalizm jamiyati qonun-qoidolari, shuningdek matriarxat va patriarxatga doir turli qatlamlar, shuningdek magiya hamda tabu bilan bogʻliq urf-odatlar; animizm, totemizm, fetimizm kabi eʼtiqodiy qarashlarga aloqador voqea-hodisalar yotadi. Ertak asosini tashkil etgan har bir voqea uydirma magʻiziga sngib ketib noaniq fomulaga aylanib qolgan. Zotan, bu narsa folklorning boshqa janrlarida nisbatan aniq koʻrinadi va sezilib turadi”.

Bahodirlik ertaklari (“Pahlavon Rustam”, “Qahramon”, “Qiron ogʻa” va boshqalar)ning mifologik eʼtiqod va qadimiy marosimlarni oʻzida jamlab, ming yillar davomida saqlanib kelgan namunalari sinfiy jamiyatning dastlabki bosqichlarida, eramizning minginchi yillari davomida yuzaga kelgan.

Uydirma-ertak asosini tashkil etadi. U ertak voqealarini boshqaradi va muvaffaqiyatli yakunga olib keladi. Syujet voqealarining dinamikasini taʼminlab, obrazlar sistemasini belgilaydi. Shuning uchun ham uydirmalar asos boʻlgan syujetlarda voqea va hodisalar hayotiylikdan yiroq, toʻqimadek, koʻrinadi. Uydirma va uning daraja-miqdori, turli xil elementlari butun syujet davomida oʻziga xos gʻoyaviy-estetik funktsiya ado etadi. Darhaqiqat, uydirma ertakda asosiy va hal qiluvchi janriy komponent, uning asosiy belgisi hisoblanadi. Uydirmaning turi va genetik asoslarini aniqlash, funksional jihatlarini belgilash u yoki bu ertak syujeti, uning oʻziga xos badiiy tasvir vositalarini aniqlash imkonini beradi. Buning uchun, eng avvalo, uning spetsifikasi, tarixi hamda tashkil topgan manbalarini aniqlash, poetik transformatsiyasi va shu transformatsiya jarayonida yuz bergan oʻzgarishlarni belgilash zarur.

Ertak-bir butun holda alohida janr. Ertaklar motivlar sistemasi, obraz va personajlar xususiyati, g'oyaviy-badiiy yo'nalish, konflikt xarakteri syujet va kompozitsiyasi, uydirmalarning tabiati va funksiyasi, tili va uslubiga ko'ra shartli ravishda uch turga bo'linadi: 1) hayvonlar haqidagi ertaklar; 2) sehrli ertaklar; 3) maishiy ertaklar.

Sehrli ertaklar o'z navbatida bahodirlik tipidagi ertaklar hamda sehrli-sarguzasht tipidagi ertaklar kabi turlarga bo'linadi. Maishiy ertaklar nohajviy va hajviy ertaklarga, nohajviy ertaklar esa ishqiy sarguzasht va topishmoqli ertaklarga bo'linadi.

Hayvonlar haqidagi ertaklar.

Hayvonlar haqidagi ertaklarning yuzaga kelishi va shakllanishi davri ibtidoiy jamiyat bosqichlariga kirib boradi. Uning dastlabki namunalari hayvonlarga munosabat, dunyoqarash hamda urf-odatlar zamirida yuzaga kelgan va tarixiy taraqqiyotning turli xil bosqichlari ta'sirida rivojlandi. Binobarin, bu xil ertaklar o'zida qadimgi dunyo falsafasi, ahloqiy normasi, turmush tarzi, tabiat va hayvonlar haqidagi tushunchalarini tashiydi.

Hayvonlar haqidagi ertaklar mazmuni aniq va lo'nda ifodalanib, ularda hayvon-personajlar bilan bir qatorda majoziy ma'no kasb eta boshlagan hayvon-personajlar ishtirok etadi. Hayvon-personajlarning bunday xillari shubhasiz, tabiat va hayvonlarga nisbatan munosabat va dunyoqarashning har xilligidan kelib chiqadi. Darhaqiqat, har bir ijtimoiy-iqtisodiy davrga xos u yoki bu hayvonga munosabat ertak personajlari va motivlariga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmas edi.

G'.Jalolov "O'zbek xalq ertaklarini poetikasi" nomli kitobida hayvonlar haqidagi ertaklarning xarakterli tomonlari, poetik yo'nalish, temalar, g'oyalar va personajlarni biroz kengroq tahlil qiladi. Biz asosan mazkur tipdagi ertaklarning tarixi, genetik asoslari, o'ziga xos evolyutsiyasi va poetik transformatsiyasi, spetsifikasi va tasnifini tahlil ob'ekti qilib oldik.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib hayvonlar haqidagi ertaklarni shakl va mazmuniga ko'ra shartli ravishda ikki turga bo'lib o'rganish mumkin: biri-sof

hayvonlar haqidagi ertaklar, ikkinchisi-tom ma'noda majoziy ma'no kasb etgan hayvonlar haqidagi ertaklar.

Sof hayvonlar haqidagi ertaklar nisbatan qadimiy bo'lib, ulardagi personaj va motivlar sistemasi ibtidoiy tushunchalar bilan bog'langan.

Xullas, sof hayvonlar haqidagi ertaklarda ibtidoiy tushunchalar saqlangan, biroq ma'lum davrga kelib bu belgilar ijtimoiy taraqqiyot jaryonida o'z kuchini yo'qotib, sotsial ma'no kasb etgan va estetik funksiyani ado etuvchi poetik vositalarga aylangan. Sinfy jamiyatning chorvachilik tuzumi bosqichida chorvaga, uy hayvonlariga e'tibor ortdi. Chunki uy hayvonlari kishilarning asosiy iqtisod manbaiga aylandi, ayni paytda, ular chorvadorda yirtqich hayvonlarga nisbatan nafrat uyg'onishga sababchi bo'ldi. Chorvachilik bilan shug'ullanish uy hayvonlariga ziyon keltirgan vahshiy hayvonlarni qoralashni kuchaytirdi. Demak, bu davrda real voqelik-vahshiy hayvonga tanqidiy munosabat undan o'ch olish maqsadidan kelib chiqadi.

Majoziy hayvonlar haqidagi ertaklar o'zbek xalq ertaklari sirasida alohida turkumni tashkil etadi, chunki sinfiy jamiyatga o'tishi jarayoni inson ongida yangicha dunyoqarash va sotsial munosabatni vujudga keltirdi. Shu davrdan boshlab sof hayvon-personajlar majoziy obrazlarga aylandi. Majoziy ertaklar asosan tanqidiy funksiyani ado etadi. Personajlar talqini ijtimoiy-siyosiy ma'no kasb etib, ramz yetakchi o'rin tutadi. "Bo'ri bilan tulki", "Tulkining taqsimoti", "Ikki boyqush", "Chumchuq", "Qarg'a bilan qo'zi", "Chivinboy", "Echkining o'ch olishi" kabi ertaklarda obrazlar talqini voqea va hodisalar tasviri, konflikt mazmunida sinfiy munosabatlar o'z ifodasini topgan. Majoziy ertaklarning tematikasi rang-barang bo'lib, adolat uchun kurash ozodlikka intilish, mehnatsevarlik va to'g'rilik tantanasi, turli xil axloqiy normalar hamda sinfiy va diniy-klerikal munosabatlar hikoya qilinadi. Ko'chma ma'no kasb etgan personajlar to'qnashuvlar asosan sotsial illatlar fosh etiladi.

Majoziy ertaklar syujeti ixcham, takrorlanuvchi epizodlardan tashkil topib, mazmuni lo'nda ifodalangan. Syujet voqealari hayotiy fonda talqin etilgan bo'lib, satirik va yumoristik situatsiyalarga boydir. Syujet tarkibida konflikt va uning

yechimini tashkil etuvchi epizodlar ketma-ket, ayni paytda takrorlanib keladi, majoziy personajlar harakati va holatiga urgʻu beradi, asosiy maqsadni konkretlashtiradi. Biroq takror kelgan har bir epizod mantiqan bogʻlangan va yakunlangan boʻladi, voqealar davomida biri ikkinchisini toʻldiradi.

Majoziy hayvonlar haqidagi ertaklarda qoʻshiqlardan parchalar uchraydi. Keltirilgan har bir qoʻshiq majoziy personaj niyati, orzu-istaklari hamda ruhiy kechinmalarini izohlaydi, taʼsirchanlikni orttirib, tinglovchi eʼtiborini kuchliroq jalb etadi.

Dupur-dupur otliqlar-a,
Ot boshini tortinglar-a,
Qoʻngʻiz bekach oʻldi deb-a,
Sichqon boyga aytinglar-a.

Demak, majoziy ertaklar syujeti majoz asosiga qurilganligiga koʻra ajralib turadi. Shu bilan birga fantastik uydirmalar ham ularda hal qiluvchi rol oʻynaydi. Chunki ular majoziy maʼnoni, qolaversa hajviy belgilarni oydinlashtirib tinglovchi diqqatini jalb etadi.

Sehrli ertaklar.

Obraz, voqea va hodisalarni fantastik uydirmalar fonida hikoya qiluvchi ertaklar sehrli ertaklar deb nomlanadi.

Sehrli ertaklar syujet tuzilishi, gʻoyaviy mazmuni va obrazlar talqiniga koʻra ikki tipga boʻlinadi.

Biri-sehrli ertaklarning pahlavonlik tipi va ikkinchisi-sehrli-sarguzasht tipi.

Sehrli ertaklarning eng qadimiy namunalarini pahlavonlik tipidagi ertaklar tashkil etadi. Shuning uchun ham mazkur tipdagi ertaklarning poetikasi, gʻoyaviy mazmuni va obrazlar talqini nisbatan alohidalik kasb etadi. “Pahlavon Rustam”, “Gʻulom Polvon”, “Qahramon”, “Loʻnda polvon” singari ertaklar ana shular jumlasidandir.

Pahlavonlik tipidagi ertaklar qadimiy mifologik bosqichning namunasi sifatida yuzaga kelgan. Shuning uchun ham ertak epizodlari, aniqrogʻi, strukturasini tashkil etgan motivlar asosida dual tushuncha va uning otashparastlik

dinidagi yarim xudolar, ibtidoiy marosim va urf-odatlar o'z ifodasini topgan. Voqea va hodisalar ko'proq feodal-patriarxal jamiyat taritbotlari asosida bayon etiladi.

Sehrli-sarguzasht tipidagi ertaklar esa katta o'rin egallaydi. Bu xil ertaklarda fantastik uydirmalar va sehrli predmetlar asosiy o'rin tutadi. Ko'pchilik motiv va epizodlarning xarakterli tomoni shundaki, ular ko'proq bordan yo'q, yo'qdan bor bo'lish hamda bir shakldan ikkinchi shaklga aylanish kabi g'ayri tabiiylik kasb etadi va feodal munosabatlar qolipida hikoya qilingan voqeadan iborat.

Sehrli-sarguzasht tipidagi ertaklar o'ziga xos obraz va personajlar galereyasi bilan ajralib turadi. Bular: yalmog'iz, shum kampir, maston, jodugar, sehrgar, pari, kenja botir, shahzoda, podsho, vazir, ulamo, yasovul, bakovul, malika, savdogar, folchi, shayx kaptar, oltin baliq, oynai jahon, ochil dasturxon, qaynar xumcha, uzuk, gul, daraxt, nina, taroq, qarchig'ay va boshqalar.

Adabiyotlar:

1. K. Imomov, T.Mirzaev, B.Sarimsoqov, O.Safarov. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. T., O'qituvchi, 1990 y.
2. Jirmunskiy V.M., Zarifov X.Z. Uzbekskiy narodnyy geroicheskiy epos. -M.: GIXL, 1947.
3. O'zbek folklor ocherklari. T., Fan, 1987
4. D.O'raeva. Motam marosim folklori. T., «Fan», 2005 y.
5. O'zbek xalq afsun-duolarining janr xususiyatlari va badiiyati. T., «Istiqlol», 2006 y

Savol va topshiriqlar.

1. Ertaklarni tasnif qiling.
2. Ertak atamasi haqida ma'lumotlar bering.
3. Sehrli-sarguzasht tipidagi ertaklardagi o'ziga xos obraz va personajlar haqida ma'lumotlar bering
4. Sehrli ertaklarga misollar keltiring.

Mavzu: O'zbek xalq dostonlarining tasnifi.

Qahramonlik dostonlari.

Reja

1. Dostonlarning janr xususiyatlari.
2. Dostonlar tasnifi.
3. Qahramonlik dostonlari.
4. “Alpomish” dostoni.

Doston o‘zbek folklorining keng tarqalgan va yirik janrlaridan biridir. Uning yaratilishi xalqimizning ma’naviy-maishiy qiyofasi, ijtimoiy-siyosiy kurashlari, axloqiy-estetik qarashlari, adolat va haqqoniyat, ozodlik va tenglik, qahramonlik va vatanparvarlik haqidagi ideallari bilan chambarchas bog‘liqdir. Asriy kurashlar va ideallar uning tematikasi, g‘oyaviy mazmuni, obrazlar sistemasi, syujet va kompozitsiyasi mohiyatini belgilaydi.

O‘zbek xalq dostonlaridagi qofiya va ularning ado etgan vazifalarini tahlil etish shuni tasdiqlaydiki V.Ya.Bryusov ko‘rsatgan vazifalar asosan to‘g‘ri topilgan. Lekin ularga qofiyaning semantik vazifa ado etishini ham qo‘shib qo‘yish kerak. Bu vazifa V.Ya.Bryusovda “strofik” vazifa ichiga olingan. Darhaqiqat, har qanday band, eng avvalo, alohida qofiyalanishga ega bo‘lgan va mustaqil yagona mazmunga ega bo‘lgan misralar yig‘indisidan iborat. Shunday bo‘lsa-da, “strofik” vazifani ayrim tadqiqotchilar sof shakliy ma’noda qabul qilishlarini nazarda tutib quyidagicha bo‘linadi:

- 1)Mazmunni umumlashtirish, jamlash;
- 2)She’riy vazn va marom chegarasini belgilash;
- 3)Muayyan she’riy parchalarga ohangdoshlik, uyg‘unlik va ravonlik bag‘ishlash;
- 4)She’riy misralarni muayyanbandlarga bo‘lish.

Xalq dostonlaridagi epik makonlar muayyan xalqaro epik an’analar, milliy yoki dostonchilik maktablarining o‘zlariga xos an’analari bilan aloqadorlikda yaratiladi. Masalan, o‘zbek “Alpomish” dostonidagi epik makonlar doirasi Boysun, Kashal yurti, Chilbir cho‘li, Oyna ko‘li, Bobotog‘, Murod tepa kabilar bilan chegaralansa, “Go‘ro‘g‘li” turkumi uchun epik makon Chambil qal’asi bilan boshlanadi va

Go‘ro‘g‘li, uning asrandi farzandlari, ikki pari xotini, qirq yigiti faoliyati bilan bog‘liq holda Xunxor, Vayangan, Qo‘fi Qof, Torkiston, Asqar tog‘i, Arzirim, Polvon tog‘i, Badbaxt cho‘li, Arbotin, Bog‘i Eram kabi sof epik va mifik makonlar bilan boyib boradi. Ushbu epik makonlarning ko‘pchiligi nafaqat o‘zbek “Go‘ro‘g‘li” turkumi uchun, balki ko‘pgina xalqlar “Go‘ro‘g‘li” eposlari uchun umumiylik kasb etishini marhum folklorshunos B.A.Karriev alohida ta’kidlab ko‘rsatgan edi. Uning ko‘rsatishicha, “Go‘ro‘g‘li” dostonlaridagi epik makonlar ozarbayjon, arman, kurd, gurji, turk, turkman, o‘zbek, O‘rta Osiyo arablari, qozoq, tojik, tobol tatarlari uchun ham bir xillikka ega.

“Xalfa”atamasi haqida ba’zi qaydlar.

Ma’lumki, turkiy xalqlar og‘zaki poetik ijodiyotini yaratuvchilar va kuylovchilar “baxshi”, “dostonchi”, “jirov”, “oqin”, “qissaxon” kabi nomlar bilan ataladilar. Ayni paytda, ustoz folklorshunoslar ta’kidlaganlaridek, “o‘zbek eposi baxshilar bilan bir qatorda, xotin-qiz ijodkorlarni ham yaxshi biladi. Hozirgi vaqtda ular faqat Xorazmdagina mavjud bo‘lib, “xalfa” nomi bilan ataladilar”. Xo‘sh, bu ijod turining muayyan mintaqada saqlanib kelishi va o‘ziga xosligining sabablari nimada?

Bularni aniqlash, avvalo, Xorazm vohasida asrlar davomida shakllangan urf-odatlar, marosimlar tizimi, badiiy-estetik ananalar takomili va xalq ijodkorligining xususiyatlari kabi masalalarni o‘rganishni taqozo qiladi. Bularsiz xalfalar san’atining tabiati, xalq ijodkorligidagi mushtarak va xos belgilarni tayinlab bo‘lmaydi, shu sababdan bo‘lsa kerak xalfalarning xalq ijodiyotidagi o‘rnini aniqlashda xatto “xalfa” atamasini qo‘llashda har xil qarashlar davom etmoqda.¹

Dostonlardagi qahramonlar ismini atash mezonlari quyidagicha:

- Qahramon ismi sof mifologik tasavvurlarga asoslanadi, ammo u antroponimik xarakter va talqinga ega. Masalan: Yunus pari, Misqol pari, Gulnor pari kabi.

¹ Хамдам Абдуллаев. “Халфа”атамаси ҳақида баъзи қайдлар. Ўзбек тили ва адабиёти. Тошкент.2004 йил 4-сон, 49-б.

- Sof antroponimik xarakterga ega bo'lgan, ammo mifologik talqin qilinishiga moyil qahramonlar ismlari. Masalan : Malika ayyor, Hasan ko'lbar, Hasan chopsan, Hasan yakdasta kabi.

- Sof antroponimik talqin va xarakterga ega bo'lgan, ammo g'ayritabiiy tug'ilishi tufayli biografiyasini mistifikatsiya qilish an'anasi bilan qo'yilgan ismlar. Go'ro'g'li ismi buning yorqin misoli bo'la oladi.

- Boshqa xalqlar epik an'anasida mashhur bo'lgan epik qahramonlarning ismlari ta'sirida qo'yilgan ismlar. Masalan, Rustamxon.

- Xalqlarning ezgu niyatlari, istaklari asosida nomlangan epik qahramonlar. Masalan: Murodxon, Orzigul, Intizor, Shirin, Shakar kabilar.

- Qahramonlarning mardligi, shijoatini, kasb-hunarini epik metaforalash asosida qo'yilgan ismlar. Masalan: Balogardon, Xushkeldi, Shoqalandar, Shozargar kabilar.

“Doston” so‘zi qissa, hikoya, shonu shuhrat, sarguzasht, ta’rif va maqto‘v ma’nolarida ishlatiladi. Adabiy termin sifatida bu nom xalq og‘zaki ijodi va yozma adabiyotdagi yirik hajmli epik asarlarni anglatadi. Biroq ular hayotni tasvirlash vositalari va usullari jihatidan bir-biridan jiddiy farq qiladi. Xalq og‘zaki ijodida doston o‘tmish zamonlar to‘g‘risida qahramonlik ko‘lamidagi hikoyalar, rivoyatlardir. Dostonlarda tarixiy voqelik xalq fantaziyasi asosida umumlashgan obrazlarda o‘z ifodasini topadi. Unda umumlashtirishning o‘ziga xos formasi epik umumlashtirish hukmronlik qiladi. Demak, dostonga epiklik, monumentallik xos bo‘lib, kompozitsion va syujet qurilishi jihatidan murakkab voqea-hodisalarni qamrab oladi. Bunday voqea va hodisalar mazmunan qahramonlik xarakteriga egs bo‘lib, ular yakka shaxs-xalq idealidagi bahodir atrofiga birlashtiriladi. Xalq dostonlarining bunday tematik hamda janr xususiyatlari uning spetsifik uslubi va formasini ham yuzaga keltirdi.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodiyotida mavjud bo‘lgan epik asar bo‘lgan doston badiiy adabiyotning murakkab san’at asari hisoblanadi. Chunki unda xalq san’atining turli tomonlari namoyon bo‘ladi. Dostonning doston bo‘lishi uchun birinchidan adabiy matn badiiy manba bo‘lishi, ikkinchidan, dostonning musiqasi bo‘lishi kerak. Doston musiqasi ayrim she’riy parchalarning vazn o‘lchoviga, ohangi va mazmuniga mos

keladigan qo‘shiqlardan tashkil topgan bo‘lib, bir butunlikni tashkil etadi. Uchinchidan, dostonchi do‘mbira yoki qo‘biz cherta olishi, to‘rtinchidan, baxshi yaxshi va shirali ovozga ega bo‘lishi lozim. Aks holda bunday dostonni tinglaydigan o‘quvchida u qiziqish uyg‘otmaydi. Odatda, dostonchi dostonning nasr qismini hikoya qilib beradi, she‘riy qismini esa musiqa asbobi jo‘rligida kuylaydi. Dostonda prozaga nisbatan she‘r hajmi jihatidan ustun turadi. Bundan tashqari dostonda nasrning ahamiyati unchalik emas degan ma‘no kelib chiqmaydi, albatta. Chunki o‘zbek xalq og‘zaki badiiy ijodiyotida faqat nasriy yoki nazmiy qismlardan iborat yaratilgan asarlar uchramaydi.

Doston asosida hayoliy uydirma yotadimi, konkret o‘tmish voqealari tasvirlanadimi, bundan qat’iy nazar, xalqimiz qahramonona o‘tmish sifatida talqin qilinadi va shu tarzda qabul qilinadi. U keng epiklikka moyil janr bo‘lib, unda tasvirlangan voqealar tarixiylik, hayotiylikni kasb etadi.

Professor, B.I.Sarimsoqov esa xalq dostonlarining tarixiylik prinsiplariga asoslanib, ularni qahramonlik, romanik va tarixiy kabi uch turga bo‘ladi. Uning tasnifiga ko‘ra, jangnoma va kitobiy dostonlar romanik dostonlarning bir ko‘rinishidan iborat. Darhaqiqat, eposning tarixiylik prinsiplari voqelikni aks ettirish tarzi xalq dostonlarini qahramonlik, romanik va tarixiy dostonlar kabi uch yirik turga bo‘linadi.

Qahramonlik dostonlari. O‘zbek xalq dostonchiligi taraqqiyotida ko‘pgina qatlamlar bo‘lsa-da, ayniqsa, ikki qatlam, davomiy ikki bosqich-qahramonlik va romanik dostonlar bosqichi alohida ajralib turadi. O‘zlarining yaratilish davri va yuzaga kelgan muhiti bilan ham, tematikasi, g‘oyaviy mazmuni, ijtimoiy voqelikni tasvirlash usullari bilan ham bu dostonlar bir-birlaridan jiddiy farq qiladi. Biroq ular bir necha asrlar davomida baxshilar tomonidan baravar kuylab kelingan, shuning uchun ham bu xil dostonlar orasida doimiy ijodiy aloqa mavjud bo‘lgan. Demak, birining xususiyati ikkinchisida zohir bo‘lishi sof qahramonlik dostonlariga xos belgilarning keyingi planga surila borishi, qahramonlik dostonlaridan romanik motivlar va epizodlarning o‘rin olishi, tabiiy edi.

“Qahramonlik” termini o‘zbek folklorshunosligida ikki ma’noda qo‘llaniladi. Biri –keng ma’noda, umuman o‘zbek eposiga nisbatan, ikkinchisi-tor ma’noda, uning bir turiga nisbatan ishlatiladi. Qahramonlik dostonlari patriarxal-urug‘chilik munosabatlari,

ko‘chmanchilik va yarim ko‘chmanchilik hayot bilan mahkam bog‘liqdir. Bunday dostonlar xuddi shu turmush tarzining ifodasi sifatida patriarxal-urug‘chilik jamiyatida yoki ilk feodalizm davrida turli urug‘lar o‘rtasida nizolar davom etayotgan va ular muayyan territoriyalarga joylashayotgan hamda yagona xalq sifatida uyusha boshlagan zamonlarda yaratilgan. Qahramonlik dostonlari bizgacha sof holida “Alpomish” misolida yetib kelgan.

“Alpomish” turkumi haqida ayrim mulohazalar. O‘zbek xalq dostonlari orasida “Alpomish” qahramonlik eposi baxshilar repertuaridan mustahkam o‘rin egallagan bo‘lib, u haqda ko‘p tadqiqotlar amalga oshirilgan. Doston har jihatdan asosli va ilmiy tahlil etilgani ma‘lum. Ayniqsa, dostonning ming yilligini nishonlash haqida respublikamiz hukumatining 1998 yil 13 yanvardagi tarixiy qarori nafaqat qahramonlik eposimizni o‘rganishda, balki folklorshunoslikning keyingi rivojida muhim ahamiyat kasb etdi. Shu qaror tufayli “Alpomish” dostonining eng mukammal varianti hisoblangan Fozil shoir Yo‘ldosh o‘g‘li nusxasi ilk bor to‘liq holda va akademik nashrda o‘zbek va rus tillarida nusxadan chiqdi. Ayni paytda, dostonning Berdi Baqshi Said Murod Panoh o‘g‘li Bekmurod Jo‘raboy o‘g‘li, Ergash Jumanbulbul va Po‘lkan shoir variantlari ham o‘quvchilarga yetkazildi.¹ **“Alpomish” dostoni** qadimiy qahramonlik eposining yorqin namunalaridandir. Epik mazmunning qahramonlik xarakteriga ega bo‘lishi uning bosh xususiyati hisoblanadi. Chunki dostonning butun mohiyati va asosiy yo‘nalishini ana shu xususiyat belgilaydi.

Har bir xalqning og‘zaki ijodi uning ko‘p asrlik tarixi, etnik xususiyatlari, dunyoqarashi, urf-odatlarini. Ijtimoiy-maishiy turmushini poetik ifodalovchi tarixiy-badiiy-estetik hodisadir. U o‘zbek xalqining asrlar buyi umuminsoniy qadriyatlarga hissa qo‘shib kelgan milliy ma‘naviyatining tarkibiy qismi hamdir. Bunda eng mo‘‘jaz maqoldan tortib, ulkan xajmlardagi dostonlarning ham o‘z o‘rni, o‘z ahamiyati bor. O‘zbek folklori bugungi kunda ham yosh avlod ta‘lim-tarbiyasiga xizmat qilmoqda. Shu jihatdan

¹ Абдиолим Эргашев. “Алпомиш” туркуми ҳақида айрим мулоҳазалар. Ўзбек тили ва адабиёти. Тошкент. 2009 йил 2-сон, 46-б.

Prezidentimizning “Alpomish” dostoni munosabati bilan aytgan quyidagi soʻzlarini butun oʻzbek folkloriga taalluqli desak, xato boʻlmas:

«Alpomish» dostoni bizga insonparvarlik fazilatlaridan saboq beradi. Odil va haqguy boʻlishga, oilamiz qoʻrgʻonini qoʻriqlashga, doʻstu-yorimizni, or-nomusimizni, otabobolarimizning muqaddas mozarlarini har qanday tajovuzdan himoya qilishga oʻrgatadi»¹.

Yurtboshimizning bu teran maʼnoli soʻzlarini termalarga nisbatan ham aytish mumkin. Chunki oʻzbek dostonchiligi tarixi, uning davomiyligi, professional xalq baxshilari ijodini termalarsiz tasavvur qilib boʻlmaydi.

Oʻzbek xalq ogʻzaki poetik ijodida terma janrining dastlabki namunalari folklorshunosligimiz asoschisi Xodi Zarifov tomonidan XX asrning 30-yillarida toʻplanib, chop etila boshlangan, u haqda ayrim mulohazalar bildirilgan edi.²

“Doʻmbiram” turkum termalari jonlashtirish sanʼatining yumoristik ohanglarga uygʻunlashib ketishi bilan ham oʻziga xosdir. Shu uygʻunlik sababli baxshilar doʻmbirani **tirnoqning ofati, yelimga toʻymaydigan ochkoʻz, chilimkash** deb, tinglovchilarda samimiy kulgi uygʻotadi.

“Alpomish” dostonining syujeti sostavi va asosiy motivlariga diqqat qilsak, unda patriarxal urugʻchilik munosabatlari va shu hayot tarzini tasvirlash asosiy oʻrin tutadi. Ikkinchidan, unda ayrim urugʻ oqsoqollarining hukmronlikka intilishidan iborat. Rivojlanmagan feodal munosabatlar tasviri ham mavjud. Dostonda aks etgan bunday ijtimoiy hayot elementlari uning yaratilish tarixini belgilash uchun muhim ahamiyatga ega. Shuni ham taʼkidlash kerakki, patriarxal-urugʻchilik munosabatlarining yemirila borishi va feodalizmning tugʻilish jarayoni hamma yerda bir vaqtda va bir xilda sodir boʻlgan emas. Bu oʻtish jarayoni ayrim yerlarda hatto oʻrta asrlargacha ham davom etdi. Dostonda tasvirlangan bunday ijtimoiy hayot tarzi va undagi bir qator motivlar tahlili orqali H.T.Zaripov “Alpomish” dostoni koʻchmanchi-chorvador Qoʻngʻirot qabilasi orasida patriarxal-urugʻchilik munosabatlari yemirila boshlagan davrda, mugʻullar istilosidan avval, Sirdaryoning quyi oqimlari va Orol dengizi atroflarida yuzaga kelgan

¹ Каримов И.А. "Алпомиш" дostonининг 1000 йиллигига бағишланган тантанали маросимда сузлаган нуткидан // Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт - пировард мақсадимиз. Т. 8. - Тошкент: Ўзбекистон, 2000. - Б. 78.

² Ўзбек фольклоридан намуналар. - Тошкент: Ўздавнашр, 1935. - Б. 100.

degan xulosaga keldi. Chindan ham doston ko'chmanchi-chorvador Qo'ng'iro't qabilasini urug' eposi sifatida X-XI asrlarda yaratildi, deyish mumkin.

“Alpomish” dostoni qahramonlik, mardlik, vatanparvarlik, turli elatlar va xalqlarning birodarligi, sevgi va sadoqat, oila mustahkamligi va urug' birligini kuylovchi ulkan eposdir. Doston Qo'ng'iro't urug'i boshliqlari –aka-uka Boybo'ri va Boysarilarning farzandsizligi tasviri bilan boshlanadi. Unda bo'lajak qahramonlar-Alpomish va Barchinlarning ajoyib-g'aroyib holatlarda tug'ilishi, Alpomishning bahodirona yoshligi va birinchi bor pahlavonlik ko'rsatishi, Boysarining Boybo'ridan arazlab Qalmoq eliga ko'chish, qahramonning yorini olib kelish uchun o'zga mamlakatga safari va Qorajon bilan do'st tutinishi, raqiblari-qalmoq alplari bilan yonma-yon turib, Barchinning shartlarini bajarishi va yorini olib o'z eliga qaytishi, qaynotasi Boysarini qutqarish uchun ikkinchi marta safar qilganda, yetti yil tutqinda qolishi, asirlikdan oti Boychibor yordamida qutulib, o'z eliga xotini Barchinning zo'ravon Ultontoz bilan bo'layotgan to'yi ustiga kelishi hamda raqibini yengib, o'z xokimiyatini o'rnatish voqealari tasvirlanadi.

“Alpomish” dostonida xalqimizning qahramonlik haqidagi ideallari, mardlik tuyg'usi yorqin tasvirlanadi. Dostonda yorga erishish uchun mard bo'lish va dushmanga qarshi kurashish kerak, degan g'oya bo'rtib turadi:

**Oq kirovka, oltin sovut kiyaman,
Bor kuchimni bilagimga jiyaman,
Olmos olsam, qirmizi qon quyaman,
G'animlarning tanasini uyaman,
Qarchig'ayman, dushman boshin qiyaman,
Esim olsa, bo'tadayin bo'zlayman,
Dushman ko'rsam, kesib bag'rin tuzlayman,
Aslim sherman, o'zim yo'lbars izlayman.**

Dostonda qahramonlik, jasurlikni ulug'lash, mardlik tuyg'ulari vatanparvarlik ideyasi bilan uzviy bog'langan holda tasvirlanadi. Doston qahramonlari o'n olti urug' Qo'ng'iro't eli. Boysin-Qo'ng'iro't diyori bilan mahkam bog'langandir. Doston qahramonlarining o'z qabilasi, xalqi va yurtiga bo'lgan vatanparvarlik hislari, xususan,

dostonning ikkinchi qismida o'quvchini to'liqlantirarli darajada tasvirlangan. Dostonda elu yurtga muhabbat motivlari urug' birligi g'oyasi bilan birlashib ketadi. Dostonning har ikkala qismida ham Alpomishning Barchinga uylanishi Qo'ng'iro't urug'ining yangidan birlashishiga olib keladi. Demak, Alpomishning nikoh uchun, oila uchun-"o'z uyi" uchun kurashi qonuniy ravishda Qo'ng'iro't urug'ining yanada mustahkamlanishi, yangi tipda qaytadan birlashishi uchun kurashi hamdir.

"Alpomish" dostonning bosh qahramoni sahroyi bahodir, Qo'ng'iro't urug'ining umidi va ishonchi Hakimbek-Alpomishdir. U mehnatkash xalqning qahramonlik kuchlarini o'zida mujassamlashtirgan, yovuzlik va yomonlikning ashaddiy dushmani, el-yurt farovonligi yo'lida mardliklar ko'rsata olgan bahodir, xalq eposining qo'yma obrazidir. Dostonda Alpomish va Qorajon ana shunday vajohatdagi kishilarga qarshi kurashadi. Dostonchi alplarning beso'naqay, ayni holda zabardast qiyofalarini tasvirlash orqali, bir tomondan, ularning Barchinga loyiq emasliklarini ta'kidlasa, ikkinchidan Alpomish va Qorajonning jismoniy kuch-qudratini yaqqol ko'rsatadi.

Alpomishning yori Barchin, singlisi Qaldirg'och, do'sti Qorajon, ota-onasi va qaynotasiga nisbatan iliq munosabatlarida, mashhur yilqichi, qadrdoni va tarbiyachisi Qultoy bilan ota-bola, cho'pon Kayqubod bilan do'st tutinishi tasvirida uning chin insoniy sifatlari yaqqol namoyon bo'lgan. Dostonning yetakchi obrazlaridan yana biri Barchindir. Barchin o'zbek eposida har tomonlama mukammal ishlangan ayol obrazi hisoblanadi. Vatan va oilani sevish, xalqqa va qarindoshlariga hurmat, mustaqillik va jasorat bu obrazning ichki mazmunini tashkil qiladi. U oqila, tadbirli ayol sifatida ijtimoiy hayotda erkak bilan ayolni teng deb biladi. Shuning uchun ham qalmoq eliga ko'chishga ahd qilgan otasi Boysariga nasihat qilmaganligi uchun onasidan o'pkalaydi:

Xo'ja kelsa chiqar murid naziri

Xotin bo'lmasmikan erning vaziri?!

Er deganning aqlin olmas bo'lurmi,

Aldab-suldab yo'lga solmas bo'lurmi?!

Boy otamman biy bobomga ne bo'ldi?!

Xullas, "Alpomish" dostoni o'zbek xalqining o'zligini, milliy qadriyatlarini ko'rsatib beruvchi dostondir.

“Go‘ro‘g‘li” xalq dostoni

Tarqalish geografiyasi jihatidan juda katta hududni qamrab olgan “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlari O‘rta Osiyo, Kavkaz, umuman, Sharq va G‘arb xalqlari og‘zaki poetik ijodida muhim o‘rin tutadi. Asrlar davomida shoir-baxshilar, oshiq-o‘zonlar tomonidan kuylab kelingan bu dostonlar silsilasi tarixiy taraqqiyot davomida turli millat va elatlarning folkloridan mustahkam o‘rin egallab kelmoqda.

«Go‘ro‘g‘li» dostonlarining ilk syujetiga o‘lib tiriluvchi tabiat haqidagi tasavvurlar va quyosh turkumi miflari asos bo‘lgan.

Mif talqinida Go‘ro‘g‘li - Quyosh o‘g‘li bir yillik mavsumiy muddatning uch oyi davomida yer qa‘rida yetilib, ko‘klam bilan birga tug‘ilib, uch oy (ko‘klam fasli)da tetapoya bo‘lib, uch oy (yoz) barobarida voyaga yetib, ulg‘ayib (qayta homila topib), navbatdagi uch oy (kuz)da kamolga erishib, qayta o‘z makoni - torga (qish qo‘yniga) kirib uyquga ketadi, uch oy (qish)davomida o‘lik tanada yetilgan homila qish nihoyasida qaytadan tug‘iladi, deb tushunilgan. Go‘ro‘g‘lining g‘ayriqutbi - o‘zga olam - zulmat dunyosining o‘g‘li esa kuz kirishi bilan tug‘ilib, uch oy qish to‘lik yetilib, ko‘klam adog‘ida o‘z makoniga kirib, kuzda qayta tug‘iladi, deb tasavvur qilingan. Kuzu qish botinida yoz yetilib dunyoga keladi va ko‘klamu yoz ichida qish yetilib qayta tug‘iladi. degan tushuncha qat’iy amalda bo‘lgan. Kosmosdan xaos, xaosdan kosmos paydo bo‘lishi haqidagi universal model hamma hodisada birdek amal qiladi.

O‘zbek folklorida «Go‘ro‘g‘li» dostonlarining tutgan o‘rni beqiyos. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti Folklor arxividagi variantlardan tashqari, ushbu turkumga mansub 60dan ortiq dostonlari mavjud. Bu hisobga vaqtida yozib olinmaganligi sababli unutilib ketgan, ammo baxshilarning aytishicha, nomlari va mazmuni saqlanib qolgan dostonlarni, shuningdek, Xorazm "Go‘ro‘g‘li"sini ham qo‘shsak, turkum dostonlarining umumiy soni yuztaga yaqinlashib koladi. Bunday

favqulodda hodisaning yaratilishi va turkumlashish jarayonini, hozir folklorshunoslik fanida hukm surib kelayotganidek, bir davr yoki muayyan bir xalqning real tarixida sodir bo'lgan qandaydir voqealarga bog'lab qo'yish to'g'ri emas.

Dostonlarning asosiy obrazi - Go'ro'g'li xalqimizning milliy qahramoni sifatida hamisha ommani yuksak ideallar sari chorlab kelgan: xalqni birlashtiruvchi ezgu quvvat timsoliga aylangan. «Go'ro'g'li» dostonlari mag'zida xalqimiz tarixi o'ziga xos timsoliy aks ettirilgan, deb ayta olamiz. Tom ma'noda, «Go'ro'g'li» o'zbek xalqining mifo-epik tarjimai xoli, badiiy holatdagi tarixiy xotirasidir. Chunki o'zbek xalqining qadimiy hayoti, ko'hna tasavvurlari, badiiy tafakkurining taraqqiyot yo'li, boshqa ma'naviy kadriyatlar qatorida «Go'ro'g'li» dostonlarida ham namoyondir.

1.«Go'ro'g'li» dostonlarining ilk syujetiga o'lib tiriluvchi tabiat haqidagi tasavvurlar va quyosh turkumi miflari asos bo'lgan.

2.Mif talqinida Go'ro'g'li - Quyosh o'g'li bir yillik mavsumiy muddatning uch oyi davomida yer qa'rida yetilib, ko'klam bilan birga tug'ilib, uch oy (ko'klam fasli)da tetapoya bo'lib, uch oy (yoz) barobarida voyaga yetib, ulg'ayib (qayta homila topib), navbatdagi uch oy (kuz)da kamolga erishib,

qayta o'z makoni - g'orga (qish qo'yniga) kirib uyquga ketadi, uch oy (qish) davomida o'lik tanada yetilgan xomila qish nihoyasida qaytadan tug'iladi, deb tushunilgan. Go'ro'g'lining g'ayriqutbi - o'zga olam - zulmat dunyosining o'g'li esa kuz kirishi bilan tug'ilib, uch oy qish to'lik yetilib, ko'klam adog'ida o'z makoniga kirib, kuzda qayta tug'iladi, deb tasavvur qilingan. Kuzu qish botinida yoz yetilib dunyoga keladi va ko'klamu yoz ichida qish yetilib qayta tug'iladi. degan tushuncha katiy amalda bo'lgan. Kosmosdan xaos, xaosdan kosmos paydo bo'lishi haqidagi universal model hamma hodisada birdek amal qiladi, deb anglangan, talqin etilgan. Tasavvur inson va jamiyat etnos hayotining asosi sifatida olinib, «Go'ro'g'li» epos mag'ziga singdirilgan.

3.Epos asosida turgan mif tabiat hodisalarini izohlagani, Go'ro'g'li dastlab

tabiat qudratining timsoli sifatida namoyon bo'lganligi syujet eposga ko'chgach, ijtimoiy hodisani aks ettiruvchi xalq va saltanat taqdirnomasiga evrilgan.

4.Epos syujetining ilk qatlamiga tegishli «alplik kasali», «alpning qayta yaratilishi» va «alpning tan olinishi» bilan bog'liq motivlar asosida xalqning ko'hna alplik tizimi bilan bog'lik tasavvurlar tizimi tiklandi.

5.Bosh qahramon, uning hayotiga asos bo'lgan voqelik va dunyoqarash, tasavvurlar olami hamda epik g'ayriqutb obrazning tub manbalarini tekshirish, «Go'ro'g'li» eposining ko'hna ildizlarga ega ekanligini, doston asosining quyosh turkum miflari hamda marosimlariga va animistik tasavvurlarga bog'lanishi epos paydo bo'lgan davrni eradan avvalgi ming yilliklar bilan belgilash imkonini beradi.

7.Go'ro'g'lining xomiylari Xizr va chiltanlarning ibtidosi, xalqning islomiy e'tiqodgacha bo'lgan qadim shomonistik-animistik dunyoqarashlari, mifologik tasavvurlari bilan aloqador. Epik xomiy obrazlari tadrijida ham serqatlamlilik mavjudligi, ularning islomiy dunyoqarashga moslashuvi ana shu katamlarning navbatdagi - so'nggi halqasini tashkil etishi kuzatiladi.

8.«Go'ro'g'li» dostonlarining barcha versiya va variantlari (ular qanday ko'rinishda, shaklda, holatda bo'lishidan qati nazar) eposning rivojlanish bosqichlari jarayonini o'zida u yoki bu darajada aks ettirishi, saqlab kelayotganligi bilan qimmatli. «Go'ro'g'li» eposining to'liq shakllanib, turkumlashib, bu kungacha yetib kelishi barobarida ilk mifologik tasavvur bilan bog'liq motiv va unsurlarning barcha variantlarda o'ziga xos tarzda namoyon .

9.Qahramonning nomi, epik shajarasi talqinlarining mifologik asosdan badiiy-estetik sathga o'tishi va bu jarayon doston variantlarida kaytarzda badiiy talqin olgan.

10. Dostonning yetakchi obrazlari: epik xomiy, qahramon g'ayriqutbi, raqibi, ko'makchilari, epik ot, yor bilan bog'liq yo'nalishlar tadqiqi

buobrazlarning xam mifologik asosdan badiiy sathga o‘ziga xos bosqichlar bilan o‘tganligini namoyon etadi.

Adabiyotlar:

1. K. Imomov, T.Mirzaev, B.Sarimsoqov, O.Safarov. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. T., O‘qituvchi, 1990 y.
2. Jirmunskiy V.M., Zarifov X.Z. Uzbekskiy narodnyy geroicheskiy epos. -M.: GIXL, 1947.
3. O‘zbek folklor ocherklari. T., Fan, 1987
4. D.O‘raeva. Motam marosim folklori. T., «Fan», 2005 y.
5. O‘zbek xalq afsun-duolarining janr xususiyatlari va badiiyati. T., «Istiqlol», 2006 y

Savol va topshiriqlar.

1. Doston termini aloqa.
2. Xalq dostonlari tasnifi.
3. Dotonchilik maktablari aloqa.
4. Doston kuylash tartibi.
5. Qahramonlik dostonlari.
6. Romantik dostonlar.
7. Kitobiy dostonlar.
8. Tarixiy dostonlar.
9. Jangnoma dostonlar.
- 10.”Alpomish ” dostonini o‘rganagan olimlar.
- 11.Xalq baxshilari aloqa.
- 12.”Alpomish” dostoni timsollari, g‘oyasi.
- 13.Dostonlar kompozitsiyasi.

BOLALAR FOLKLORI

(2 soat ma'ruza)

REJA

1. Bolalar folklorining yuzaga kelishi.
2. Allalarning ijtimoiy estetik vazifasi.
3. Allalarning kompozitsion tuzilishi
4. Erkalama va ovutmacholarning kompozitsion tuzilishi.

Bolalar folklori kichkintoylar olami bilan kattalar dunyosining uyg'unlashuvi oqibatida yuzaga kelgan o'yinlar, qo'shiqlar butun bir sistemasi tarzida tarkib topgan. Uni yaratishda kattalar ham, bolalar ham baravar hissa qo'shishgan. Kattalar bolalar poeziyasini yaratishganki, alla, aytim-olqish, erkalash, ovutmachiq va qiziqmachiq singari erkalash motiviga limmo-lim bu janrlar onalik folklori tarzida xarakterlanadi. Bunday deyilishining sababi shundaki, bu janrlarga mansub asarlarning ijodkorligi va ijrochiligida onalar bosh rolni o'ynashadi.

Allalar ijtimoiy-estetik qimmatiga ko'ra ikki vazifani bajaradi: birinchi-bolalarni uxlatish: aslida «Alla» so'zining lug'aviy ma'nosi ham ovutib, avaylab uxlatishdan iborat. Allaning ikkinchi vazifasi-tarbiyaviy-estetik mohiyat kasb etishida ko'zga tashlanadi. Bu uning emotsional ta'sirchanligidan kelib chiquvchi xususiyat bo'lib kuy og'ushida hayot bilan tanishtirish, ohanglar vositasida hayot ma'nosini anglashiga yo'l ochish, shu zaylda estetik didini shakllantirish va o'stirish maqsadiga qaratilganligidir.

Allalar, odatda, bolalarning emizikli davridan to uch yoshni to'ldirgunlarigacha aytiladi. Bolalarning ana shu yoshi bilan bog'lanishi allalarning beshik qo'shig'i sifatida xarakterlanishiga yo'l ochgan. Allalar onalarning minglab avlodidan bir-biriga o'tib, sayqal topib, onalik mehrini, armonini ifodalab kelayotganligiga qaramay, ularning qachon paydo bo'lgani o'zbek folklorshunosligida hozircha aniqlangan emas. Ammo uning qanday ma'naviy ehtiyoj tufayli yuzaga kelganini A.Vetuxov shunday izohlaydi: «Ona o'zining tug'ma sezgirliги bilan bola va bola uchun faqat qo'shiq kerakligini...

tinchlantiruvchi, yorqin va monoton qo‘shiq kerakligini angladi. Shu zaylda alla shakli yuzaga keladi. O‘sha onalik sezgilari allalarning qanday mazmunga ega bo‘lishini aytib turdilar: unda onalik qalbida qanday ko‘tarinkilik bo‘lsa -hammasi bor».

Bola uchun allaning so‘zi emas, kuyi yoqimli va muhimdir. Chunki u hali so‘zni anglamaydi. Alladagi so‘zlar ona uchun muhim: ular ona qalbining nidolari. Bir xil ohangdagi kuy bola ma’naviy ehtiyojining dastlabki qondirgichi sifatida xizmat eta boshlaydi. Alladagi bir xil ohang turli xildagi harakatlar jo‘rligidagi allalarning kompozitsion yaxlitligini ta’minlaydi. Chunki allalar har qanday holatda ham jismoniy harakat, ham psixik faoliyat bilan uzviy bog‘liklikda ijro etiladi. Jismoniy harakat bolaning muttasil o‘rishini, organizmning chiniqishiga imkon beruvchi muhim vosita bo‘lsa, allalarning ohangi shu jismoniy rivojlanishini ma’naviy ulg‘ayishga ulaydigan vosita bo‘lib, bola psixik faoliyatini harakatga solishga va aktivlashtirishga xizmat qiladi.

Allalarning kompozitsion butunligini so‘z, ohang va harakat birligi, shu uzvlarning o‘zaro mantiqiy aloqadorligi nuqtai nazaridan tekshirish kerak. Shunday qaralganda, onalar repertuaridan uchlik, beshlik, oltilik, yettilik va sakkizlik tarzida bir butun tugallangan allalarning anchagina ekanligiga ishonch hosil qilamiz. Band tuzilishidagi bunday xilma-xillik onaning allani kuylayotgan vaziyatdagi kayfiyatining natijasi bo‘lib, unda ifodalanishi lozim bo‘lgan g‘oyaviy niyatning salmog‘iga, yo‘nalishiga bog‘liq.

Alla-yo, alla,
Oppoq qizim, alla,
Qaymoq qizim, alla,
Go‘zal qizim, alla,
Asal qizim, alla,
Oqcha qizim, alla,
Zog‘cha qizim alla,
Sanam qizim, alla,

Tamtam qizim, alla,
Erka qizim, alla,
Serka qizim, alla.

Bu alla erkalama xarakteriga ega. Unda strofik tuzilishi-ikkilik shaklida. Barcha qofiyadosh soʻzlar epitets (sifatlash) vazifasini bajargani holda nuqul satr boshida kelgan, «qizim, alla» murojaatnomasi esa monoton mayin ohangni taʼminlovchi radif boʻlib, butun alla davomida ohang va kuyning yaxlitligini, yagona oqimda oqishini, erkalovchi pardalarda tovlanishini taʼminlagan. Qofiyadosh soʻzlardagi sifatlashlar onaning qizalogʻiga boʻlgan chuqur mehrining cheksizligini ifodalashga xizmat qiladi.

Oʻzbek allalarini kompozitsion jihatdan voqeaband va parokanda allalarga boʻlish mumkin.

Voqeaband (syujet) allalar. Bularni allaning eng takomillashgan namunalari deyish joiz. Bu xildagi allalar yagona syujetga ega, barcha bandlardagi poetik maqsad bir silsilada markazlashgan hayotiy voqealar uygʻotgan kayfiyatlarni ifodalashdan iborat. Ularda ekspozitsiya, tugun, kulminatsiya va yechim singari uzvlar yaxlit holda puxta kompozitsiyani tashkil etadi.

Parokanda allalar yaxlit syujet asosida qurilmaganligi bilan ajralib turadi. Bu tipdagi allalarda har bir band oʻzicha mustaqil, tugal motiv, tugal mazmun mantiqi, baribir, bolaga qaratilganligi tufayli bir necha band yagona bir ipga tizilgan boʻladi. Bandlararo mantiqiy yaxlitlikni vazn, qofiya, radif va naqorat singari badiiy-tasviriy vositalar kuchaytiradi.

Oʻzbek allalarida radif qonuniydir: alla soʻzi har satrda yoki satr osha, goho esa komponentli shaklda (alla-yo, alla tarzida) takrorlanaveradi. Gohida komponentli shakli toʻrtlik yo uchlikdan keyin naqorat vazifasini oʻtab, allaning taʼsirchanligini taʼminlaydi.

Aytim-olqishlar erkalovchi motivdagi rasm-rusm qoʻshiqlari boʻlib, aksariyat, asosan, bolalarning beshik davriga oid turli-tuman marosimlarda ijro etiladi. Chaqaloq besh va toʻqqiz kunga toʻlganda, ilk bor choʻmiltirilganda, beshikka birinchi marta va har gal bogʻlanib, yana yechib olinganda, ilk bor ota-

onasi va qarindoshlariga tanishtirganda, ilk tishi yorilganda, birinchi marta mustaqil o'tirganida, oyoq bosganida, yangi kiyim kiygizganda, ilk bor ovqatlantirilganda, qizaloq sochini ilk bor yuvib-taraganida, tirnog'i ilk bor olinganda, o'g'il bola sochini birinchi marta olinganda, bola sha'niga isiriq tutatilganda, xullas, shunday rasm-rusumlarning mazmuniga yarasha aytim-olqishlar mavjud.

San bir yillik,	Yoqasi moyli bo'lsin
Man ming yillik.	Ertagi loyli bo'lsin.
Qiya-qiya to'zdiraylik,	Mayli bir yilda to'zsin.
Dugonalarimdan o'zdiraylik.	O'zichi, ming yil kulsin.

Erkalama mehr xurujidan tug'iluvchi badihalardir. Ovutmacholqlar vaziyat taqozosi tufayli aytilsa, erkalamalar kayfiyat taqozosi tufayli ijro etiladi. Ovutmacholqlarda ijrochi kayfiyatining qay holatdaligi ahamiyatsiz bo'lsa, erkalamalarda ijrochi kayfiyatining xushligi, ko'tarinkiligi muhim. Chunki xafalikda, ehtiroslar sovigan paytda bolani erkalash mayli tug'ilmaydi. Bolani erkalash uchun kayfiyat behad chog' bo'lmog'i shart.

Erkalamalar xalqning o'z farzandlariga beqiyos mehr tovlanishlarini aks ettiradi. Ularda xalqimizning bolaparvar siymosi nurlanib turadi:

O.. shugina, shuginagina,	Kunchagina, shunchagina,
Munchagina, tunchagina,	Yashnab turgan g'unchagina.

Ovutmacholqlar esa bolani tinchlantirish ehtiyojini qondiruvchi badihalardir:

Vo'y-vo'y, shuginani kim urdi?	Yig'lama, oppoqqinam,
Vo'y-vo'y shuginaga kim lab burdi?	Boshimdagi qalpoqqinam.

Boychechak - bolalarning marosim qo‘shig‘i. Bolalar navro‘z elchisi sifatida erta bahorda, undan guldastalar yasaganlar, tol xivichlarni ko‘rishlari bilanoq, undan guldastalar yasaganlar, tol xivichlarini shodalab, boshlariga gulchambar qilib kiyganlar. So‘ngra hovlima-hovli yurib, «Boychechak» qo‘shig‘ini kuylab, gul ulashib, bahor kelganidan xabar berganlar. Bolalarning biri to‘rtliklarni yakkaxon sifatida kuylasa, qolganlari naqoratini xor bo‘lib ijro etganlar:

Boychechagim boylandi,
Qozon to‘la ayroni,
Ayroningdan bermasang,
Qozonlaring vayroni.

Chandishlar ham keng tarqalgan ma‘naviy o‘yinlardan bo‘lib, ular so‘zda laqillatish, chandib olish hisobiga «g‘aflatdagi» harifni hushyor torttirish, shu asosida so‘zga, so‘z ottenkasiga, ohangiga sezilarlilik reaksiyasini uyg‘otish hamda so‘zga ohangdosh hozirjavoblikka shaylash maqsadini ko‘zlaydi.

Aldanmachoq - chandishlar gohida onaboshi va o‘nlab o‘yinlarning she‘riy savol-javobi shaklida bo‘lishi ham mumkin:

-Karim qayoqqa ketda?	-Tulki sovun yeydimi?
-Ola tayoqqa ketda.	-Tulki tovuq yeydi.
-Salim qayoqqa ketda?	-Balli!
-Qizil bo‘yoqqa ketdi.	-bulbul cho‘lda sayrarmi?
-Balli!	-Bulbul bog‘da sayraydi.
-Kakku ko‘kka uchdimi?	-Burgut suvda suzarmi?
-Kakku ko‘kka uchadi.	-Burgut tog‘da yayraydi.
-Baqa ko‘kka uchdimi?	-Balli!
-Balli!	-Ilon uzum yeydimi?
-Bo‘ri uzum yeydimi?	-Ilon uzum yeydi.
-Bo‘ri qo‘zi yeydi	-E.e.e.. Ahmoq shunday deydi!

Xullas, bolalar xilma-xil janrlardagi ana shunday qo‘shiqlarning qay birini shovqin solib, qay birini jo‘r (doira shaklida o‘ynab turib) bo‘lib, qay birini raqsga tushib, qay birini yakkaxon holatda, qay birini yurib yoki sakrab turib, xakkalab chopgancha kuylash yoxud aytishni ham yaxshi biladilar. Xuddi shu asosda bolalar folklori navqiron avlodning yosh psixologiyasi xususiyatlarini, badiiy ijodkorligi salohiyati va imkoniyatlarini ifodalagan, unda bolalarning voqelikka munosabatlari, estetik-axloqiy qarashlari va rang-barang tuyg‘u-kechinmalari muhrlangan.

Bola tarbiyasi va u bilan bog‘liq qadriyatlar hamisha xalqimiz ma‘naviyati, jamiyatning asosi-oilaning eng kuchli jihatlaridan biri bo‘lib kelgan. Chunki “bola tug‘ilgan kundan boshlab, oila muhitida yashaydi. Oilaga xos an‘analar, qadriyatlar, urf odatlar bola zuvalasini shakllantiradi.” Qo‘shiqlarni quyidagicha janriy tasnif qilish mumkin:

1. Bolalarni erkalovchi qo‘shiqlar:

- Beshik qo‘shiqlari: a) allalar; b) aytim-olqishlar; v) “bak-bavaklar”.
- Suyish qo‘shiqlari:
- a) erkalamalar; b) ovutmachog‘lar; v) qiziqmachoqlar.

2. Bolalar hajviy qo‘shiqlari: a) tegishmachoqlar; b) masharalamalar.

3. Bolalar taqvim qo‘shiqlari: “yo ramazon”lar

4. Bolalar o‘yinlari bilan bog‘liq qo‘shiqlar:

- Harakatli o‘yinlarga aloqador qo‘shiqlar: a) chorlamalar; b) cheklashmachoqlar; v) sanamalar; g) tarqalish qo‘shiqlari;
- So‘z – o‘yinlar: a) guldur-guplar; b) chandishlar; v) tez aytishlar.

O‘yin bolalarning ko‘ngil ermaklari bo‘lmay, balki asrlar davomida xalqimizning o‘z farzandlarini Komil inson sifatida tarbiyalashlarida asosiy vosita vazifasini o‘tab kelayotir. Shu sababli o‘yinga kirishishning o‘ziyoq bolalarda alohida ma‘suliyat uyg‘otgan va bolalar o‘yinga maxsus tayyorgarlik ko‘rgan holdagina kirishganlar. Dastlab o‘yinni tartibli tashkil etish mas‘ulligini

zimmasiga oluvchi o‘yinboshi (buni onaboshi yoki sardor deb ham yuritishadi)ni belgilab olish zaruriyatini sezganlar. O‘z-o‘zidan ravshanki, har qanday bola ham o‘yinni boshqarishga qodir emas. Binobarin, o‘yinni boshqarishda tanti, adolatli, jismonan kuchli, bolalar orasida e‘tibor qozongan, u yoki bu muammo tug‘ilganda uni mustaqil hal qila bilish iqtidoriga ega bo‘lgan bolanigina tanlashgan. Aslida o‘yin jarayonida bunday uddaburon bola tezda barcha o‘yinchilar nazariga tushgan, o‘z navbatida, bunday sinovlar tufayli har gal o‘yinni tashkil etish o‘z-o‘zidan uning zimmasiga tushavergan. Shu zaylda unda tashkilotchilik iqtidori shakllana boradi.

Sanamalardan namunalar.

O‘n, yigirma,
O‘ttiz, qirq,
Ellik, oltmish,
Yetmish, sakson,
To‘qson, yuz,
Yuzdan chiqqan
Oppok qiz,
Oppoq qizning
Onasi siz!

Olma ketdi dumalab,
Ko‘cha buyi yumalab.
Kim olmani tutadi,
U o‘yindan chiqadi.

(Aytuvchi: Dilafruz, 10 yosh)

Haylo samalyot,
Uchib ketopti.
Ichida Zulayho
Yig‘lab ketopti.
Otang kelopti

Yig'lama, Zulayho.

Otangning oti, -

Abdullaho'ja,

Bulturgi jo'ja!

(Aytuvchi: Maftuna, 10 yosh.)

Tog'da lola,

Bir qiz bola

Do'ppi tikadi.

- Do'ppisi qani?

- Sotib quydi.

- Puli qani?

- Aroq oldi.

- Arog'i qani?

- Otasi ichdi.

- Shishasi qani?

- Sindirib qo'ydi.

- Singani kani?

- Ko'mib qo'ydi.

- Ko'mmay o'l,

- Gumdond bo'l!

(Aytuvchi: Aziz, 11 yosh)

Matti, Matti deydi

Keloptiman deydi.

Orqasiga qarasam,

Keloptiman deydi.

Matti puchuq,

Sen chiq!

(Aytuvchi: Zarnigor, 8 yosh)

Bobo yongok,

Ichi to‘la yog‘.
Bolalarga
Asal qaymoq.
Seniki - u yoq,
Meniki - bu yoq!(Aytuvchi: Dilovar, 11 yosh)

Adabiyotlar:

1. K. Imomov, T.Mirzaev, B.Sarimsoqov, O.Safarov. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. T., O‘qituvchi, 1990 y.
2. Jirmunskiy V.M., Zarifov X.Z. Uzbekskiy narodnyy geroicheskiy epos. -M.: GIXL, 1947.
3. O‘zbek folklor ocherklari. T., Fan, 1987
4. D.O‘raeva. Motam marosim folklori. T., «Fan», 2005 y.
5. O‘zbek xalq afsun-duolarining janr xususiyatlari va badiiyati. T., «Istiqlol», 2006 y

Takrorlash uchun savollar:

1. Balalar follorining yuzaga kelishi qanday?
2. Allalarning ijtimoiy-estetik vazifasi haqida gapiring.
3. Allarning kompozitsion tuzilishi qanday?
4. Erkalama va ovutmacholarning kompozitsion tuzilishi haqida fikringiz.

O‘ZBEK MAROSIM FOLKLORI

(2 soat ma’ruza)

REJA

1. Mavsumiy marosimlar folklori.
2. Oilaviy marosimlar folklori.
3. Motam marosimlar folklori.
4. So‘zning sehr-jodusiga asoslangan marosimlar.

Insonga sihat-salomatlik tilash, uning turmushida to‘kin-sochinlik, kundalik hayotida omad keltirish yoki inson hayotining muhim nuqtalarini qayd etish,

nishonlash maqsadida maxsus o'tkaziladigan, xalq orasida qat'iy an'anaga kirib qolgan xatti-harakatlari marosim deyiladi. Marosimni o'tkazish paytida ijro etiladigan qo'shiq va aytimlar, o'qiladigan afsun va duolar marosim folklorini tashkil etadi.

O'tkazilish vaqti, o'rni va tarzi, funksiyalari va ishtirokchilar sostavi bilan marosim ikki katta qismga bo'linadi. Bular: a) mavsumi marosimlar folklori b) oilaviy-maishiy marosimlar folklori.

Insoniyat tarixi kashfiyotlar tarixidir. Mangu vaqtni osmon jismlari harakati va tabiat hodisalari holatiga qarab lahza, daqiqa, kun, fasllar, yillar, asrlarga taqsimlash ham insonning ana shunday eng buyuk kashfiyotlaridan biri bo'lgan. Bu kashfiyot tufayli asrlar davoida ovchilik, termachilik, chorvachilik, dehqonchilik rivojlandi. Xalqning asriy tajriba va bilimlari avlodlardan avlodlarga yetib keldi. Zamirida mifologik dunyoqarash yotgan ibtidoiy dinlardan to xalqaro dinlargacha bo'lgan ta'limotlar qaror topdi. Oilaviy, mahalliy, milliy, xalqaro urf-odatlar, irimlar, marosimlar, bayramlar paydo bo'ldi va insoniyatning beqiyos ma'naviy qadriyatlariga aylandi.

Har bir xalqning milliy o'ziga xosligini ko'rsatadigan an'ana va marosimlari, urf-odat va bayramlari bor. Asrlar bo'yi yaratilib, zukko xalqning yuksak ijodiy salohiyati tufayli sayqallanib kelgan ana shunday an'analar aslida o'sha millatning o'zligini, milliy qiyofasini belgilaydi. Ikki azim daryo oralig'ida shu muborak zamin-ona diyorimiz O'zbekistonda o'ziga xos qadimiy madaniyatni bunyod etgan zukko ajdodlarimizning yaratuvchilik, yasharish, yangilanish bilan bog'liq eng ezgu va hayotbaxsh g'oyalarini o'zida mujassamlashtirgan navro'z bayrami ham ana shunday betakror va muxtasham badiiy qadriyatlardan hisoblanadi. Zero "ko'klam nafasi ufurib, mayin shabadalar esa boshlashi, tabiat uyg'onib, kurtaklarning ochilishi bilan inson vujudiga yangi kuch, yangi g'ayrat kirgandek, uning tomiriga, uning qon-qoniga hayot va bahor nafasi yugurgandek bo'ladi, yuragimizni, butun borlig'imizni yaxshilik va yaratuvchilikka undaydi".

Qadimgi tarixga ega bo'lgan o'zbek xalq qo'shiqlari folklorning eng ko'p tarqalgan, keng ommalashgan, suyumli va faol janrlaridan bo'lib, xalqning bilimi, tajribasi, ma'naviy qadriyatlari xazinasi sanaladi. Prezidentimizning alla qo'shiqlari haqida: "Ona allasi faqat chaqaloq orom olishi uchun aytilmaydi, balki uning vositasida bolaning ko'ngil dunyosiga milliy ruh kiradi. Ona tilidagi mehr-muhabbat, nasliy tuyg'ular va orzular go'dakning jismu jonida ildiz qoldiradi",- deya bildirgan fikrlari qo'shiqlarimizning ta'sir kuchi va tarbiyaviy mohiyatiga berilgan yuksak bahodir.

Bahorgi mavsum bilan bog'liq marosimlar. Bahor kirishi bilan dehqon va chorvadorning dala ishlari boshlanadi.

Shox moylar marosimi. Shox moylar-dalaga qo'sh chiqarish marosimini o'tkazish vaqti, odatda, qishloq oqsaqollari tomonidan belgilangan. Ushbu marosimga qishloqning erkagu ayoli baravar tayyorgarlik ko'rishgan. Har bir xonadon imkoniyatiga qarab xilma-xil taomlar pishirgan, qishloqning obod yerlari supurib-sidirilgan, sholcha-gilamlar to'shalgan.

Marosim o'tkazilgan paytda kishilar tayyorlangan taomlarni qo'sh chiqarilgan joiga olib keladilar. Mana shundan keyin ish pishirilgan narsalarni qishloq ahliga taqsimlab beradilar.

Navro'z. Bu O'rta Osiyo xalqlarida juda qadimdan keng nishonlanib kelinadigan bahor bayrami. U bahorda kun va tun tengligi paytida, ya'ni 21-22 mart kunlari nishonlanib, bayram 25 martga qadar davom etgan.

Demak, navro'z hech qanday bayram bo'lmay, u bahor bayrami, tabiat va jamiyatdagi jonlanishning boshlanishidan darak beruvchi bayramdir.

Yomg'ir chaqirish marosimlari folklori. Lalmikor dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanuvchi kishilar bahor oylarida bo'ladigan yog'ingarchilikning miqdoriga qarab yil bo'yi olinadigan hosilning barakatini oldindan chamalab bilganlar.

O'zbeklarning qadamdan yomg'ir chaqirish maqsadida o'tkaziladigan ikkita marosimgina saqlanib qolgan. Ulardan biri yada (jada) toshi vositasida

o'tkaziladigan marosim bo'lsa, ikkinchisi yomg'ir tangrisi Sust xotinga iltijo qilish orqali yomg'ir charqishdan iborat.

Yada (jada) toshi vositasida yomg'ir chaqirish marosimi. Yada toshining ham yomg'ir chaqirish, ham ayrim kasaliklarni davolashda qo'llanuvchi sehrli predmetligi haqida XI asrning buyuk tilshunos olimi Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit turk», Ibn al-Faixning «Kitobi axbor» kabi asarlarida ma'lumot berilgan.

Yada (jada) so'zi qadimgi turkiy tildagi jat-jodugarlik so'zidan olingan bo'lib, u sehrli kuch-qudratga ega bo'lgan predmetlarga nisbatan qo'llanilgan. Keyinchalik bu so'z ob-havoga ta'sir ko'rsata olish xususiyatiga ega bo'lgan muayyan tosh turiga nisbatan qo'llanilgan..

«Sust xotin» marosimi. Dahshatli qurg'oqchilikning biron-bir chorasini topa olmagan qadimgi ajdodlarimiz yomg'ir so'rab turli-tuman marosimlar o'tkazishgan, har-hil tangrilarga, avliyo va anbiyolarga sig'inishdan o'zga chora topa olmagan. Mazkur marosim ham shu chorasizlikning mahsuli sifatida vujudga kelgan.

Ular qishloqdagi barcha xonadonlarga kirib, «Sust xotun» qo'shig'ini aytishgan. Xonadon egalari qo'g'irchoq ustidan suv sepib, marosim ishtirokchilarini xursandchilik bilan qarshi olishgan va marosimni o'tkazuvchilarga xayr-ehsonlar berganlar.

Qo'shiqda yomg'ir tangrisi Sust xotinga iltijo qilish, uning shaxsiyatini ulug'lash yetakchilik qiladi. Shuning uchun u quyidagi naqarat bilan boshlanib, xuddi shu naqarat bilan yakunlangan:

Sust xotin, sulton xotin,

Ko'lankasi maydon xotun.

Qo'shiqning qolgan baytlari bevosita qo'ng'iroq ko'targan ayol tomonidan aytilgan. Ularda dehqon sepkan bug'doyning mo'l hosil berishi, xonadonining shod-xurramlikka to'lishi, buning uchun esa Sust xotinning yomg'ir hadya etishi lozimligi kuylanadi:

Hosillar mo'l bo'lsin, Sust xotin,

**Dehqonning uyi to'lsin, Sust xotun,
Yomg'irlarni yog'dirgin, Sust xotin,
Yomonning uyi kuysin, Sust xotin.**

«Sust xotin» qo'shig'i boshlovchi ayolning so'zga chechanligi bilan bog'liq holda davom etaveradi. Nihoyat, naqorat ikki-uch marta takrorlash bilan marosim ham, unda ijro etiladigan qo'shiq ham yakunlanadi.

Yozgi marosim folklori. Yozgi marosimlar folkloridan faqat shamol to'xtatish bilan bog'liq ayrim janrlar saqlangan. Bular «Choy momo» marosimida ijro etiladigan qo'shiqlardan iborat.

«Choy momo» marosimi». Uzoq ajdodlarimiz shamolga g'ayri tabiiy kuch-qudratga ega bo'lgan jonli mavjudot sifatida munosabatda bo'lganlar. «Choy momo» marosimi esa ana shunday qarashlarning yorqin ifodasidir.

Ma'lumki, yoz oylari boshqali ekinlar ayni yetilgan, mevalar g'arq pishgan mahalda surunkali qattiq shamol bo'lsa, yetilgan hosil nobud bo'lishi mumkin. Mana shunday bir paytda tabiat kuchlari oldida o'zlarini ojiz sezgan otabobolarimiz «Choy momo» marosimiga murojaat etishdan o'zga chora topa olmaganlar.

**Choy, choy, Choy momo,
Choy momosi o'libdi,
O'g'li yetim qolibdi,
Bosa-bosa beringlar.
Bosilib qolsin bu shamol.
Uga-uga beringlar,
Ugilib qolsin shu shamol,
Oblo-hu, oblo-hu...**

Xullas, «Choy momo» marosimi juda qadim zamonlarda kishilar tabiat va tabiat hodisalarini jonli mavjudot sifatida tasavvur qilib, ularga sig'ingan paytlarda vujudga kelgan. Tarixiy taraqqiyot, kishilar ongining o'sishi oqibatida ana shunday tasavvurlar sekin-asta unutila boshlagach, marosim ham turli-tuman o'zgarishlarga uchragan holda bizning kunlarimizga yetib kelgan.

Kuzgi marosim folklori. Kuz dehqon hayotida katta o‘rin egallaydi. Bu faslda kishi yoz bo‘yi qilingan mehnatining samarasini yig‘ishtirib oladi; chorvador esa qishlovga yem-hashak, ozuqa tayyorlaydi.

Boshqa xalqlarda bo‘lganidek, o‘zbek kuzgi maromislari folklori ham juda boy bo‘lgan. Biroq o‘z vaqtida yozib olinmaganligi sababli ularning aksariyati izsiz yo‘qolgan. Hozirga qadar o‘zbek kuzgi marosimi folklori janrlaridan faqat ikkitasi-oxirgi tutam bug‘doyini o‘rib olish («Oblo baraka») va shamol chaqirish marosimlarigina saqlanib qolgan.

Oxirgi tutam bug‘doyini o‘rib olish marosimi yil bo‘yi qilingan mehnat samarasini nobud qilmay yig‘ib olishga xizmat qiladi.

Shamol chaqirish marosimi. Mazkur marosimni o‘tkazish tarzi, ishtirokchilar sostavi haqida hech qanday ma‘lumot saqlanib qolmagan. Farg‘ona vodiysi, Toshkent, Jizzax, Samarqand va Buxoro atroflarida shamol chaqirish marosimida aytiluvchi qo‘shiqning to‘rt misrasigina saqlanib qolgan xolos.

Qo‘shiqda shamol sifatida Haydar shaxsiyatiga, ya‘ni Muhammad payg‘ambarning kuyovi Hazrati Aliga murojaat qilinadi. Afsonalarga ko‘ra, Haydar kuch-qudrati va tadbirkorligi bilan barcha tabiat hodisalari, jumladan, shamolni ham o‘z izmida saqlar emish. Agar unga iltijo qilib murojaat etilsa, u o‘zi tutib turgan shamolni qo‘yib yuborar emish. Bu narsa quyidagi to‘rtlikda ko‘zga yaqqol tashlanadi:

Haydar, ota-onang o‘libdir,

Moli senga qolibdir.

Bolang suvga oqibdir,

Shamolingni qo‘yvor.

Xullas, o‘zbeklarning yozgi mavsumiy marosimlari va ularda ijro etiladigan qo‘shiqlar rang-barang bo‘lib, ularning aksariyati saqlanib qolmagan.

Qishki marosimlar folklori. Gap-gashtak marosimi erkaklar tomonidan mahallalardagi choyxona eski bo‘sh xonadonlardan birida o‘tkaziladi. O‘tirish, asosan, kechki payt boshlanib, erta tongga qadar davom etgan. Gap-gashtakni boshqaruvchi oqsoqol va uning yordamchisi saylangan. Ular ziyofat berishning

navbati, ziyofatning me'yori, o'tirishda o'tkaziladigan o'yinlarning xarakteri, tartib-intizom kabilar ustidan nazorat olib borganlar.

Yas-yusun marosimi. Mazkur marosim, asosan, ko'chmanchi chorvadorlar o'rtasida qimixxo'rlik marosimi sifatida yuzaga kelgan bo'lib, uning ma'nosi davrada o'tirish qoidalari demakdir. Yas-yusun o'ttiz-qirq kishining qo'shilib, sherda (mehmonxona) uyushtirish oraqali tashkil etiladi. Sherdaning ikki xil shakli mavjud. Birinchisi-xarajat harpana (harifona), ya'ni barcha ishtirokchilar tomonidan umumiy to'plash orqali tashkil etilsa, ikkinchisi-har kun bir kishining harajat qilishi yo'li bilan tashkil qilinadi. Sherdaning raisi, raisning o'ng va chap otaliqlari (o'rinbosarlari) butun marosimga rahbarlik qiladilar. Bulardan tashqari eshik og'asi (sherda o'tadigan uy xo'jayini), biy va uning o'rinbosarlari beradigan buyruqlarni bajartiruvchi yasavul, kosagul (soqiy) kabi javobgar shaxslar ham marosimda muhim vazifa bajaradilar.

Oilaviy-maishiy marosimlar folklori. Marosim folklorining katta qismini oilaviy-maishiy marosimlar folklori tashkil etadi. Chunki insonning yovvoyi yashash tarzidan madaniy yashash tarziga o'tishi oila degan muqaddas narsaning yuzaga kelishi bilan bog'liq holda amalga oshadi. Insonning tug'ilishidan tortib to vafotigacha bo'lgan hayoti bevosita oila doirasida kechadi.

To'y marosimlari folklori. «To'y» atamasi «to'ymoq», «el yurtga ziyofat bermoq», «yor-do'stlar diydoriga to'yinmoq» kabi ma'nolarni anglatadi. Demak, to'y ham moddiy, ham madaniy oziqlanish marosimidir.

Beshik to'ylari folklori. To'yning bu turi oiladagi to'ng'ich farzandga bag'ishlab tantanali o'tkaziladi. Oilaning moddiy turmush darajasi bilan bog'liq holda beshik to'yi keyingi farzandlarga ham o'tkazilishi mumkin. Marosim so'ngida isiriq tutatilib, beshik atrofidan uch marta aylantiriladi va quyidagi aytim aytiladi:

Isiriq, isiriq,

Chatnasin isiriq,

Tutasin isiriq.

Bolamga ko'z tegmasin,

Kim qo‘zimga ko‘z qilsa,

Ko‘zlari oqib tushsin!

Nihoyat, chaqaloq beshigi bilan alohida xonaga o‘tkazilib, onasining ixtiyoriga topshiriladi. Barchaga osh tortiladi. Osh yeyilgach, keksa bir ayol olqish aytadi va beshik to‘yi yakunlanadi.

To‘y marosimi Nikoh to‘yi marosimi udumlarida tunda kuyovni kelinnikiga olib borish yoki kelinni bo‘lajak umr yo‘ldoshining xonadoniga olib kelish chog‘ida bajariladigan adadlar alohida o‘rin tutadi.

Kiyovnarkarlar oldida borayotgan jarjilar yo‘l bo‘yi to‘y bo‘layotganligini, kelin xonadoni tomon kiyov borayotganligini elga ma’lum qilish uchun jo‘shib-hayqirib qo‘shiq aytishadi. Professor O.Saforovning aniqlashicha, «kiyov eltish» udumi chog‘ida aytiladigan qo‘shiq Karmana, Toshrobot, Arabsaroy qishloqlarida «Huy bale», Shofirkon tumanining Dodbog‘ni, Qumbosdi, Talisafed, Qal‘ai Mirarab, Yo‘xsun qishloqlarida «Antalho» deb ataladi. Bu qo‘shiqlar asosan lirik xarakterdagi to‘rtliklardan iborat bo‘lib, har band yoki misradan keyin naqorat (Huy bale, Antalho) qaytariladi. Ayrim qishloqlarda kelinni kiyovnikiga olib borayotganda ham kuyov jo‘ralarning jarchilari tomonidan «Huy bale» qo‘shig‘i aytiladi.

Sen qachon gul deb yubording,

Men senga yo‘l bemadim,

Sen qachon shahzoda bo‘lding,

Men senga gul bo‘lmadim

Dutoringni qo‘lga olib,

Qomatingday tutmading.

Huy-huy-huy, huy bale!

O‘zbek xalq nikoh to‘yi marosimining tarkibiy qismi sanaladigan «Qiz uzatish» kechasi yor-yor aytiladi. Bu janr o‘zining ijro etilish o‘rni, usullari, ijrochilar tarkibiga ko‘ra hududiy farqlanishlarga ega. Xususan, ayrim joylarda

yor-yorni kelin tomonning chechan ayollari ijro etishsa, ba'zan qudalashayotgan har ikki tomon vakillari birgalikda, aytishuv tarzida kuylashlari kuzatiladi.

Yor-yor mavzu jihatidan ham g'oyat sermazmun. Unda to'y bo'layotgan xonadonning sifatlari ulug'lanadi, qiz o'stirib, o'g'il uylantirish, ya'ni farzandlar kamolini ko'rish har bir ota-ona hayotining mahiyatini tashkil etishi tarannum etiladi. Yor-yorda kelin va kiyovning go'zalligi, odobli aqlli ekanligi alohida ta'qidlanadi. Yoshlarga uzoq umr, yaxshi farzandlar tilash baxtli hayot kechirishga undash yor-yorning yetakchi yo'nalishidir.

Yor-yor aytib kelimiz

Avval boshlab aytinglar,

Yo bismillo, yor-yor.

Bu olamni bor qilgan,

Oллоh taolo, yor-yor.

Bizdan burun payg'ambarlar,

O'tibdikan, yor-yor.

Ummatlarga yo'l solib,

Ketibdikan yor-yor,

Ummadlarni umid bog'lab,

To'y qilibdi, yor-yor.

Ostonasi tillolik

Uy qilibdi, yor-yor.

“Oydinda sovchi keldi”, ” Oy oldida bir yulduz”, “ Singlim qoshi qarodir”, “Osmondagi yulduzlar oy bolasi”, “Bu dunyoda bormikan”, “Sakkiz qizning sardori” kabi yor-yorlar xalq orasida sevib ijro etiladi.

Xatna (sunnat) to'ylari folklori. Xalq o'rtasida bu to'y «xatna to'yi», «sunnat to'yi», «chukron», «qo'lini halollash» kabi atamalar bilan yuritiladi.

Xatna to'yi, odatda, bolaning toq yoshlarida o'tkaziladi. Tasavvurlarga ko'ra, xatna bolaning juft yoshlarida o'tkazilsa, baxtsizlik keltirar emish. Hozir xatna to'yi bola maktabga borgunga qadar o'tkaziladi.

Motam marosim folklori. Motam inson umrining oxirini qayd etuvchi mungli marosimdir. Shu boisdan ushbu marosim ijro etiluvchi folklor janrlari, marosim ishtirokchilari, ularning kiyim-boshlari hamma-hammasi motamsaro va mungli xarakter kasb etadi.

O'zbek motam marosimida, asosan, ikkita folklor janri ijro etiladi. Bular: yig'i-yo'qlovlari va motam yor-yorlaridan iborat.

Yig'i-yo'qlovlarning tematik doirasi keng bo'lib, bu narsa yig'ichilarning hayotiy tajribasi va ruhiy dunyosi bilan shartlangan. Biroq hamma vaqt ham yig'i yo'naltirilgan ob'ekt bilan yig'ida ifodalangan tematika to'la mos kelavermaydi. Masalan, yig'i marhum farzandga qaratilgan bo'lsa ham, biroq unda yig'ichining shaxsiy dard-alami, ruhiy izrtioblari keng maishiy-falsafiy planda ifodalanishi, ya'ni yig'i tematikasi uning ob'ekti doirasidan tashqariga chiqib ketadi.

Motam marosimi folklorida ona vafoti bilan aytiladigan yig'ilar talaygina. Ularda onaning mehribon siymosi, farzandlar uchun fidoyi qalbi ulug'lanadi:

Mozor yo'li andadur, voy onam,

Tuproqlari maydadur, voy onam,

Shirin-shakar onamni, voy onam,

Endi ko'rmoq qaydadur, voy onam.

So'zning sehr-jodu qudratiga asoslangan marosimlar folklori. So'z sehriga asoslanuvchi, o'zbek marosim folklori janrlari o'zida xalqning qadimgi e'tiqoddiy tasavvurlarini obrazli tarzda aks ettirgan. Demak, ularni amaliy vazifa ado etuvchi badiiy janrlar sifatida tadqiq etish mumkin.

O'zbek xalq afsun-duolari qadimgi ajdodlarimizning tabiat hodisalari, kishilarning sehr-jodu qudratlariga ishonch-e'tiqodlari natijasida vujudga kelgandir. Shu bois afsun-duolarga kishilar estetik lazzat olish istagi bilan emas, balki kundalik maishiy ehtiyoj tufayli murojaat etganlar. Masalan, kimdir qo'ziqib qoldi, kimnidir biror zaharli jondor chaqib oladi va x.k. Mana shunday paytlarda kishilar chorasizlikdan ota-bobolari qachonlardir kashf etgan va sehr-jodu qudrati bor deb taxmin etilgan aytimlarga, xatti-harakat va narsalarga murojaat qilganlar.

Ma'lum bo'ladiki, xalq afsun-duolari estetik vazifa bajaruvchi janrlar bo'lmay, balki sof maishiy-amaliy vazifa o'tovchi janrlar hisoblanadi.

Xalq afsunlari. «Afsun» arabcha sehr-jodu ma'nolarini anglatadi va folklorshunoslikda duo, aytimlar ma'nosida qo'llaniladi.

Turli xastaliklarda aytiladigan afsun-duolar.

Ular tarixiy asoslari hamda tili jihatidan ikki xildir:

A) diniy afsun-duolar. Bu xildagi afsun-duolar xalq orasida keng tarqalgan bo'lsalar ham, biroq ular tarixan xalq afsun-duolaridan farqlanib turadilar. Diniy afsun-duolar «qur'on» va boshqa muqaddas manbaalardan olingan bo'lib, asosan o'qimishli kishilar-mullalar, eshon va otinbibilar tomonidan o'qilgan.

B) sof xalqona afsun-duolar. Bular o'z ildizlari jihatidan xalqning ruhlari, dastlabki ajdodlar haqidagi e'tiqodiy qarashlari bilan aloqadorlikda vujudga kelganlar.

Ruhiy xastaliklarda o'qiladigan afsunlar. Bu xildagi xalq afsunlari unitilgan bo'lib, hozir xalq o'rtasida mullalar tomonidan o'qiladigan afsunlarning aksariyati islomga aloqador va ularni o'zbek xalq og'zaki ijodi doirasida olib qaraganda to'g'ri emas.

Badik badaniga suvchechak, qizilcha, eshakemi kabi toshmalar chiqqanida o'qiladigan afsun bo'lib, u qaltiramoq, titramoq ma'nolarini anglatuvchi turkiy «baz» so'zidan olingan demak, badaniga yuqorida aytilgan toshmalar toshganda o'tkaziladigan marosim va o'qiladigan afsun turi badik deb ataladi.

Kinna atamasi suq, xasad, kek, o'ch, xusumat kabi ma'nolarni anglatuvchi kin so'zidan olingan. Uzoq ajdodlarning tasavvuricha, kinna manbai baxil, kek saqllovchi, o'zgalarning muvaffaqiyatini ko'ra olmaydigan shaxslarning ko'zidan kiradi. Shuning uchun bunday kishilarga nisbatan xalq orasida «ko'zi bor», «ko'zlik», «kinnasi bor» kabi iboralar ishlatiladi.

Xullas, o'zbek marosim folklori ijtimoiy tariqqiyot bilan bog'liq holda o'zining janrlar sostavini boyitib, tarixiy taraqqiyot talabi rang-barang vazifalarini o'tashga moslashib hozirgi kunga qadar yashab kelmoqda. Ularning izchil to'plash

va ilmiy nuqtai nazardan jiddiy tadqiq etish o'zbek folklorshunosligining muhim vazifasi hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. K. Imomov, T.Mirzaev, B.Sarimsoqov, O.Safarov. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. T., O'qituvchi, 1990 y.
2. Jirmunskiy V.M., Zarifov X.Z. Uzbekskiy narodnyy geroicheskiy epos. -M.: GIXL, 1947.
3. O'zbek folklor ocherklari. T., Fan, 1987
4. D.O'raeva. Motam marosim folklori. T., «Fan», 2005 y.
5. O'zbek xalq afsun-duolarining janr xususiyatlari va badiiyati. T., «Istiqlol», 2006 y

Takrorlash uchun savollar:

1. Mavsumiy marosimlar folklori haqida tushunchangiz.
2. Oilaviy marosimlarni sanab bering.
3. Motam marosimlar haqida gapiring.
4. So'zning sehr jodusiga asoslangan marosimlar qanday?

Adabiyotlar:

1. K. Imomov, T.Mirzaev, B.Sarimsoqov, O.Safarov. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. T., O'qituvchi, 1990 y.
2. Jirmunskiy V.M., Zarifov X.Z. Uzbekskiy narodno'y geroicheskiy epos. -M.: GIXL, 1947.
3. O'zbek folklor ocherklari. T., Fan, 1987
4. D.O'raeva. Motam marosim folklori. T., «Fan», 2005y.
5. O'zbek xalq afsun-duolarining janr xususiyatlari va badiiyati. T., «Istiqlol», 2006 y
6. Jahongirov G'. O'zbek bolalar folklori. T., 1974
7. Safarov O. O'zbek bolalar poetik folklori. T., 1985.
8. Safarov O. Folklor va bolalar adabiyoti. O'zbek tili va adabiyoti jurnali. 2003y, 6-son.

9. Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi. T., G‘.G‘ulom nashriyoti, 1972 y
10. Ravshan. T., G‘.G‘ulom nashriyoti, 1976 y
11. Sh.Turdimov. Go‘ro‘g‘li nomi xususida. O‘zbek tili va adabiyoti jurnali. 2000y, 3-son.
12. Madaev O. «Alpomish» bilan suhbat.-., «Ma’naviyat», 2000 y
13. Yo‘ldashev Q. Alpomish talqinlari. T., «Ma’naviyat», 2001 y
14. Murodov M. Erashev A. Alpomishnoma. T., Sharq matbaa- nashriyot konsterni 2001 y.
15. S.Mirzaeva. O‘zbek xalq romanik dostonlari poetikasi. T., «Fan», 2004 y.
16. Sh.Hasanov. Doston janridagi o‘zgarishlar va yangicha badiiy talqinlar. O‘zbek tili va adabiyoti jurnali. 2000 y, 2-son.
17. A.Rahimov. Xalq dostonlari tilidagi qadimgi turkiy so‘zlar. O‘zbek tili va adabiyoti jurnali. 2001 y, 4-son.
18. N.Sobirova. Dostonlarda sehrli buyumlar talqini. O‘zbek tili va adabiyoti jurnali. 2002 y, 1-son.
19. O‘zbek xalq maqollari. T., 1989 y. G‘.G‘ulom nashriyoti.
20. Buyuk Karimiy. O‘zbek xalq ertaklarining ba’zi bir xususiyatlari. O‘zbek tili va adabiyoti jurnali. 1995 y, 6- son.
21. S.Jumaeva. Hayvonlar haqidagi ertaklarning spetsifikasi. O‘zbek tili va adabiyoti jurnali. 1996 y, 5-son.
22. K.Qodirova. Sehrli-fantastik ertaklarda epik vaqt tushunchasi. O‘zbek tili va adabiyoti jurnali. 1998 y, 4- son.
23. Gulyor. Farg‘ona qo‘shiqlari. T., 1962 y. G‘.G‘ulom nashriyoti.
24. M.Jumaniyozova. Xalq qo‘shiqlarining nashrlarida sheva unsurlari. O‘zbek tili va adabiyoti jurnali. 1997 y, 4-son.
25. M.Yoqubbekova. O‘zbek xalq qo‘shiqlarida o‘xshatishlarining tabiatiga doir. O‘zbek tili va adabiyoti jurnali. 2000 y, 6-son.
26. Qo‘shiqning lingvopoetik xususiyatlari. O‘zbek tili va adabiyoti jurnali. 2003 y, 4-son.
27. Latifalar. G‘.G‘ulom. T., 1985 y

28. Y.Nurmurodov. O‘zbek xalq latifalari nemis tilida. O‘zbek tili va adabiyoti jurnali. 2000 y, 3-son.
29. Topishmoqlar. T., 1985 y. G‘.G‘ulom nashriyoti
30. M.Saparniyozova. Topishmoqlarda metaforik ma’no. O‘zbek tili va adabiyoti jurnali. 2004 y, 6-son.
31. U.Qobulova (ilmiy axborot). Topishmoqlarning struktur tahlili. O‘zbek tili va adabiyoti jurnali. 2005 y, 4-son.
32. S.Saparniyozova (ilmiy axborot). O‘zbek tili va adabiyoti jurnali. 2005 y, 3-son.
33. O‘zbek xalq maqollari. T., 1989 y. G‘.G‘ulom nashriyoti.
34. N.Usmonov. Xalq maqollarida ta’limga oid atamalar. O‘zbek tili va adabiyoti jurnali. 1992 y, 2-son.
35. B.Soatov. O‘zbek xalq maqollari poetikasiga doir mulohazalar. O‘zbek tili va adabiyoti jurnali. 1992 y, 5,6-son.
36. N.Jumatova. O‘zbek xalq maqollaridagi rang bilan bog‘liq ramziy obrazlar. O‘zbek tili va adabiyoti jurnali. 1997 y, 6-son.
37. T.Rahmonov. Mif diffuziyasi va epik motivlar. O‘zbek tili va adabiyoti jurnali. 19935 y, 3-son.
38. K.Imomov. Mif va yalmog‘iz. O‘zbek tili va adabiyoti jurnali. 1995 y, 5-son.
39. G‘.Akramov. Mif va yozma adabiyot munosabatiga doir. O‘zbek tili va adabiyoti jurnali. 1996 y, 4-son.
40. G‘.Akramov (olimlar ilmiy merosidan). Mif va yozma adabiyot munosabatiga doir. O‘zbek tili va adabiyoti jurnali. 1996 y, 6-son.
41. G‘.Akramov (olimlar ilmiy merosidan). Mif va yozma adabiyot munosabatiga doir. O‘zbek tili va adabiyoti jurnali. 1996 y, 2-son.
42. A.Axmedov. Xalq og‘zaki ijodiyotining umuminsoniy mazmuni. O‘zbek tili va adabiyoti jurnali. 1995 y, 6-son.
43. J.Eshonqulov. O‘zbek xalq asarlarida o‘zga dunyo tushunchasi. O‘zbek tili va adabiyoti jurnali. 1996 y, 2-son.

44. S.Sariev. Xorazm «Go‘ro‘g‘li» dostonlarining qo‘lyozma variantlari. O‘zbek tili va adabiyoti jurnali.2006 y, 1-son.
- 45.Avezov S.S.Sanama janri tabiiati va badiiyati. Avtoreferat. T. 2004 y
- 46.Karimov I.A.O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi IX sessiyasida so‘zlangan nutq.Barkamol avlod orzusi.-Toshkent: Sharq, 1999.-B.8.
- 47.Ro‘zmetov H.Q.Xorazm bolalar folklori.Avtoreferat.T.2005 .
- 48.Tursunov I.N.Xalq termalarining tarixiy asoslari va badiiyati.Avtoreferat.T.2011

2012

TEKNOLOGIK XARITA

Ma'ruza mashg'ulotlarini tashkil etishning
texnologik xaritasi

Texnologik xarita o'zbek filologiyasi yo'nalishi «O'quv reja'siga muvofiq 1-kurs 1-semestrida o'tiladigan “Халқ оғзаки ижоди” fani bo'yicha tuzilgan. Unda har bir mavzu bochiqlar bo'yicha taqsimlangan hamda bu bosqiqlar mohiyati yoritilib berilgan.

S. Mirzayeva., Z. Eshanova
Microsoft
02.06.2012



“Xalq og`zaki poetik ijodi” fanidan

texnologik xarita

(O`zbek filologiyasi 1-bosqich talabalari uchun)

**1- mavzu: Kirish. Xalq ogʻzaki poetik ijodi haqida umumiy maʼlumot.
Xalq ogʻzaki poetik ijodining oʻziga xos xususiyatlari**

T/r bosqich	Bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi maʼsul
1- bosqich 15 daqiqa	Dars maqsadi: «Xalq ogʻzaki poetik ijodi» fanining predmeti, maqsadi, vazifasi va boshqa fanlar bilan munosabati xususida talabalar bilimini mustahkamlash, ularda bu tushunchalarni mustaqil tarzda tushuntirib bera olish koʻnikmasini shakllantirish. Xalq ogʻzaki poetik ijodi fani haqida maʼlumot berish. Uni oʻrganish obʼektini misollar orqali sharhlash. Xalq ogʻzaki poetik ijodining maqsad va vazifalari, uning oʻqitishdagi ahamiyatini talabalar ongiga singdirish. Identiv oʻquv maqsadlari: 1. Xalq ogʻzaki poetik ijodi fani haqida qisqacha maʼlumot beradi. 2. Xalq ogʻzaki poetik ijodining oʻrganish obʼyektlarini izohlaydi. 3. Xalq ogʻzaki poetik ijodining asosiy vazifasini oʻrganadi. 4. Xalq ogʻzaki poetik ijodining oʻquvchilar bilimi va maʼnaviyatini oshirishdagi ahamiyatini belgilaydi. 5. "Folklor" atamasini izohlaydi. 6. Folklorning xalq pedagogikasi hamda boshqa fanlar bilan aloqasini tushuntiradi.	Oʻqituvchi
2- bosqich 30 daqiqa	Asosiy tushunchalar: filologiya tushunchasi, xalq ogʻzaki poetik ijodi, anʼnaviylik, variantlilik, anonimlik, ogʻzakilik. Dars shakli: tushuntirish va baholash Vositalar: koʻrgazmali qurollar, tarqatma materiallar, slayd va multimediyalar Metod va usullar: kitob bilan ishlash, kuzatish, tushuntirish, asarlar tahlil qilish	Oʻqituvchi
3- bosqich 15 daqiqa	Guruhda ishlash - Fanning maqsad va vazifalari tushuntiriladi - Mavzuga oid atamalar izohlanadi. - Talabalar guruhlariga ajratiladi xalq ogʻzaki ijodining oʻziga xos xususiyatlari izohlanadi. - xalq ogʻzaki ijodidagi asarlar bilan yozma adabiyot asarlari solishtiriladi.	talaba
4- bosqich 10 daqiqa	Mustahkamlash va baholash ushuv savollar 1. Xalq ogʻzaki poetik ijodi qanday fan? 2. Xalq ogʻzaki poetik ijodi fanining oʻrganish obʼektlari nima? 3. Folklor termini haqida tushunchangiz. 4. Oʻzbek xalq poetik ijodi haqida nimalarni bilasiz? 5. Xalq ogʻzaki poetik ijodining oʻziga xos xususiyatlari qanday?	Oʻqituvchi - talaba
5- bosqich 10 minut	Umumiy yakuniy xulosalar chiqarish Maqsad va vazifalar bajarilganligi tahlil qilinadi, kerakli maslahatlar beriladi, mustaqil ish topshiriqlari tarqatiladi, xulosalar chiqariladi.	Oʻqituvchi

